

ALOUDDIN MANSUR

IMOMI A'ZAM — BUYUK IMOMIMIZ

G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti
Toshkent — 1999

Nashrga tayyorlovchi: O‘KTAMBEK KARIMOV
Mas’ul muharrirlar: ANVAR HOJI TURSUNOV, ALISHER SOBIROV

Islomdagi to‘rt mazhab musulmonlarining aqidasi bir bo‘lib, ibodat va muomalatlardagina ayrim farqlar bor. Mazhablar o‘rtasidagi ixtiloflar juz’iy hisoblanadi va bu aqidadagi emas, balki ayrim ibodatlardagi ixtiloflardir. Bizning ota-bobolarimiz, bugunga islom olamining teng yarmi amal qiladigan Imomi A’zam abu Hanifa mazhabi ibodatdagi qulayliklari, payg‘ambar sunnatlarini olamga izchil yoyganligi bilan ham muhimdir. Mazkur kitobda islom va unga amal qilishga oid, shuningdek, mazhablarning har biri o‘zicha afzal va ayni paytda, boshqalari ham inkor etilmasligi borasidagi tarixiy manbalardagi mulohazalar kitobxon e’tiboriga suhbat tarzida havola etiladi.

LA ILAHA ILLALLOH...

— Muhtaram ustoz, ilk suhbatingizni har bir mo “min-musulmon bir umr har kuni aytadigan "La ilaha illalloh, Muhammadur Rasululloh" kalimasiga bag‘ishlasangiz? Ushbu kalimani chin dildan tasdiqlagan holda aytishimiz — chin mo ‘minligimiz belgisi ekan, demak, uning zamirida qanday ma’nolar borligini bilishimiz zarur bo‘lsa kerak?

— Avvalan, janobi Haq taologa beedad hamdu sanolarimiz, hazrati Muhammad Mustafoga duo va salavotlarimiz bo‘lsin. Albatta, O‘ktambek, bu xususda, avvalo, masalan "Bilishimiz zarur bo‘lsa kerak?" deb ko‘yish sal o‘rinsizroq. Shuning uchun avval-boshdanoq "Buni bilishimiz zarur!" deb, qat’iyat bilan javob qilamiz.

"La ilaha illalloh, Muhammadur Rasululloh" kalimasi — iymon kalimasi shu qadar buyuk, insoniyatni najotga olib boradigan kalimaki, hazrati Rasululloh sallallohu alayhi vasallam o‘zlarining bir muborak hadislarida: "Mendan avvalgi payg‘ambarlarning ham va mening ham aytgan so‘zlarimizning eng yaxshisi "La ilaha illalloh", — deganlar. Demak, bu kalima barcha payg‘ambarlarning tilidagi kalima ekan. Ollohnинг elchilari bo‘lmish buyuk zotlarning dili va tilidagi kalima biz muslimonlarga nasib etgan ekan, bu bizning baxtimizdir.

Hazrati Rasululloh sallallohu alayhi vasallam bir hadisi muboraklarida: "Kimda-kim "Lailaha illalloh", desa, jannatta kirur", deb marhamat qilganlar. Bu ikki og‘iz bilan aytildigan va’da dunyo va Oxirat diyoridagi abadiy umrning baxt-saodatiga kifoya qiladigan va’dadir.

Demak, bir so‘z insonni do‘zax azoblaridan qutqarib, jannatga kirishiga sabab bo‘lar ekan, bu so‘zning o‘ziga yarasha yuki, vazni, mazmun-mohiyati bor, Biz mana shuni bilsak, bu muqaddas kalimani tushungan holda aytsak hamda uning mazmuniga amal qilsak, inshoollo, shu va’daga musharraf bo‘lamiz. Bizni jannatga yetaklab boradigan tawhid kalimasi o‘zbekchada: "Yolg‘iz Ollohdan boshqa Ollo yo‘q, Muhammad Ollohnинг elchisidir", deganidir.

— Ustoz, Siz, avvalo, "La ilaha illalloh" kalimasi ustida batafsilroq to‘xtalsangiz. "Ollo"degan kalimaning o‘zini qanday tushunmog‘imiz kerak? Ollohnинг birligini qanday anglamog‘imiz lozim?

— "Ollo" kalimasi arab tilida "ibodat qilinguvchi ma‘budi barhaq" deganidir. Ya’ni sig‘inib, ibodat qilib topinishga loyiq bo‘lgan yolg‘iz zot Ollohdir. Ollohdan boshqaga sig‘inib bo‘lmaydi. Ollohdan boshqadan qo‘rqil-maydi. Olloh yagona bir zotki, o‘sha zotga ibodat qilish, o‘sha zotning buyruqlarini ijro etish bilan Unga bandalik, ya’ni, qullik qilinadi.

Lekin bizlarning bir nuqsonimiz bor — ko‘pincha biz "La ilaha illalloh" kalimasini uning asl mohiyatini tushunib yetmagan holda aytamiz. Ko‘p holatlarda uning o‘rnini ham bilmaymiz. Hatto bu kalima boshga bir balo tushganda, masalan, yer qimirlaganda yoki havo o‘zgarib, chaqmoq chaqqanda aytildigan iboraga o‘xshab qolgan. Aslida, bu kalima har bir mo “minning bir umrlik hamrohi bo‘lishi kerak. Chunki "La ilaha illalloh" dinimizning shioridir. Tavalludimizdan vafotimizgacha hamroh bo‘ladigan shiordir.

Chaqaloq dunyoga kelgach, uning qulog‘iga azon aytildi. O‘sha azon tarkibida "Ashhadu alla ilaha illalloh" degan ibora bor. Demak, chaqaloqning birinchi eshitgan kalimasi "La ilaha illalloh" bo‘lyapti. Musulmon odam o‘zining namozlarida ham bir kunda bir necha martalab bu kalimani takror-takror aytadi. Masjidlarimizda har kuni besh bor azon aytilar ekan, mana shu kalimai muborak takrorlanadi. Kishi so‘nggi safariga chog‘lantan paytda ham atrofdagi muslimonlar unga "La ilaha illalloh" deb talqin qilib turadilar. Ya’ni, so‘nggi. nafasida "La ilaha illalloh"ni aytib ketsin, deb eslatib, ovoz chiqarib atrofida shu kalimani takrorlab turadilar. Demak, muslimon kishi umrining avvalgi soatlarida eshitgan kalimasini o‘layotib ham eshitadi va aytadi. Bu kalimaning bir umrlik hamrohimiz ekanligi mana shundadir.

Biz bu kalimani o‘zbekcha qilib, "Yolg‘iz Ollohdan boshqa sig‘inishga loyiq zot yo‘q", dedik. Mazmuniga ko‘ra bu kalima tawhid kalimasi, deb ataladi.

Tavhid degani Olloohni yagona deb bilishdir. Olloh taoloni yolg'iz sig'iniladigan, e'tiqod qilinadigan zot deb bilish Islomning asosiy tomiridir. Ya'ni, dinimizning ildizi — "La ilaha illalloh". Olloohni yolg'iz bilmoqlik shariatimiz tomonidan shu qadar ahamiyat bilan tushuntirilgan va Qur'oni Karimda ketma-ket takrorlanganki, hatto muqaddas kitobimiz 23 yil davomida nozil bo'lgan bo'lsa, o'sha muddatning 13 yili mobaynida asosan "La ilaha illalloh" kalimasini ta'lim berib kelgan. Ya'ni, yolg'iz Ollohg'a sig'ining, yolg'iz Ollohdan boshqadan qo'rwmang, degan talqinni 13 yil davomida Makkai Mukarramada nozil bo'lgan suralarida Olloh taolo bizlarga ta'lim bergan. Buning ahamiyati juda muhimdir. Chunki, bizlar, avvalo, Ollohnинг borligini bilishimiz va shuni bilib e'tiqod qilganimizdan keyin U Zotning birligini bilishimiz juda zarurdir. Shuning uchun ham "Xudo bitta" degan ta'kidga dinimizda ayricha ahamiyat berilgan.

Aslida, Ollohnинг borligi butun olamdan ko'rinish turibdi. Insonning va butun mavjudotning tabiatida Ollohnинг borligiga iymon yotadi. Xudoning borligini eslamaydigan har qanday kas, boshiga bir tashvish tushib, najot yo'lini topolmay qolsa, tiliga "Ey Xudo" degan ibora keladi. Buni kim olib keladi unga? Hech kim majbur qilmaydi-ku?! Ehtimol, u kimsa o'sha damgacha bir umr Xudoni eslamay o'tgandir? Lekin burchakka taqalib, najot yo'lini topa olmay qolgan o'sha lahzada u Olloh deydi, Xudo deydi, Tangrim deydi. Demak, Ollohg'a yolborish va unga sig'inish insonning vujudida bor ekan. Nafaqat inson, balki hayvonot olamiga ham e'tibor bersak bo'ladi. Masalan, bir itga birov nojo'ya harakat bilan azob bersa, u ham osmonga qarab "uv" tortadi. Bu itning Xudoga nolasidir. Butun borliqda Xudoning borligiga dalolat borki, buni bilish uchun u qadar katta ilm ham darkor emas. Oddiy aqli inson Yaratuvchi borligini o'z aqli bilan bilib, xulosa qilib olsa bo'ladi. Qolaversa, Ollohnинг borligi aqliy dalillar shu qadar ko'pki, har xil maxluqotlar to'la bo'lgan o'ta murakkab bu Olam shu qadar mukammal yaratilganki — bu mukammallik o'z-o'zidan paydo bo'lib qolganligiga aqli odamning aqli bovar qilmaydi.

Inson kichikroq bir tahsinga loyiq ish qiladigan bo'lsa, hamma uning otasiga balli, deydi. Endi bu qadar mukammal bo'lgan olamni, bir-biroviga bu qadar mutanosib bo'lgan mavjudotlarni, insonning hayoti uchun kerak bo'lgan hamma narsaning bekamu ko'st yetkazib turilishini ko'rib turgan har bir kishi, albatta, bularning Yaratuvchisi, yo'qdan bor qiluvchisi va shunday tarbiya bilan parvarishlab turuvchi, ya'ni, Olloh bor-ku, demasa — u aqli inson sanalmaydi. Demak, Xudoning borligi isbotga muhtoj bo'lmagan aniq haqiqatdir. Har bir aqli inson Yaratuvchisiz bu narsalarning bo'lishi mumkin emasligini tushunadi. Quyoshdek ulkan narsa bilan eng mayda zarralar bir-biri bilan qat'iy intizom asosida munosabatda bo'lishini va bularning hammasi insonning yaxshi yashamog'i uchun bo'ysundirilganini ko'rgan odam bularni kimdir mana shu holatga tushirmasa, shunday tarbiyalab turmasa, boshkarib bormasa, o'z-o'zidan bunday bo'lmaydi-ku, deb aql bilan Yaratuvchisi, Tarbiyachisi, demakki, Olloh borligini biladi.

Endi bizlar Olloohni ko'ra bilmasligimiz masalasi ustida bir oz to'xtalaylik. Milliardlarning biri bo'lgan ojiz inson butun olamlarning Yaratuvchisi mening ro'paramaga kelsin, deyishi — o'ta mutakabbirlik va aqlsizlik bo'ladi.

Ba'zi narsalar aslida yo'q bo'lganliklari uchun ham, albatta, ko'rinxaydilar. Bu tabiiy. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. O'zi yo'q, bo'lmagan, bo'lmaydi ham. Lekin u haqida afsonalar bir talay.

Ba'zi narsalar esa aslida bor-u, lekin o'ta ravshan bo'lganliklari uchun ko'rinxaydilar. Masalan, hech kim Quyoshga tik qaray olmaydi. Olloh taolo bizga ibrat bo'lsin uchun ham shunday qildi. Lekin hech kim Quyoshni yo'q deyolmaydi. Ana o'sha Quyoshga tik qarab, uning ichida nimalar bo'layotganini ko'rolmaganimizda biz insof qilamiz va "Ko'zimizning nuri unga yetmaydi, bunga biz ojizlik qilamiz, Quyoshning nuri juda o'tkir", deymiz. Vaholanki, Quyosh Yerga nur sochib turgan yulduz, xolos.

Olloh-chi? Olloh Qur'oni Karimda O'zini:

اللَّهُ نُورٌ الْسَّمَاوَاتِ وَالْأَرْضَ

Ya'ni, "Olloh butun osmonlarning va yerning nuridir", deydi. Zotan, olamning shaklu shamoyilini, butun mavjudotlarning suratlariyu mohiyatlarini ko'rishimizga sabab bo'ladigan narsa yorug'liqdir. Agar o'sha yorug'lik bo'lmasa oldingizda turgan narsani ham ko'rmaysiz. Sizga shu dunyonи, butun borliqni tanitib turgan narsa yorug'lik bo'lsa — o'sha yorug'lik menman, deydi Olloh. Nafaqat yerning, balki butun osmonlarning nuri O'zimman deydi. Demak, millionlab yulduzlarning biri bo'lgan Quyoshga qaray olmasligimizni tan olar ekanmiz, osmonlar va yerning nuri bo'lgan Ollohni ojiz ko'zlarimiz bilan ko'ra olmasligimiz tabiiy holatdir.

Qur'oni Karim va muborak hadislarda Ollohning borligi va birligi xususidagi aniq dalillar bizning ilmimizni, Xudoga bo'lgan iymonimizni yanada quvvatlantiradi. Demak, biz avvalo Olloxning borligini bilgan bo'lsak, endi Uning yagonaligini bilishimiz zarur.

Olloh taolo Qur'oni Karimda aytadi:

لَوْ كَانَ فِيهِمَا إِلَهٌ إِلَّا اللَّهُ لَفَسَدَتْ قَبْرَنَا فَسَجَّنَ اللَّهُ رَبُّ الْعَرْشِ عَنْهَا
يَصْفُونَ ﴿٢﴾

"Agar yero osmonda Ollohdan boshqa xudolar bo'lsa, albatta bu yero osmon buzilib ketgan bo'lar edi". Chunki Olloh — Hokimi mutlaq. Olloh O'zi xohlagan ishni qiladi. Demak, agar Olloh ikkita bo'lsa-yu, har biri o'zi xohlagan ishni qilsa, yero osmonning buzilib ketishi aniq edi. Modomiki, bu yero osmon shunday puxta tartib intizom asosida tuzilgan va buzilmasdan turgan ekan, uning Boshqaruvchisi bittadir.

— Kechirasiz, ustoz. Gapingizni bo'lganim uchun ma'zur tutasiz. Suhbatingizni shu joyda, o'zingiz aytganingizdek, o'sha yer yuzidan yo'q bo'lib ketadigan narsalarni xudo deb, ularga sig'inib yurishning tarixi xaqida davom ettirsangiz...

— Odamlar orasida yer yuzidagi yo'q bo'lib ketadigan narsalarni xudo deb, ularga sig'inib yuradiganlar ham yo'q emas. Dinimiz mana shundaylarga qarshi "La ilaha illalloh" deyishimizni buyuradi.

Islom dini kelgan paytda arablarda Xudoga birovni shirk keltirish juda avj olgan edi. Masalan, arablardan biri Islomga kirganidan so'ng mana bunday hikoya qiladi: "Biz safarga chiqqudek bo'lsak, o'zimiz bilan biron-bir tosh olib ketar edik. Qaerda to'xtasak, o'sha toshni oldimizga qo'yib olib, unga sig'inar edik. Yo'lda avvalgi toshdan chiroyliroq boshqa tosh topilib qolqudek bo'lsa, o'shani olardikda, avvalgi toshni, ya'ni avvalgi "xudo"imizni uloqtirib tashlar edik. Qarang, naqadar hamoqat, naqadar jaholatda yurgan ekanmiz..."

Yana shundaylar bor ediki, ular xurmo g'ujumlariga (shingillariga) sig'inar, lekin qorinlari ochgach, o'sha — o'zları "Xudo" deb e'tiqod qo'ygan xurmoni yeb qo'yardilar. Mana shu tariqa sig'inib bo'lmaydigan narsalarga ularni Xudo deb bilib, sig'inib, yolg'iz Ollohga shirk keltirganlar. Bu haqda Olloh taolo Qur'oni Karimda mushrik kimsalarni bunday ogohlantiradi:

يَا أَيُّهَا النَّاسُ خُرُبٌ مَثْلُ فَأَسْتَعِوْمَا
لَهُ وَإِنَّ الَّذِينَ نَدْعُونَ مِنْ دُونِ اللَّهِ لَنْ يَخْلُقُوهُ ذُبَابًا وَلَوْجَمَعُوا لَهُ وَإِنْ
يَسْلِبُهُمُ اللَّهُ بَابُ شَيْءًا لَا يَسْتَقِدُوهُ مِنْهُ ضَعْفُ الظَّالِبِ وَالْمُطْلُوبِ
⑤٧

"Aniqki, sizlar Ollohnin qo'yib iltijo qilayotgan butlar agar barchalari birlashganlarida ham bir chivin yarata olmaslar, chivin ulardan biron narsani tortib olsa, uni (o'sha chivindan ham) qutqarib ola bilmaslar. (Demak, o'sha butlardan hojatini ravo qilishni) so'raguvchi (mushrik) ham, so'ralguvchi butlar ham nochor-notavondir. (Haj surasi, 73-oyat.)

Demak, Ollohnin yagona — yolg'izligiga iymon keltirib, o'sha zotgagina sig'inishimiz — faqat mana shu e'tiqodgina bizlarni ham bu dunyo fitnalaridan, ham oxirat azobidan najot topishimizga sabab bo'ladi.

Qur'oni Karimda Ollohnin mana shunday marhamati ham bor:

وَمَا خَلَقْتُ لِجَنَاحَ
وَالْإِنْسَانَ إِلَّا لِيَعْبُدُونِ ⑤٨
ما أَرِيدُ مِنْهُمْ مِنْ رِزْقٍ وَمَا أَرِيدُ أَنْ يُطْعَمُونِ
⑤٩

"Men jin va insni faqat O'zimga ibodat qilishlari uchungina yaratdim. Men ulardan biron rizq istamasman va ular meni taomlantirishlarini ham istamasman". (Vaz-zoriyot surasi, 56-57-oyatlar.)

E'tibor bering: boshingizga bir mushqullik tushganda biron kimsa sizga najot qo'lini uzatsa, sizning o'sha yaxshilikka javob qaytarishingiz, o'sha kishiga bir umr minnatdorchiligingizni bildirib o'tishingiz tabiiy. Demak, bir marta boshimizga ish tushganda bizga yordam bergen odamga shunday javob qilamiz. Lekin siz bilan bizni bir tomchi suvdan shunday mukammal inson qilib yaratib va bizlarga butun olamni qaratib, bizlarni butun dunyoga hoja, O'zining yerdagi xalifasi qilib qo'ygan Zot bizlarga: "Menga qullik qilinglar, menga ibodat qilinglar", desa, biz aqlii insonlar sifatida labbay deb javob berishimiz kerak emasmi? Demak, insonning vazifasi Ollohnin borligiga iymon keltirish, Uning birligini bilishdir. Kimki, "La ilaha illalloh" kalimasini aytgan ekan, de-mak, u yolg'iz Ollohga sig'inishi kerak. Demak, Ollohdan boshqadan qo'rmaslik, Ollohdan boshqaga sig'in-maslik, Ollohdan boshqadan najot so'ramaslik "La ilaha illalloh"ning mazmuni ekan.

Bizlar yolg'iz Xudoga qullik qilib, yolg'iz Xudoga sig'inib yashasak, "La ilaha illalloh" kalimasini aytgan insonlar qatorida bo'lamiz va inshoollo, janobi Rasulullohning bu kalimani aytganlar jannatga kiradi, degan va'dalariga musharraf bo'lamiz.

MUHAMMADUR RASULULLOH

— Ustoz, Iymon kalimasining birinchi qismi — "La ilaha illalloh"ga bag'ishlangan suhbatingizni davom ettirishning fursati yetdi, menimcha. Bugun endi Ollohnin borligi va birligi haqida, "La ilaha illalloh" deyishimiz zarurligi haqida bizga xabar yetkazgan zot Muhammadur Rasululloh to'g'risida ham tafsilotli suhbat qurib bersangiz. "La ilaha illalloh, Muhammadur Rasululloh" kalimasi haqidagi bilimimiz mukammal bo'lur edi.

— Hazrati Muhammad sallallohu alayhi vasallam o'zlarining hayotlari davomida insoniyatga Ollohnin bor va bir ekanligini yetkazish bilan, dini Islomning tomiri bo'lgan "La ilaha illalloh"

kalimasini odamlarga da'vat qilish bilan o'tdilar.

Inson Ollohnning yerdagi xalifasidir. Olloh uning suratidan tortib, axloqi va sifatlarigacha juda mukammal qilib yaratgan, unga aql-farosat ato qilib, ilm olish malakasini bergen. Boshqa jonzotlarda bunday ne'matlar yo'q. Ular bir narsani o'rganishlari mumkin emas. Faqatgina insonga ko'p narsani bilib, o'rganib, butun mavjudot ustidan xojalik qilish malakasi Olloh taolo tomonidan berilgan. Shu bilan inson Ollohnning yerdagi xalifasi bo'ldi.

Xalifa o'rribbosar deganidir. Xalifa hech qachon amir bo'la olmaydi. Olloh insonni xalifa qilib qo'yar ekan, unga o'z aqli bilan yetadigan jihatlarni in'om qilib bergen. Aqllari yetmaydigan jihatlarini esa O'zi tanlagan payg'ambarlari orqali yetkazib, xalifalik qilish imkoniyatlarini yaratib bergen.

Demak, Yer yuzidagi xalifalik vazifamizni bajarishimiz uchun Xojamiz — Olloh tarafidan mana shu vazifaning qandayligi va uni qay tarzda ado etishimiz kerakligi haqida doimiy ko'rsatmalar olib turishimiz zarurati bor. Shu sababli ham janobi Haq O'zi bilan yer yuzidagi xalifalari o'rtasida payg'ambarlarni vositachi qilib qo'ydi. Ular Ollohnning xabarini insonlarga yetkazdilar. Bu payg'ambarlarning avvali — insoniyatning otasi bo'lgan Odam alayhissalom edilar. Bu kishiga Olloh taolo tomonidan yer yuzida inson sifatida qanday hayot kechirish kerakligi vahiy qilingan edi. Payg'ambarlarning so'ngisi hazrati Muhammad sallallohu alayhi vasallamdirlar. Bu ikki buyuk payg'ambarlarning o'rtasida yuz minglab paig'ambarlar o'tdi. Ularning har biri insonlarga Ollohnning farmonlarini yetkazib turdi. Avvalgi payg'ambarlar ma'lum bir qavmga, muayyan mintaqaga, hatto ba'zi birlari biron-bir qishloqqa yuborilgan ekan. Payg'ambarlarni Olloh odamlarning orasidan tanlab olar ekan. Bu haqda Olloh taolo Qur'oni Karimda xabar beradi:

اللَّهُ يَصْطَفِي مِنَ الْمُلْكِ كَوْنَسًا وَمِنَ النَّاسِ إِنَّ اللَّهَ سَمِيعٌ بَصِيرٌ
70

"Olloh farishtalaridan ham elchilar — payg'ambarlar tanlar, insonlardan ham. Darhaqiqat, Olloh eshituvchi, ko'rguvchidir". (Haj surasi, 75-oyat.)

Demak, Ollohnning buyruqlarini yetkazib turuvchi farishta Jabroil alayhissalom ham Ollohnning elchisi ekan. Shu bilan birga yer yuzida yashab o'tgan, hazrati Odam alayhissalomdan tortib hazrati Muhammad alayhissalomgacha bo'lgan payg'ambarlar insonlar orasidan tanlab olingan elchilar edilar.

Xususan, Muhammad payg'ambarlarning ham Ollohnning Rasuli ekanligi haqidagi xabar Qur'on orqali bizga yetdi. Olloh "Muhammadur Rasululloh", ya'ni, "Muhammad Ollohnning elchisidir", deb bizga xabar berdi. Demak, Ollohnning kalomini haq deb bilgan har bir inson Muhammad alayhissalomning haq payg'ambar ekanliklariga iymon keltiradi.

— *Rasulullohning o'zidan avvalgi payg'ambarlardan o'zgachaligi asosan nimada ko'rindi?*

— Muhammad alayhissalomdan oldingi payg'ambarlar ma'lum qavm, ma'lum mintaqaga yoki ma'lum davr uchun bo'lgan ta'limotlarni olib kelganlar. Olloh bandalari bilan bo'lgan muomalada go'yo tabib bemorlar bilan muomala qilgandek munosabatda bo'ladi, ya'ni, bemorning ahvoli qay darajada bo'lsa, o'shang aqarab muolaja qiladi. Xuddi shu kabi insoniyatning chaqaloqlik davri — Odam alayhissalom davridan, insoniyatning kamolot davri — Muhammad alayhissalom davrigacha bo'lgan muddatda Olloh insonlarni tarbiyalab, muvaqqat hukmlarni O'zining payg'ambarlari orqali yetkazib turdi. So'ngra esa mangu, to Qiyomatgacha qoladigan O'zgarmas Hukmni — dini Islomni hazrati Muhammad alayhissalomga Qur'on orqali tushirdi. Demak, oxirgi va mukammal shifo bo'lgan Qur'on — dini Islom to Qiyomatgacha o'zgarmaydi. Bu Ko'rsatma butun insoniyat va jinlar olami uchun to Qiyomatgacha Ollohnning oxirgi Ko'rsatmasi bo'lib qoladi. Bu haqda Olloh taolo Qur'oni Karimda xabar beradi:

إِنَّا نَحْنُ نَزَّلْنَا الْذِكْرَ وَإِنَّا لَهُ مَحْفُظُونَ ①

"Albatta, bu eslatmani (ya'ni Qur'onni) Biz O'zimiz nozil qildik va, shubhasiz, O'zimiz uni saqlaguvchidirmiz". (Hijr surasi, 9-oyat.) Ya'ni, U (Qur'on) yo'qolmaydi, buzilmaydi. Birov yo'qotolmaydi, buzolmaydi. Yo'qotaman deganlar o'zları yo'q bo'lib ketadilar. Bunga 1400 yillik tarix guvohdir.

Mana shunday to Qiyomatgacha qoladigan Kitobni keltirgan zot — Ollohnning eng suyukli bandasi, Uning so'nggi Elchisi hazrati Muhammad alayhissalomdir. Demak, "La ilaha illalloh, Muhammadur Rasululloh" deganimiz — ya'ni, "Olloh bittadir, Muhammad Uning Elchisidir", deganimiz bo'lib, biz Olloh taoloning bor va birligiga qanday ishonsak, Muhammad alayhissalom Ollohnning elchisi ekanligiga ham shunchalik ishonganimizdir. Olloh taoloning ko'rsatmalarini faqat Muhammad alayhissalomdan olamiz. Chunki bu ko'rsatmalarni faqat Muhammad alayhissalom haq va to'laligicha insonlarga yetkazganlar. Odamlar tomonidan chiqarilgan har qanday bid'atlar, sharhlar Olloh taoloning buyrug'i emas.

Demak, biz, har birimiz "Muhammadur Rasululloh" deganimiz — Muhammad alayhissalom Ollohnning elchisi, men shu zotga ergashaman, deganimiz bo'ladi ekan. Bu shunchaki tilda aytib takrorlab yuradigan kalima emas, balki butun vujudimiz bilan aytib, bu kalimaning mas'uliyatini his qilib yashashimiz kerak.

— *O'mi kelganda Ollohnning so'nggi payg'ambari Muhammad sallallohu alayhi vasallamning kim ekani, u kishining qanday zot bo'lganlari, jismoniy va axloqiy kamolotlari haqida aytib bersangiz...*

— Olloh taolo o'zining eng so'ngti va eng mukammal dinini O'zining eng komil bandasiga tushirdi. Shu zot orqali butun insoniyatga tarqaldi. Mana shuning o'zi bu kishining qanday buyuk shaxs ekanligiga dalolatdir. Qolaversa, tarix bizlarga ochiq dalolat beradiki, Rasulullohning zamondoshlari — ular xoh payg'ambarimizning sahabalari bo'lsinlar, xoh kufr keltirib o'tib ketganlar bo'lsin — ularning barchasi payg'ambarimizning qanchalik mukammal inson bo'lganliklari haqida yozib qoldirib ketganlar. Shu xususdagi tarix kitoblaridan Rasululloh hayotining har bir kuni haqida aniq hujjatlar topamiz. Bu hujjatlar tarixiy haqiqatlardir.

Muhammad alayhissalomning payg'ambarlik maqomiga erishishlari, bu dunyo va Oxiratda eng aziz inson bo'lib olishlari uchun Olloh taolo u kishini tug'ilishlaridan boshlab tarbiyaladi. Har qanday xatoyu gunohdan ma'sum qilib balog'atga yetkazdi. Haqiqiy voyalari — qirq yoshga yetganlarida Birinchi oyat nozil bo'lib, payg'ambarlik davrlari boshlandi.

Muhammad alayhissalom suratlari juda go'zal, har qanday kishi ko'rsa havas qiladigan, chirolik qomatli kishi ekanlar. Bir sahoba: "Men Rasulullohni oy to'lgan kechada ko'rdim. To'lin oy chiroylimidi yoki Muhammad alayhissalommi, bilolmadim", deydilar. Bu Ollohdan qo'rqaqidan, faqat haq gapni aytadigan sahabaning gapidir. Rasulullohniig butun jismoniy a'zolaridagi go'zallikni ko'rib lol qolgan, u kishining haqiqiy insoniy go'zal madaniy axloqlariga guvoh bo'lgan va u kishiga ummat bo'lganlar mana shu tarzda tarixlarda o'zlarining guvohliklarini yozib qoldirganlar. Rasulullohning aqlu farosatlari shu kadar yetuk ediki, zamondoshlari har qanday kattayu kichik ishda ulardan maslahat olar edilar. Hamma u kishining har qanday masalaniadolat bilan yechib berishlariga ishonar edi. Muhammad alayhissalomning payg'ambar bo'lgunlarigacha biron gunoh yoki xatoga yo'l qo'yaganliklariga tarix guvoh. Ya'ni, Olloh taolo Qur'ondek ulug' yukni qo'ymoqchi bo'lgan bandasini shunday pok saqlab voyaga yetkazgan ekan. Go'daklik chog'laridayoq Rasulullohning payg'ambar bo'lishlari alomati zohir bo'lgan edi. Lekin buni payg'ambarimizning o'zları ham, boshqalar ham hali bilmas edilar. Bu alomatlar Qur'onidan avval kelgan Kitoblarda ham keltirilgan edi.

Ma'lumki, hazrati Iyso alayhissalomga Injil nozil bo'ldi. Injil nozil bo'lishidan avval — Odam

alayhissalomdan tortib to Iyso alayhissalomgacha o'tgan payg'ambarlar orasida tanaffus bo'limgan edi. Har bir payg'ambar o'zidan avvalgi payg'ambarning o'mini to'ldirib kelardi. Demak, ko'rsatmalar paydar-pay tushib turar edi. Lekin Iyso alaihissalomga Injil nozil bo'lgandan keyin to hazrati Muhammalayhissalomga Qur'on nozil bo'lguncha orada olti asr o'tdi. O'sha tanaffus davrida butun olam bir payg'ambar kelmayapti-ku, qachon kelar ekan, deb kutib qoldi. Injilni qaralsa, unda Oldoh taolo Men oxirgi zamon payg'amba-rini yuboraman, deb bergen va'dasi ko'riladi. Shuning uchun nasroniyalar yaqinda payg'ambar keladi, deb kutar edilar. Lekin, bu payg'ambarning arablardan bo'lib qolishini hech kim xayoliga ham keltirmas edi. Injilni o'qigan olimlargina keladigan payg'ambar qanday bo'lishini bilar edilar.

Ma'lumki, hazrati Muhammad alayhissalom onalari qornilarida homilalik paytlaridayoq otalari Abdulloh ibn Abdulmuttolib vafot qilganlar. Go'daklik chog'laridayoq onalari ham dunyodan o'tdilar. Payg'ambarimiz bobolari Abdulmuttolib va amaqilari Abu Tolib qo'llarida tarbiya topdilar. Abu Tolibga go'yo farzanddek bo'lib qoldilar. Bu kishi Muhammad alayhissalomni go'daklik paytlaridananoq tijorat safarlariga olib borardilar. O'shanday safarlardan birida (u paytda Rasululloh 9—10 yoshlarda edilar) bir mo"jiza sodir bo'lgan edi.

Muhammad alayhissalom birga bo'lgan karvon ustida bir bulut soyabon bo'lib yuraveribdi. Bir joyga yetib kelganlarida nasroniyarlarning ibodatxonasi derazasidan qarab o'tirgan bir rohib karvonning ustida bulut kelayotganini ko'rib qoladi-yu, o'zlarining diniy kitoblarida Oxir zamon payg'ambari keladi va unda bir qancha alomatlar bo'ladi. Ulardan biri — bo'lajak payg'ambar qachon soyasiz joyda yursa, uning ustida bir bulut soyabon bo'ladi. Yana bir alomat shuki, o'sha — payg'ambar bo'ladigan bolaning kuraklari orasida payg'ambarlik belgisi — xol bo'ladi, degan xabarni eslaydi. Rohib karvon ustida jilmay turgan bulutni ko'rgach, bular orasida bo'lajak payg'ambar bor shekilli, deb karvon oddiga keladi. Qarasa, yuzlaridan nur yog'ib turgan bir najib o'g'lon bor. Xayolidan: "Payg'ambar bo'ladigan siyoqi bor o'g'il ekan", degan fikr o'tadi-da, "Bu kimning bolasi?" deb so'raydi. Shu payt karvonboshi Abu Tolib: "Mening o'g'lim", deb javob qiladi. Rohib: "Siz otasimisiz?" deb so'raydi. "Ha, men otasiman". Shunda Rohib: "U holda men adashibman, bizlarning kitobimizda payg'ambar bo'ladigan bola onasining qornida homilalik paytidayoq otasi vafot qilib ketadi, deb yozilgan edi. Agar siz otasi bo'lsangiz, men adashibman", deydi. Keyin bolani yechintirib qaraydilar. Uning kuraklari orasida payg'ambarlik muhri —muhri nubuvvat bor edi. Bu rohibning gumonini yangilab, kuchaytiradi. Shundan so'nggina Abu Tolib bor hakiqatni aytadi. Men bu bolaning otasi emasman, amakisi bo'laman. Otasi, haqiqatan, bu bola homilalik paytidayoq vafot qilgan, bu mening tarbiyamdag'i bolam, deydi. Shundan so'ng rohib, bizning kitobimizda xushxabar berilgan bola shu yigitchadir, u payg'ambar bo'ladi. Bu jiyaningizni juda asrab-avaylab katta qiling, biror balo-qazoga uchrab qolmasin, hech beparvo bo'lman, deb nasihat qiladi Abu Tolibga. Abu Tolib esa, "Ey rohib, agar Sening gaplaring haq bo'lsa, ya'ni Olloh o'z kitobida shunday payg'ambar keladi va uning alomatlari mana shunday bo'ladi, deb aytgan bo'lsa, u holatda payg'ambar bo'ladigan bu bolani Olloho ni o'zi saqlab oladi", deb javob qiladi.

Xullas, Muhammad alayxissalomning payg'ambar bo'lishi go'daklik paytidanoq aniq bo'lib, ilmli odamlar shuni tan olib, kutib yashar edilar.

Va nihoyat u zot qirq yoshga yetganlarida Olloh tomonidan Qur'oni Sharifdag'i:

أَقْرَأْ بِاسْمِ رَبِّكَ الَّذِي خَلَقَ ① خَلَقَ الْإِنْسَانَ مِنْ عَلَقٍ

"Iqro" — "Bismi robbikallazi xolaq..." deb boshlanadigan oyat (Birinchi oyat) nozil bo'ldi.

Shunday qilib, Muhammad alayhissalom Ollohnинг payg'ambari bo'ldilar. Lekin payg'ambar bo'lishlarini u kishining o'zları ham bilganları yo'q. Va o'sha birinchi oyatning vahiy ekanini, bu payg'ambarlikning boshlanishi ekanini ham bilganları yo'q. Bu oyat kutilmaganda, daf'atan tushdi.

Hazrati Jabroil farishta Muhammad alayhissalomga shu oyatni keltirganlarida u kishi qo'rqib ketdilar, dahshatga tushdilar. Men o'zimdan ketib qoldimmi, degan xavotir bilan titrab-qaqshab uylariga keldilar. "Meni o'rab qo'yinglar", dedilar.

Shunda Rasulullohga birinchi iymon keltirgan zot u kishining ayollari — Xadicha onamiz bo'ldilar. Bu zoti sharifa o'sha zahotiyoy o'zining nasroniy ulamolardan bo'lgan bir amakisiga Muhammad alayhissalomni olib bordilar va bo'lgan voqeani bayon qilib berdilar. U kishi esa: "Sen Ollohnning payg'ambari bo'libsan, senga vahiy kelibdi. Lekin o'zingning qarindosh-urug'laring, yoru do'stlaring bu gaplaringai eshitgach, senga dushman bo'lib qolishadi. Seni hatto o'z vataningdan quvg'in qilishlari bor. Afsus, men qarib qoldim, bo'lmasa yoningda yordamchi bo'lar edim", deydi payg'ambarga. Shunda payg'ambar alayhissalom bu kishining gaplariga ishonqiramay: "Mening kimligimni yaxshi bilgan qavmim nega menga dushmanqa aylansin?" deganlarida, "Sen qiladigan da'vatni bular hazm qilolmaydilar. Seni yolg'onchiga, sehrgarga, majnunga iqraradilar. Senga ko'p aziyatlar yetkazadilar. Mana shunday holat Seni kutyapti", degan edi o'sha olim.

Mana shundan keyin 23 yil mobaynida butun insoniyat uchun to Qiyomat o'zgarmaydigan Ilohiy dasturilamal bo'lgan Qur'oni Karim Rasulullohga nozil bo'ldi. Qur'on oyatlari avval 13 yil Makkai Mukarramada va keyin 10 yil Madinai Munavvarada nozil bo'ldi. Bu orada insonlarning dillarida paydo bo'lgan har qanday savollarga javobni, masalalarning yechimini Olloh o'z kalomi bilan aytib bordi. Va yana Oxirat diyoridagi hodisotlar xususida ham xabar berdi.

Qur'oni Karimning mo'jizaligi shundaki, 23 yil davomida nozil bo'lgan bu Ilohiy kitobning avvalgi oyati bilan oxirgi oyati bir mazmunni tashkil qiladi. Oyatlar bir-biriga zid emas, balki, shu qadar bir-birini to'ldirib kelganki, ular Haq Ollohnning kalomi ekaniga darhol iymon keltirasiz.

Agar bu Kitob inson tomonidan yozilgan bo'lganida edi, u holda 23 yil davomida so'z ham, uslub ham — xullas, hamma narsa o'zgarib ketgan bo'lur edi. Lekin, Ollohnning kalomi mukammal kalom bo'lgani uchun boshi bilan oxiri lafzda ham, ma'noda ham shu qadar muvofiq-munosibdir. Darhaqiqat, Rasulullohga ko'p ozorlar bo'ldi. Hatgo o'z Vatanlaridan ketishga majbur bo'ldilar. Madinai Munavvaraga hijrat kdpdilar. U kishining mushriklardan ozor-aziyatlar chekishlariga faqat birgina sabab bor edi. U ham bo'lsa Muhammad alayhissalom "La ilaha illalloh" der edilar va boshqalarga ham shunday deyishni buyurar edilar.

Hazrat Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning Sizlar sig'inayotgan butlar Xudo emas, ularning foydasi ham, ziyoni ham yo'q. Yolg'iz Olloh bor. Ollohdan boshqa Xudo yo'q, degan so'zlarini mushriklar hazm qilolmas edilar. Ular Muhammad alayhissalomga dushman bo'lib qoldilar. Hatto amakisi Abu Tolibga Makkaning zodagonlari kelib, ey Abu Tolib, jiyaningta aytgin, agar unga pul kerak bo'lsa, biz boyonlar shu qadar ko'p pul to'plab beraylikki, Muhammad oramizda eng boy odam bo'lsin, agar mansab kerak bo'lsa, o'zimizga rahbar qilib saylaylik, agar shuhrat kerak bo'lsa, shuhratini har tarafga yoyaylik. Faqat bizning xudolarimizni so'kmasin, butlarimizga, sanamlarimizga til tekkizmasin, deb iltimos qilishganida va bu gapni Abu Tolib Rasulullohga aytganlarida, u kishi haqiqiy payg'ambarona javob berdilar: "Ey amaki, — dedilar, — bular menga yer yuzidagi dunyonи, saltanatni tavsiya qilayotgan ekanlar, bu xech narsa emas. Agar ular Osmondag'i quyoshni o'ng yelkamga, oyni chap yelkamga qo'yib bergenlarida xam "La ilaha illalloh" dan qaytmasman. Chunki bu mening vazifam, men o'ylab topgan narsa emas balki menga Ollohdan kelgan vahiyidir". Hazrati Rasululloh sallallohu alayhi vasallam mana shunday deb, o'zlarini ham yo'llaridan adashmay, ummatlarini ham adashtirmay, Kalomullohni to'laligicha Insoniyatga yetkazib, o'z vazifalarini ado qildilar.

— Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom — Insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan u zotning Komil Inson bo'lganligi haqida hikoya qiluvchi ba'zi holatlarni aytib bersangiz...

— Bunday do'stu dushman, musulmonu kofir tan olmay iloji yo'q holatlar behisob. U kishi keltirgan Kitob — Qur'oni Karim o'zgarmay turibdi; O'zlarini vafot etganlariga 1400 yildan ortgan

bo'lsa-da, ta'limotlari yashamoqda. Buni zamonaviy olimlar, hatto dinimizga begona bo'lgan olimlar ham tan olmoqdalar. Amerikalik olimlar o'tgan yili (1995) Insoniyat tarixida yorqin iz qoldirgan 150 nafar shaxsning ro'yxatini tuzdilar. O'sha ro'yxatga birinchi raqam bilan Muhammad alayhissalomning tabarruk ismlari kiritilgan. Bu ro'yxatni musulmonlar emas, balki boshqa dindagi olimlar tuzganligi e'tiborga loyiqidir. Ular insof bilan Rasulullohning Insoniyatga o'tkazgan ta'sirini hisobga olganlar. Bu biz musulmonlarning ko'zini ochadigan holatdir. Mana shundan ham biz qanday ulug' zotga ergashgan baxtli ummat ekanligimiz ko'rinish turibdi.

Muhammad alayhissalomning bu dunyoda chekkan aziyatlar, kofirlar tomonidan ko'rgan ozorlari — bir inson ko'tara olmaydigan zahmatlar ekanligini tushunamiz. Payg'ambar alayhissalom Makkai Mukarramada "La ilaha il-laloh" da'vatini qilib yurar ekanlar, kofirlar u zotni qaerda bo'lmasin haqorat qildilar. Sahobalardan biri shunday eslaydi: "Bizlarni kofirlar haqorat qilib, toshbo'ron qilib Makkadan quvib chiqardilar. Men Payg'ambar alayhissalomga tosh tegib ketmasin, deb yonlarini to'sib turar edim. Shahardan juda chetlab ketdik. Men chidolmay qoldim. Nihoyat, o'zimiz holi qolganimizda: "Yo Rasululloh, Siz Ollohnинг do'sti, eng suyukli bandasisiz, eng so'nggi payg'ambarsiz, har bir duoingiz ijobat bo'ladi. Duo qiling, Olloh shu kofirlarni yo'q qilsin", deb so'rashga majbur bo'ldim. Shunda Rasululloh qo'llarini duoga ohib: "Ey parvardigor, Sen bu qavmni azoblamagin, bular bilmaganidan shunday qilyaptilar", deb duy qildilar".

Yana O'zlaridan shu duolari haqida bir gap bor: "Har bir payg'ambar uchun Olloh tomonidan berilgan va hech qaytarilmaydigan duo huquqi bor. Payg'ambarning bir duosi albatta ijobat bo'lishiga va'da bergen. Mana shu va'daning haqiqat ekanligiga mendan avvalgi barcha payg'ambarlar shohid bo'ldilar, ya'ni Olloh bergen shu huquqdan foydalanib duo qildilar. Masalan, ummatlari ozor bersa, "Ey parvardigor, mana shu kofirlarni yo'q qil", deb duo qildilar. Olloh ularni suv balosiga, zilzila balosiga giriftor qildi, ya'ni o'sha payg'ambarlarning duolarini ijobat qildi. Payg'ambarlar imkoniyatlaridagi boshqa duolarni ham so'rab oddilar. Lekin men o'sha duoimni Oxiratga olib qo'ydim. Men Olloh taolo huzurida "Ummatlarimni mag'firat qilgin", deb duo qilmoqchiman. U Kunda, hech Imkoniyat yo'q Kunda mening duoim ummatlarimning foydasiga bo'lsin deb, bu dunyoda so'ramadim", deganlar Rasululloh sallallohu alayhi vasallam.

— *Kechirasiz, ustoz, yaqinda men bir kitobda payg'ambarimizning "Qiyomat kunida odamlarning eng sayyidi, ulug'i men bo'laman", degan hadisi sharifni o'qib qoldim. Lekin u kitobda mazkur hadisning izohi hamma ham tushunib oladigan darajada emasdek tuyuldi menga...*

— Haqiqatan bir hadislarida "Qiyomat kunida odamlarning eng sayyidi, ulug'i men bo'laman", deganlar faxr bilan Rasululloh sallallohu alayhi vasallam. Ya'ni, o'sha Qiyomat kunida Olloh bir tekislikka bugun Insoniyatning hammasini tizib qo'yadi. O'zining qudrati bilan har bir insonni eshitadigan, ko'radigan darajada qilib bir maydonga yig'adi. Hazrati Odamdan tortib Qiyomatgacha bo'lgan har bir insonni yig'adi. Mana shu paytda Ollohnинг amri bilan Quyosh ham pastta tushadi. Demak, insonlar issiqdan shu qadar azobda qoladilarki, o'zlaridan chiqqan terlariga qo'milib qolayozadilar. Quloqlarigachaterga botadilar. Ana shunda bizni shafoat qiladigan, qo'llaydigan biron kimsa yo'qmikin, deb avvalo Ollohnинг payg'ambarlariga iltijo qila boshlaydilar. Avval Odam alayhissalomga bora-dilar. U zot Ollohnинг bugungiday g'azabini ilgari hech ko'rmagan edim, men hozir o'zimni qutqarib olsam ham katta gap, Nuhga boringlar, deydi. Nuh alayhissalom ham shu javobni qiladi va Ibrohimga boringlar, deydi. Ibrohim Musoga, Muso Iysoga boringlar, deydlar. Payg'ambarlarning har biri, men o'zimni jonimni qutqarsam katta gap, deb qolishadi. Va nihoyat Iyo alayhissalom hazrati Mu-hammad alayhissalomga boringlar, deb maslahat beradi. Shunda "La ilaha illaloh" deb o'tgan insonlar Muhammad alayhissalom huzuriga kelib, iltijo qilib: "Bizning gunohimizni Ollohdan so'rab bering", deydlar. Ana shunda Rasululloh: "Men Olloh arshining ostiga borib, boshimni sajdaga qo'yib, hali hech kim aytmagan hamdu sanolar bilan Xudoyimga xushomadlar qilaman, sajdadan boshimni ko'tarmay yig'layveraman, so'rayveraman, hamdu sanolar aytaveraman.

Shunda Ollohdan: "Ey Muhammad, boshingni ko'tar", degan ovoz keladi. "So'ra, so'raganining beriladi", deydi Tangrim. Shunda: "Yo Rabbiy, ummatiy", deb so'ray-man. Ya'ni: "Parvardigoro, ummatimga rahm qilg'il, um-mathlarimni gunohlarini kechgil", deb duo qilaman. Shunda Ollo taolo ummatlaringdan behisob insonlar Jannatning O'ng darvozasidan kirsinlar, degan amrni qiladi. O'ng darvozaning eni Makka bilan Ximyar degan shaharning orasichalik, ya'ni bir necha yuz chaqirim bo'ladi. Mana shu yerdan kirsinlar ummatlaringiz, sig'maganlariga Jannatning boshqa darvozalari ham ochilsin, degan buyruq bo'ladi, dedilar Rasululloh sallallohu alayhi vasallam.

Siz bilan biz mana shunday behad mehribon zotga ummatdirmiz. "Muhammad Rasululloh" degan kalima bilan mana shu sharafga ega bo'lamiz.

Shuning uchun biz mo'“min-musulmonlarning asosiy kalimasi bo'lgan "La ilaha illalloh, Muhammadur Rasul-ulloh" kalimasini sidqididdan, chin ixlos va butun vujudimiz bilan bir umr aytishimiz, iyomon keltirishimiz va unga amal qilishimiz kerakki, bu bizlarga, inshoollo, najot bo'ladi.

Suhbatimiz nihoyasida yana bir hadisi sharifga murojaat qilaylik. Hazrati Payg'ambar alayhissalomdan Muoz ibn Jabal ismli bir ulug' sahaba rivoyat qiladilar: "Bir kuni Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam bilan bir tuyaga mingashib ketayotgan edim. Payg'ambarimiz: "Yo Muoz", dedilar. "Labbay, Rasululloh!" U kishi gaplarini aytmadilar, bir ozdan so'ng: "Yo Muoz", dedilar. Men "Labbay!" dedim. Yana indamadilar. So'ngra uchinchi bor: "Yo Muoz", dedilar. Men ham uchinchi bor "Labbay", deganimdan so'ng: "Senga Ollohning bandalari zimmasidagi haqqini aytib beraymi?" dedilar. "Aytib bering, yo Rasululloh", dedim men. Shunda u zot: "Ollohning bandalari zimmasiga yuklagan huquqi — ularning "La ilaha illalloh" deyishlaridir". "Endi bandalarning Olloh zim-masidagi huquqi esa, kimda-kim "La ilaha illalloh" desa, Olloh uni azoblamayman, degan va'dasidir", dedilar.

Bu shundayin qimmatbaho gap ediki, buni eshitgan odamlar o'zlaridan ketib qolmasinlar, bu gapning qadr-qimmatini tushunmay qolmasinlar, deb Payg'ambar uch bor "Yo Muoz", deb takrorlab, taraddudga tushib, baribir aytish zarurati borligi uchun aytdilar.

Demak, bizlar "La ilaha illalloh, Muhammadur Rasululloh", desak va bir umr ushbu muqaddas kalimaga Sodiq qolsak, Olloh taolo biz bandalarini Oxirat azobidan qutqaraman degan ekan, har bir aql-farosatli inson bu ulug' kalimani bajonidil aytib, bir umr shu kalima bilan o'tishimiz zarurdir.

NAMOZ

— Muhtaram ustoz, namoz ibodatining qanday ibodat ekanligini, dini Islomda uning o'rni qay darajada ekanligini, afsuski, zamondoshlarimizning hammasiham to'la anglab yetolmaydilar. Qolaversa, avvalgi suhbatlaringizda kalimai shahodatni, kalimai toyibani o'rgandik. Endi navbat, menimcha, namoz ibodati hakidagi suhbatga yetdi...

— To'g'ri, O'ktambek, "La ilaha illalloh, Muhammadur Rasululloh" kalimasi yuzasidan bo'lgan suhbatimizdan so'ng bugungi suhbatimizni namoz ibodatiga bag'ishlasak, payg'ambarimiz Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning dini Islomning besh asosiy ruknini sanashdagi tartibiga rioya qilgan bo'lamiz. Zero, hazrati Rasululloh sallallohu alayhi vasallam "Buniyal Islamu ala xomsin..." deb boshlanadigan hadislarida: "Islom besh narsa ustiga qurildi. Shulardan avvali — "La ilaha illalloh, Muhammadur Rasululloh" kalimasi, ikkinchi namoz, davomida zakot, ro'za va hajdir. Mana shu besh narsa ustida Islom bino bo'ldi", deb xabar bergenlar.

Namoz dinimizdagi farz bo'lgan amallardan biridir. Olloh Qur'oni Karimda: "Namozni to'kis ado qiling, zakotni bering va ruku qilguvchilar bilan birga ruku qiling", — deb marhamat qiladi.

Qur'oni Karimning boshqa yuzlab oyatlarida ham Parvardigorimiz mo'“minlarga namoz o'qinglar, degan farmonni beradi.

Demak, dinimizda namozning o'rni eng yuqori mavqedan ekan, uning qanday ibodat ekanligini bilib

olishimiz — bu ibodatga astoydilroq kirishishimizga va oqibatda Olloh bizdan rozi bo'lishiga sabab bo'ladi, inshoolloh.

Qur'onga ko'ra namoz insonning inson bo'lib yashashiga sabab bo'ladigan ibodatdir. Olloh taolo yana bir oyati karimada:

وَأَقِمُوا الصَّلَاةَ وَأُتُوا الْزَكُورَةَ وَأَرْكَعُوا مَعَ آلَّا كِيَعِينَ ﴿٤﴾

"(Ey Muhammad), siz o'zingizga vahiy qilingan Kitob — Qur'onidan bo'lgan (oyatlar)ni tilovat qiling va namozini to'kis ado qiling! Albatta namoz buzuqlik va yomonliqdan to'sur. Aniqki, Olloohni zikr qilmoq (barcha narsadan) ulug'roqdir. Olloh qilayotgan ishlaringizni bilib turur". (Ankabut, 45-oyat.)

Ya'ni, namoz o'qigan insonning Olloh rozi bo'ladigan hayot kechirishini namoz kafolatlaydi, deb Olloh taolo va'da beradi bizga.

— *Chin insoniy hayot kechirishimizni kafolatlaydigan mana shu ibodat biz mo“min-musulmonlarga qay tarzda farz bo'ldi? Mana shuxususda batafsil aytib bersangiz.*

— Bajonidil. Bu haqda hazrati Rasululloh sallallohu alayhi vasallam juda ko'p hadislarida bizlarga xabar bergenlar. Jumladan, Sahihul Buxoriyya, Anas bin Molik roziyallohu anhudan bu haqda bir hadis keladiki, uning mazmuni shunday. Anas bin Molik roziyallohu anhu ayta-dilar: "Ulug' sahabalardin Abu Zarri G'iforiy roziyallohu anhu bizlarga hazrati Rasululloh sallallohu alayhi vasallamdan hikoya qilib, aytib bergandilarki, payg'ambarimiz shunday degan ekanlar: "Bir kun Makkadagi uyda, tun yarmida shift yorilib, o'sha yoriqdan hazrati Jabroil alayhissalom tushib keldilar. Va to'g'ri oldimga kelib, ko'kragimni yordilar. Uning ichini Zamzam suvi bilan yuvvidar. Keyin bir tillo jomdan Ilm va Hikmatni, Iymonni ochiq ko'ksimga quydilar. So'ngra, go'yo hech narsa bo'limgandek, ko'kragim bitdi. Shundan so'ng, Ollohnning amri bilan Jabroil alayhissalomning qanotida osmonga ko'tarildik".

E'tibor bering: bizlarga namoz farz bo'lishi uchun, mo“min-musulmonning eng oliv vazifasi bo'lgan bu ibodatni Olloh taolo O'zining payg'ambariga va uning ummatlari bo'lgan siz va bizga buyurish uchun shu buyruqni Yerda emas — osmonda buyurish uchun farishta yuborgan ekanki, bu farishta Ollohnning buyrug'i bilan payg'ambarimizni Me'rojga olib chiqib ketdilar.

Me'roj Islom tarixida buyuk voqeadir.

Olloh taoloning payg'ambarlari ichida Uning O'zi bilan bevosita yer yuzida gaplashgan bir payg'ambar, ya'ni farishta Jabroilning vositasisiz gaplashgan payg'ambar hazrati Muso alayhissalom edilar. U zot Insoniyat tarixida, "Kalimulloh" degan unvon bilan qolganlar. "Kalimulloh" — "Olloh bilan so'zlashgan" deganidir. Yaratgan Parvardigorimiz — Haq subhonahu va taolo bilan Arshi a'loda gaplashgan birgina payg'ambar borki, u bizning payg'ambarimiz hazrati Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallamdirlar. Olloh taolo payg'ambarimizni Arshi a'loga namoz atalmish buyuk bir vazifani berish uchun chorlagan edi. Buni qarangki, Olloh taolo O'zining payg'ambarini huzuriga chorlar ekan, Rasulullohning suvrati go'zal, vujudi doimo pok yurishiga qaramay, vujudining ichini ham yuvib, tozalab olib chiqishni Jabroil alayhissalomga buyurdi. Shuning uchun Jabroil alayhissalom Rasulullohning ko'ksini yorib yuvgach, u joyga Ilmu Hikmatni va Iymrnni joylab, shundan so'nggina Arshi a'loga olib chiqib ketdilar.

Bizlar namoz o'qish uchun toza kiyimlar kiyib, tahorat olamiz. Toza joyda turib, pokiza holatda Ollohimizga ibodat qilamiz. Olloh taolo huzuriga — Osmonga — Arshi a'loga chiqish uchun esa insonning ichlari ham yuvilgan bo'lishi shart ekanki, bunday saodat insoniyat orasida faqat hazrati Rasululloh sallallohu alayhi vasallamga — bizlarning payg'ambarimizga nasib etdi.

Payg‘ambarimiz yetti qavat Osmonni Jabroil alayhissalomning hamrohligida bosib o‘tdilar va uning har bir qavatida o‘zidan avval o‘tgan payg‘ambarlar bilan uchrashdilar.

Osmomonning eng quyisi — birinchi qavatida hazrati payg‘ambarimiz Insoniyatning Otasi — Odam alayhissalomga yo‘liqdilar. Rasululloh sallallohu alayhi vasallam u Zotning o‘ng taraflarida ham, so‘l taraflarida ham tumonat odamning qoralarini ko‘rdilar. Odam alayhissalom o‘ng taraflariga qarab kular, chap taraflariga qarab esa, yig‘lar edilar. Buning boisini payg‘ambarimiz hamrohi — Jabroil alayhissalomdan so‘radilar. Hazrati Jabroil: "Odamning o‘ng tarafida turgan insonlar — Ollohnning rahmatiga sazovor bo‘lgan kishilardir. Odam ularning hollaridan xursand bo‘lib kulyaptilar. So‘l tarafidagilar esa dinsiz o‘tgan baxtsiz kimsalar, Ollohnning g‘azabiga uchragan kimsalardir. Ana ularning ahvollarini ko‘rib Odam alayhissalom ota sifatida yig‘layaptilar", — dedi.

Payg‘ambarimiz Osmomonning keyingi qavatlarida Idris, Muso, Iyso va Ibrohim payg‘ambarlar bilan uchrashib, salomlashib o‘tdilar va nihoyat Yetginchi Osmonga—Arshi a’loga, Ollohnning Kursisining oldiga yetib bordilar va u Zotga Haq Subhonahu va taolo bilan, Yaratgan Parvardigorning O‘zi bilan bevosta hamsuhbat bo‘lish nasib etdi.

Mana shu joyda — Yettinchi Osmonda payg‘ambar alayhissalomga kunda ellik bor namoz o‘qish farz qilindi. Payg‘ambarimiz bu buyruqni juda xursandlik bilan qabul qilib iziga qaytayotganlarida, birodarlarini hazrati Muso alayhissalom tomonidan: "Sizga va ummatlaringizga qanday vazifa bo‘ldi?" — degan savol berildi. "Ellik vaqt namoz o‘qish vazifikasi bo‘ldi", — javob berdi payg‘ambarimiz. Shunda Muso alayhissalom: "Sizning ummatlaringiz bunga toqat qila olmaydilar. Bunday ish mening boshimga tushgan. Mening ummatlarim ham toqat qilolmaganlar. Ular gunohkor bo‘lib qolmasinlar. Ollohgaga yorboring, zora kamaytirsa", — dedilar. Shundan so‘ng Payg‘ambarimiz Ollohdan bir qunda o‘qiladigan namozlar mikdorini kamaytirishni yolborib so‘radilar. Oxir-oqibat, Olloh taolo 5 vaqt namoz farz, har bir namozga 10 vaqt namozning savobini beraman — 50 vaqt bo‘ladi, bu so‘zim o‘zgarmaydi, deydi. Va o‘sha soatda Olloh taolo hazrati Rasulullohni mehmon qilib, boshqa payg‘ambarlarga nasib etmagan bir holatga guvoh qilib qo‘idi. Ya‘ni, Jannatning bir chetini ko‘rsatdi. Jannatning chetida "Sidrat ul-muntaho" degan daraxt bor, deydilar. Bu bizning tafsirimizda "eng chetdagi nilufar" deb keltirilgan (lug‘aviy ma’nosi shunday). Bu daraxt oddiy insonning tasavvuriga sig‘maydigan darajada go‘zal daraxt ekan. Olloh taolo O‘zining Qur’onda bizga xabar beradiki, bu daraxt Jannatning yoqasidagi Ollohdan boshqa hech kimga ma’lum emas ekan. Hazrati Rasulullohga shu daraxt oldigacha yetish nasib etdi. Daraxtni fa-rishtalar o‘rab turar, bu joydagisi Fayzi Ilohiy mislsiz edi. Jannatning inju marvaridlar bilan to‘la ekanligi-ni, tuprog‘i mushku anbar ekanligini ko‘rdim, deydilar Rasululloh sallallohu alayhi vasallam.

Shunday qilib, Jannatning bir chetini ko‘rganlaridan keyin Payg‘ambar alayhissalom Ollohgaga shuqurlar qilib, Uning amri bilan Yerga bir Ulug‘ vazifani olib qaytdilar.

Islomdagagi boshqa farzlar — zakot, ro‘za, haj — Yerda farz qilingan edi. Ammo namoz shu qadar ulug‘ ibodatki, payg‘ambarimiz bu vazifani Osmonda oldilar. Bu haqda Olloh taolo Qur’ondagi "Isro" degan alohida bir surada O‘zining suyukli payg‘ambarini mana shunday ulug‘ martabaga — Me’rojga ko‘tarilishga muvaffaq qilganligi haqida batatsil hikoya qiladi.

Osmondagi havoni, muhitni — Jannatning bir chetini ko‘rgan Payg‘ambar alayhissalom qaytib tushgach, Yerga sig‘may qoldilar. Nafas ololmay qoldilar. Shu payt Ollohdan ilhom bo‘lib ikki rakat nafl namozini o‘qidilar. "Ollohu Akbar", deb namoz boshlashlari bilanoq Rasulullohga Me’rojdagi o‘sha holat, o‘sha rohat, o‘sha orom qaytib keldi. Payg‘ambarimiz namozni bitirib, salom beribiqaytgan gaplari shu bo‘ldi: "Innas solata me’rojul mo“minin”, ya‘ni: "Albatta, namoz mo“minlarning Me’roji ekan, — dedilar. — Har bir mo“min "Ollohu Akbar", deb namoz boshlashi bilanoq Olloh huzurida turgan, Me’rojga chiqqan bo‘lar ekan", — dedilar.

Shunday qilib, bizlarga kunda besh bor Me’rojga chiqish, hozirgi zamon tili bilan aytadigan bo‘lsak, kunda besh bor Ollohnning qabuliga kirish nasib etdi. Namozda qay holatda turishimizni,

qanday So'zlarni aytishimiz-ni ham Ollohnning O'zi buyurdi va payg'ambarimiz tomonidan bizga namozning arkonlari, namozdagagi vazifalar bayon qilib berildi.

Demak, har bir musulmon namoz paytida Ollohnning huzurida bo'lar ekan. Bizlarning boshqa paytdagi iltijolarimiz, duolarimiz Xudoga, ehtimol, yetmay qolar, ammo namoz paytida qilgan duo-iltijolarimiz Ollohga yetib boradi. Mehribon parvardigorimiz nima iltijo qili-shimizni, qaysi suralarni va oyatlarni o'qishimizni, nima deb duo qilishimizni O'zi ta'lum berdi.

Payg'ambar alayhissalom, namoz insonning oqlanib, poklanib turishiga sababdir, deganlar. Va yana bir muborak hadislarida, namoz Jannatning kalitidir, dedilar.

Hazrati Rasululloh sallallohu alayhi vasallam sahobalardan so'radilar: "Kishi o'z hovlisidan oqayotgan anhorda kunda besh bor cho'milsa, shu kishida kir qoladimi?" — "Yo'q", — degan javob bo'ldi. "Besh vaqt namoz o'qigan odamda ham hech qanday gunoh qolmaydi, — dedilar janobi payg'ambarimiz, — har ikki namozning orasida qilingan sahvun xatolar namoz bilan yuvilib turadi".

Bu hech kimga, avvalgi dinlardagi kishilarga nasib etmagan ulug' bir baxtdir. Qarangki, har bir ibodatimizga o'n ibodat savobi yozilishi va'da qilindi. Bu baxt biz musulmonlargagina nasib etdi. Bizlarga namoz ibodatini har joyda bermalol ado qilish imkoniyati berildi. Boshqa dinlarda ibodatlarga nazar tashlansa, ular muayyan jbylardagina ado etish kerak bo'lgan ibodatlar ekanligini ko'ramiz. Bizning muqaddas Islom dinimizda esa namozni har joy va har holatda ado qilishimiz buyurildi. Payg'ambarimiz muborak hadislaridan birida Olloh taolo boshqa hech qanday bandasiga ato qilmagan ko'p ne'matlarni menga ato qildi. Ulardan biri shuki, menga Yer yuzini sajdagoh qilib qo'ydi, deydi.

Namozni sahrodami, dala-dashtdami, yo'ldami yoxud cho'ldami, uydami yo masjiddam — vaqt kelib qolganda o'qiyverasiz. Namozni tark qilishni hech qanday holatda uzri yo'qligi ham alohida ta'kidlandi. Ya'ni, Olloh taologa iymon keltirgan inson behush emas ekan, aqli raso va uyg'oq ekan, namoz vaqt bo'lganda bu ibodatni bajarish farz bo'ldi. Hatto kitoblarda: agar kishi kasalligi tufayli tik turib namoz o'qishga qodir bo'limasa, o'tirib o'qisin; o'tirib o'qishga ham kuchi yetmas bo'lsa, yotgan joyida yonboshlab o'qisin — bu farzdir, deyilgan. Ya'ni, boshni qimirlatish bilan, ishora bilan namozning ruku', saj-dalarini ado qilishi mumkin. Boshni qimirlatishga ham holi yetmaydigan insongina namoz o'qishdan vaqtinchalik — ahvoli yaxshilanib qolguncha ozod etiladi.

Namoz o'qiyotgan musulmonning suratini tasavvur qiling-a?! Olloh taolo insonni yaratar ekan, u (inson) ojiz bir holatda dunyoga keladi. Sekin-asta emaklab yuradigan, keyinroq qaddi raso bo'lib, Olloh yaratgan boshqa barcha jonzotlardan farqli o'laroq, tik yuradigan bo'ldi. Bu faqat insonga nasib etgan katta baxtdir. Mana shunday holatda inson Yaratuvchisini eslab, U Zotning far-monlarini eslab, o'ziga o'xshagan insonlarga egilib-bukilavermasdan, qaddini hammaning oldida tik tugib, faqat Ollohnning oldida ta'zim qilib, faqat Uning Uziga sajda qilib o'tishi Xudoga xush keladigan ishdир. Bizlar bermalol tik turadigan holatimizda boshimizni egib, ona zaminga boshimizni qo'yib, Ollohga sajdalar qilishimiz, tavba-tazarrular qilishimiz, sajdada "Subhona robbiyal a'la" ("Men oliymaqom bo'lgan Parvardigorumni poklayman") deyishimiz Xudoga xush keladigan ishdир. Chunki, Xudoi taolo otamiz Odam Atoni Yer jinsidan yaratdi va u zotdan insonlarni taratdi. So'ogra ularni Yerda tik qilib qo'ydi. Keyin vaqt kelib yana o'sha Yerga kirib ketadigan takdirni bizga ravo ko'rdi. Ya'ni, yer bizni o'z "elkasida" ko'tarib yurib, Olloh aytgan muddat tugagach, yana o'z bag'riga oladi. Mana shu Yer orqali O'zining osmonlardagi Jannatiga yetishimizni va'da qiladi. Biz insonlarga vafotimizdan so'ng boshqa jonzotlarga nasib qilmagan baxt — Yer-bag'rida yotish baxti nasib qilgan. Bu bizning insonligimiz alomatidir. Payg'ambar alayhissalom: "Sajda insonning qismatidagi juda katta ne'mat: u yetti a'zosi — boshi, ikki qo'li, ikki tizzasi va ikki oyog'inining uchlari bilan sajda qiladi. Sajdada Yerga tegib turgan a'zolarimizga do'zax o'ti tegmaydi", deganlar. Ya'ni, vujudimizni poklashimiz namoz bilan bo'lar ekan. Sajdada Yerga tegib turgan a'zolarimiz va sajda qilingan joy Olloh huzurida "Sen uchun va Sening buyrug'ingni ado qilib sajda qilgan inson shudir", deb Qiyomat kunida Yer yuzining qaerida bo'lmaylik, guvohlik berarkanlar. Demak, namoz — hayotimizni chiroyli, insoniy holatda

o'tkazishimiz uchun mehribon Parvardigorimizning bizlarga bergan ne'mati ekan.

Haqiqatan ham kunda besh bor namoz o'qiydigan, ya'ni kunda besh bor Ollohnning qabuliga kiradigan inson, albatta, ikki namoz oralig'ida yomon ishlarga qadam bosolmaydi. Chunki u bir ozdan so'ng joynamoz ustida namoz o'qiyman, deb o'ylaydi. Demak, namoz har soatda insoniyliqdan, pokliqdan chetlamasligimizga kafolat ekan.

— *Ustoz, namozning hikmatlari ko'PKI, u birgina suhbat emas, balki o'nlab suhbatlarga ham sig'masligi tabiiy. Bugungi suhbatimizda o'sha hikmatlardan ba'zi birlari usti-da to'xtalsangiz ayni muddao bo'lar edi...*

— Albatta, namozning hikmatlari haqida gapirmasak suhbatimiz mukammal bo'lmas. O'sha hikmatlardan biri namozni jamoat bilan birgaliqda o'qishning afzalligidir. To'g'ri, namozni yolg'iz o'qisa bo'laveradi, biroq uni jamoat bilan birgaliqda o'qishning fazilati favqulodda ziyoda ekanligini hazrati Rasululloh sallallohu alayhi vasallam aytganlar: "Jamoat namozi yolg'iz namozdan 27 bor afzal bo'ladi".

Xo'sh, buning hikmati nimada? Diniy kitoblarimizdan shunday javob topamiz: jamoat har bir insonning o'zini o'nglashiga sabab bo'ladi. Inson jamoatga qo'shilganida va yaxshi, taqvoli, Ollohdan qo'rqaqidan pok zotlarni ko'rganida, ularga qarab turib o'zidagi ba'zi bir qusurlarni o'nglashga, yo'qotishga harakat qilib qoladi.

Bundan tashqari, namozni bir imomga iqtido qilib o'qish — musulmonlarning bir safda turishini ochiq ko'rsatadigan hikmat ekan. Saflarda "Ollohu Akbar" bilangana bir holatdan ikkinchi holatga kuchishimiz, hammamizni bir xil holatda sajda va ruku' qilishimiz va imomning — rahbarimizning tavsiyasi bilan namozni teng tugatishimiz biz musulmonlarning yakdilligiga, qarab turgan tara-fimiz bir taraf ekanligiga yorqin dalolatdir.

Boshqa dinlardagi kabi uyning qaysi burchagiga but qo'yib olinsa, o'sha burchakka qarab sig'inaverish bizning dinimizda yo'q. Bizlarga faqat Ollohnning uyi bo'lgan Ka'ba tarafga yuzlanib turib ibodat qilish buyurildi. Bu holat ayniqsa namoz jamoat bo'lib o'qilganda yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

Jamoat bilan namoz o'qilganda saflarning tekis bo'lishi dinimizda alohida ta'kidlanadi. "Agar saflaringiz qiyshaysa, Olloh sizlarga qaramaydi", — deydilar Rasululloh hazratlari. Demak, biz musulmonlarning bir safda turib, Haq subhonahu va taologa birgaliqda itoat qilishimiz bir-birovimiz bilan ittifoqda bo'lishimizni ta'minlar ekan.

Yana bir hikmat. Namozni, odatda, "Assalamu alayqum va rohmatulloh", deb tugatamiz. Mana shu salom behuda berilmaydi. Bizlar namozni tugatganimizda ikki tarafimizda biz bilan birga namoz o'qigan birodarlarimizga, namozimizga rahbarlik kilgan imomimizga hamda namozimizda hozir bo'lib turgan Ollohnning maloikalari — farishtalarga salom beramiz. "Sizlarga omonlik va Ollohnning rahmati bo'lsin", — degan duoni qilamiz. Har bir namozxon aytadi bu duoni. Boshqa hech qaysi dinda ko'rilmaydigan bu hikmatning ma'nosi nimada? Buning ma'nosi — jamoat bo'lib namoz boshlayotgan musulmonlar orasida bir-biriga adovati, gina-kudurati bor kishilar bo'lishi mumkin. Agar shundaylar bo'lsa, ular bir namozning ichidayoq o'nglanib olsinlar-da, namozni "Sizga omonlik va Ollohnning rahmati bo'lsin", deb tugatsin. Bu duoni xafa bo'lgan kishi ham, xafa qilgan kishi ham aytsin. Shu bilan ularning oralaridagi adovat tugasini. Demak, duoil xayr bilan tugal bo'ladigan ikki rakat namozning o'ziyoq oralarida ixtilof bor odamlarni birlashtirib, bir-birimizning haqimizga duo kiladigan qilib qo'yadi. Bu holat faqat namoz jamoat bilan o'qilganda ko'riladi.

Namozdayin ulug' ne'matni bizlarga ato qilgan Parvardigorimiz bizning qilgan ibodatlarimizga muhtoj emas. Balki o'qiydigan namozimiz Oxiratdag'i — Ollohnning huzuridagi va'da qilingan Jannat darvozalarining biz uchun ham ochilishini va Yaratganning boshqa muko-fotlariga ham musharraf bo'lishimizni ta'minlaydigan ibodatdir. Bundan tashqari, tahorat bilan pok kiyimda yurishimizni, noplak yo'l va noplak so'zdan qochishimizni taqozo qiladigan bu ibodat bu dunyoning o'zida ham

hayotimizning pokiza o'tishiga, demakki, Inson bo'lib hayot kechirishimizga kafolat bo'ladigan katta ne'mat - Ollohimizning biz musulmonlarga in'om etgan ne'mati ekan.

Demak, bizlar mo'‘min-musulmon ekanmiz, Olloh taolo bizlarga iymon-islomni nasib etgan va O'zining hidoyati bilan Haq yo'lga boshlab qo'ygan ekan, oz muddatli hayotimizni pok yashab o'tishimiz uchun Ollohning eng ulug' farzi — Jannatning kaliti bo'lgan namoz ibodatini ado qilib o'tsak, inshoolloh, bu dunyoda ham, Oxiratda ham saodatli kishilardan bo'lamiz.

ZAKOT HAQIDA

— *Ustoz, bugungi suhbatingizni zakot ibodatiga bag'ishlasangiz. Kundan-kunga o'zgarib borayotgan hayotimizda aynan mana shu ibodat haqidagi bilimlarga bo'lgan ehtiyojimiz ortib bormokda...*

— Dini Islomning uchinchi rukni bo'lgan zakot insonlarni nafaqat ibodatga chaqiradigan, balki ijtimoiy hayotni ham qamrab oladigan, kishilarning bir-birlariga bo'lgan mas'uliyatlarini ko'taradigan va umuman ijtimoiy hayotdaadolat barqaror bo'lishiga sabab bo'ladigan dinimizning juda hikmatli farzlaridan biridir. Bu ibodatning ulug'ligi va zarurligi shundaki, shariatimiz zakot orqali kambag'allarning holidan xabar olib turishni boylarning zimmasiga yuklaydi. Zakot ibodatinning ahamiyati, xususan, bizning kunlarimizda — iqtisodiy qiyinchiliklar kechayotgan, kishilar boylar va kambag'allarga bo'linayotgan kunlarda yanada yaqqolroq ko'rindi.

Olloh taolo Qur'oni Karimda zakot haqida tafsilot bilan takror va takror aytgan. Qur'onning 82-oyatida zakot namoz bilan barobar kelgan. Ya'ni, Olloh qaerda namozni ado qiling, deb buyurgan bo'lsa, shuning barbarida zakotni bering, deb buyurgan.

O'sha 82-oyatdan tashqari boshqa alohida oyatlarda ham Zakot hukmi bayon qilingan. Bu Zakot ibodatining dinimizda tutgan o'rni naqadar mustahkam ekanligini, uning farz amal ekanligini dalolatlaydi.

Qolaversa, Rasululloh sallallohu alayhi vasallam ham o'z hadislarida boylar kambag'allarga ehsонлар, садақотлар, яхшилик qilishiga da'vat qilganlar.

Qur'oni Karimda Ollohtaolo O'zining Jannati bandalari haqida, haqiqiy taqvoli kishilar to'g'risida:



"Ularning mol-mulklarida so'raguvchi va (mol-davlatdan) mahrum-muhtoj kishilar uchun (ajratilgan) haq-ulush bo'lar" (Vaz-zoriyot-19)— deb marhamat qilgan. Demak, Olloh kimga molu davlat bersa, o'shaning bir qismi aniq kambag'allarning haqi, degan z'tiqodda yashashimiz zarurligi iymonimizga, taqvoimizga dalolat ekanligi ma'lum bo'lada.

"Zakot" so'zi aslida arabcha so'z bo'lib, "poklash", "undirib-o'stirish" degan ma'nolarni bildiradi.

Biz Olloh taolo o'zi omonat qilib bergen molu dunyoni poklab olib, so'ngra undan foydalanishimiz joiz. O'sha molu dunyoning ozgina qismini Olloh o'ziniki degan. Shu qism kambag'allarga berilganda topilgan dunyo pok bo'ladi, deydi Olloh. Bu qism miqdori yuzdan ikki yarim foizdir yoki qirqdan birdir.

Xuddi qozonda pishayotgan taomning ustidagi ko'pikni olib, uni tozalab olganday, molu dunyoni ham tozalab olish darkor.

Zakotni o'zimizning qarindosh-urug'larimiz, qo'ni-qo'shni, mahalla-ko'ylarimizga beramiz va bu bilan o'rtamizdag'i mehr-oqibat, birodarlikni rivojlantiramiz, topgan mulkimizni poklab olamiz.

Zakot berish bilan suratda molimizning miqdori go'yo kamaygandek bo'lar, aslida esa, Olloh buning nomini "zakot" deb qo'ygan ekan, demak, boyligimiz kamaymaydi, balki, aksincha, o'sadi. Ya'ni, suratda molimiz kamayganday ko'rinsa ham, Olloh bizda qolgan halol qismiga shu qadar barakot beradiki, berganimizdan bir necha bor ko'prog'ini Olloh bu dunyodayoq qaytaradi. Zakot

so‘zining "unish-o‘sish" ma’nosi mana shundan kelib chiqadi. Bu go‘yo dehqonning yerga don sochishiga o‘xshaydi. Yerga tashlangan bitta don Olloh barakot bergenligi tufayli qirqa bo‘lib qaytib kelgani kabi. Sizning qirqdan bir ulushingiz Ollohnning marhamati bilan bir necha bor ko‘payib qaytadi.

Demak, zakot ibodati vositasida Olloh taolo O‘zining har bir bandasining yonini olar, rahm-shafqat qilar ekan va bu ishni O‘zyning boy bandalari qo‘li bilan amalgalashirar ekan.

— *Zakot ibodatshing boshqa ibodatlardan eng asosiy farqi nimada?*

— Bu ibodatning boshqalardan farqi shundaki, masalan, "La ilaha illalloh, Muhammadur Rasululloh" kalimasi har bir mo‘min odam aytishi, tilida iqror, dilida tasdiq etishi kerak bo‘lgan kalima bo‘lsa; namoz har bir muslimon ado qilishi lozim bo‘lgan ibodat bo‘lsa; zakot faqat boylar uchun farz qilingan ibodatdir.

— *Unda mol-dunyosining miqdori qay darajaga yetganda kishini boy deymiz va o‘sha boy odam nimalardan zakot berishi kerak, degan savolga javob bersangiz?*

— Keling, avval savolningizning ikkinchi qismini ko‘rib chiqaylik, shunda o‘z-o‘zidan birinchi savolningizga javob bo‘ladi.

Zakot besh narsadan berilishi farz qilingan.

Birinchisi, tasarrufdagi chorva mollari (tuya, qora-mol, qo‘y kabi)dan; ikkinchisi, oltin va kumushdan; uchinchisi, tasarrufdagi yer maydonidan topilgan kon yoki xazinadan; to‘rtinchisi, tijorat mollaridan (tijorat uchun olib qo‘ylgan mollarning qiymatidan); beshinchisi, dehqonlar dehqonchilik mahsulotlaridan. Mana endi yuqorida sanalgan narsalar qaysi miqdorga yetganda ularning sohiblari boy deb sanaladi, ya’ni zimmalariga zakot berish mas’uliyati yuklanadi, degan savolga javob beramiz. Dinimizda bu savolga ham mukammal javob mavjud.

Arab tilida "nisob" degan so‘z bor. Buni biz "boylik chegarasi" deb tushunsak to‘g‘ri bo‘ladi. Yuqorida aytilgan besh narsaning ham o‘ziga yarasha nisobi bor.

Avvalo, chorvador boyning zakot to‘lash tartibini ko‘rib chiqaylik. Agar chorva mollari Olloh yaratgan o‘tloq-yaylovda bekorga (tekinga) o‘tlasalar, shunda chorva egasi zakot beradi. Ya’ni, bir yilning yarmidan ko‘proq vaqt mobaynida chorvador boyning mol-qo‘yi yaylovda tekinga boqilgan taqdirda, ana o‘sha mol-qo‘ydan zakot beriladi. Aksincha, qo‘lidagi yuzlagan mol-qo‘yni yonidan pul sarflab boqadigan chorvador uchun o‘z chorvasidan zakot berish farz emas. Demak, chorvasi yaylovda o‘tlaydigan chorvador boy qo‘lidagi beshta tuya uchun bitta qo‘yni, o‘ttizta qoramol uchun bir yasharlik bir buzoqni, qirqa qo‘y uchun bitta qo‘yni zakot qilib kam-bag‘allarga berishi kerak. Demak, chorvadorlar uchun nisob, boylik chegarasi beshta tuya yoki o‘tgizta qoramol, yoxud qirqa qo‘y ekan va bu chorva bir yilning yarmidan ko‘proq vaqt davomida yaylovda tekinga o‘tlasalar zakot to‘lash mas’uliyati paydo bo‘lar ekan. Aytilganlar zakot to‘lovchi chorvador boyligining eng kam miqdori edi. Demak, beshta tuyadan bitga qo‘y berilar ekan, o‘nta tuyadan ikkita, o‘n beshta tuyadan uchta, yigirmata tuyadan to‘rtta qo‘y beriladi va lekin yigirma beshta tuyadan beshta qo‘y emas, balki bitta tuya beriladi. Mana shunday miqdorda chorvasi bor-u, lekin uni o‘z hamyonidan sarf qilib boqqan chorvador boyning zakot to‘lash tartibi boshqacharoq va bu haqda keyinroq fikr yuritamiz.

— *Unda hozir oltin-kumush egasi bo‘lgan kishilar yoki o‘sha oltin-kumushni sotib olishga imkonibor kishilarning zakot berish tartibi haqida, qancha oltin-kumushi bor kishi boy hisoblanishi haqida ayтиб bersangiz?*

— Bu xususdaham, albatta, shariatimizning ochiq hukmi bor.

Hazrati Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning bizga buyurishlaricha, yigirma misqol oltini bor kishi boy hisoblanadi va shundan yarim misqoli zakot qilib berilishi lozim. 20 misqol hozirgi hisobda 85 grammga to‘g‘ri keladi. Demak, kimning 85 gramm oltini bo‘lsa, shuning qirqdan birini kambag‘allarga zakot tarzida berishi kerak.

Kumushi borlar uchun esa boylik chegarasi 200 tanga (600 gramm) kumush bilan belgilanadi. Qur'on nozil bo'lgan davrlarda iqtisodiy munosabatlar asosan ol-tin - kumush bilan bo'lgani uchun boylik chegarasi oltin-kumush miqdori bilan belgilangan edi. Bugun esa muomala asosida oltin turgan pullar borki, demak, 85 gramm oltin yoki 600 gramm kumush sotib olishga yetadigan pulga ega bo'lsak boy hisoblanamiz va zimmamizga zakot to'lash mas'uliyati yuklanadi. Shu o'rinda imomimiz Imomi A'zam rahmatullohi alayhning bir masalasini eslab o'tishimiz joiz. "Anfaulil-faqir", deydilar u kishi, ya'ni, agar 85 gramm oltindan ko'ra 600 gramm kumush arzonroq bo'lsa-yu, Sizning jamg'armangiz oltingga emas, kumushgagina yetadigan bo'lsa, Siz shunda ham o'zingizni boy hisoblang-da, tezroq zakot berishning harakatiga kirishing. Ko'proq pulli bo'lishni kutib o'tirmay, boylik chegarasining eng quyi bosqichiga yetish bilanoq zakot berish kambag'allarga foydali, deganlar. Boylik chegarasi eng quyi bosqichining pul bilan o'lchanadigan bugungi qiymati taxminan 85 gramm oltin bo'lishini aytsak, o'quvchiga yanada tushu-narlroq bo'lar. 600 gramm kumush esa balki arzonroqdir.

Zakotning uchinchi turi tasarrufdagi yer maydonidan topib olingen kon yoki xazinadan beriladigan zakotdir. Bu zakotni berish tartibi quyidagicha: yer egasi topib olgan koni yoki xazinasi umumiyligi qiyamatining beshdan bir qismini kambag'allarga zakot qilib beradi. Bu farz. Qirqdan biri yoki yigirmadan biri emas — beshdan biri farz qilingan.

Navbatdagi zakot turi tijorat mollaridan beriladigan zakotdir.

Xo'sh, tijoratning boylik darajasini qanday o'lchaymiz? Uning qo'lida 85 gramm oltin qiymatiga teng naqd Pul bo'lmasa-da, shu qiymatga yarasha sotish uchun olib qo'ygan moli bo'lsa, zakotni o'sha moldan to'lashi farz qilingan. Bu holatda zakot molning qirqdan bir qismi miqdorida kambag'allarga beriladi.

Endi avvalda chala qolgan chorvadorlarning zakot to'lash tartibiga qaytamiz. Chorvador o'zining mol-qo'yini yilning yarmidan ko'proq muddatda o'z yonidan pul sarflab, semirtirib sotaman deb boqqan bo'lsa, bu mol-qo'ylar ham pul hisobida turgan bo'ladi. Demak, mol-qo'y egasi zakotni mol-qo'yning sanog'idan emas, balki ularning pul hisobidagi qiymatidan (qirqdan bir) beradi. Ya'ni, bu holatda chorva mollari tijorat mollariga aylanib qolgan bo'ladi.

Va nihoyat, dehqonchilik mahsulotlaridan to'lanadigan zakot. Bu zakotni shariatimiz hukmi bilan ota-bobolarimiz "ushr" deb atab kelganlar. Ushr arabcha so'z bo'lib, o'ndan biri deganidir. Hazrati Rasululloh arpa, bug'doy, xurmo va mayiz kabi to'rtta narsaning o'ndan birini zakot qilib berishni buyurganlar. Boshqa ekinlardan ham (sabzi-piyozdan tortib qovun-tarvuzgacha) imomimiz Imomi A'zam rahmatullohi alayhning ko'rsatmalariga binoan, hosilning o'ndan biri kambag'allarga zakot qilib beriladi.

Biz zakot berilishi lozim bo'lgan narsalar va ularning chegaralari haqida gapirdik. Shu o'rinda yana bir narsaga e'tibor bermog'imiz lozim.

Zakot kishining doimiy ehtiyojidan tashqari bo'lgan narsalardangina beriladi. Ya'ni kiyimlar, farzandlar uchun olib qo'yilgan kiyimlar, yashaydigan hovli-joy, ot-ulov (mashina)dan zakot berilmaydi. Bular hojati asliya — asl ehtiyoj mollaridir va shuning uchun shariatimiz bulardan zakot berishni talab qilmaydi. Zakot yuqorida sanab o'tilganlardangina farzdir.

— *Zakot kimlarga beriladi yoki, aniqrog'i, zakotni kimlar qabul qilsa to'g'ri bo'ladi?*

— Zakot, albatta, kambag'allarga beriladi. Kambag'al deb esa biz suhbatimizda aytib o'tgan boylik chegarasiga yetmaganlarga aytildi. Lekin ayni zakot — sadaqotlarni kimga berish kerak ekanligini Ollohnning O'zi ko'rsatib bergan. Qur'oni Karimda sakkiz sinfdagi yoki sakkiz qatlam — toifadagi kishilarning zakot olishi aytigan. Sadaqalar, zakotlar:

1. Faqirlarga;
2. Miskinlarga;
3. Zakot yig'uvchi kishilarga;

4. Dini Islomga oshno qilinishi kerak bo‘lgan kishilarga;
5. Qullarni ozod qilish yo‘liga;
6. Qarzini to‘lay olmay qolgan kishilarning qarzini to‘lashga;
7. Olloh yo‘lida;
8. Musofirlarga berilishi kerak, deb sakkiz sinfni bizga Ollohnning o‘zi bayon qilib bergen:

إِنَّمَا الصَّدَقَاتُ لِلْفُقَرَاءِ وَالْمَسَاكِينِ وَالْعَمَلِينَ عَلَيْهَا وَالْمُؤْلَفَةُ
قُلُوبُهُمْ وَفِي الْرِّقَابِ وَالْغُرَمِينَ وَفِي سَبِيلِ اللَّهِ وَأَبْنِ السَّبِيلِ
فِي رِضَةٍ مِّنْ اللَّهِ وَاللَّهُ عَلَيْهِ حِكْمَةٌ ⑩

Endi o‘sha sakkiz sinfga kiruvchilarni batafsil ko‘rib chiqaylik.

Birinchisi — faqirlar sinfidir. Tasarruflaridagi mol-davlatlari boylik chegarasiga yetmaganlar faqirlardir. Ya’ni, ularning yeyish-kiyishiga yetadigan ozgina mablag‘i bor-u, lekin jamg‘armasini oltin hisobiga oladigan bo‘lsak, u 20 misqol oltin yoki 200 tanga (600 gr.) kumush qiymatiga yetmagan. Demak, bunday kishi boy hisoblanmaydi. Va u zakot olsa bo‘laveradi.

Ikkinchisi — miskinlar sinfi. Bu — o‘zbekcha "bechora" deganidir. Ya’ni, chorasi yo‘q, hech narsasi yo‘q kishidir. Albatta, bundaylarga zakot beriladi.

Uchinchi sinf — zakot yig‘uvchilar. Islom mamlakatlarida davlat tomonidan soliq yig‘uvchilar kabi alohida zakot yig‘uvchilar tayinlanadi. Ular boylarning zakotini yig‘ib, kambag‘allarga bo‘lib berar ekanlar, shu ish uchun ketgan vaqtlariga maosh oladilar. Garchi ular o‘zлari zakot bera oladigan darajada boy kishilar bo‘lsalarda, qilgan mehnatlari evaziga ularga to‘plangan zakotdan bir qismini maosh sifatida berish mumkin.

To‘rtinchisi sinf — dini Islomga qalblari oshno qilinishi kerak kishilar, dedik. Islom dini dunyoga tarqalayotgan davrlarda, ya’ni, Rasululloh taraflaridan dinga da‘vat qilinayotgan paytda, boshqa qabilalardagilarni dinimizga da‘vat qilish uchun payg‘ambarimiz ularga ham boylarning zakotlaridan berishni buyurganlar. Shu narsa orqali ham ularning qalblarida dinimizga nisbatan muhabbat paydo bo‘lgan. Bu hukmni Rasulullohning vafotlaridan so‘ng xalifa bo‘lib turgan hazrati Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu dinimiz yetarli darajada rivojlandi, endi boshqa dindagi kishilarni dinimizga da‘vat qilish maqsadida ularga zakot ularashish ortiqcha, deb to‘xgatib qo‘yanlar.

Beshinchisi — qullarni ozod qilish uchun zakot berish. Tarihdan bilamizki, Qur‘on nozil bo‘lgan davrda dunyoda quldarlik tuzumi hukm surgan edi. Ana o‘sha paytda qullarni ozod qilishni dini Islom eng ulug‘ ibodat deb hisoblagan. Boylarga "Pullaringizga qul sotib olib ozod qilib yuboring", — deb buyurilgan edi. Hozir quldarlik zamoni bo‘limgani uchun bu hukmga, tabiiyki, ehtiyoj qolmagan.

Oltinchi sinf — qarzdorlar. Boy odam beradigan zakotini qarzini to‘lay olmayotgan kishiga bersayu, u qarzini uzib olsa — Olloh buyurgan ish bo‘ladi.

Yettinchi sinf — fiysabililloh — ya’ni, Olloh yo‘lida zakot bermoqlik. Xudo yo‘lida o‘z vatanini tashlab, molu dunyosini sarflab jihodga chiqib ketayotgan kishiga zakot bersa bo‘ladi, deyilgan. Ayrim ulamolar Ollohnning diniga da‘vat kilayotgan tolibi ilmlarga zakot berilsa Olloh yo‘lida berilgan bo‘ladi, deb ham tafsir qildilar.

Zakot berilishi mumkin bo‘lgan sakkizinchi sinf musofirlardir. Musofir o‘z vatanida boy bo‘lsa-da, safardagilik chog‘ida, aytaylik, vataniga qaytib ketishi uchun mablag‘i yetarli bo‘lmay qolishi mumkin. Shuning uchun ham zakot berish buyurildi.

Demak, shariatimiz nazarida, faqirlar, miskinlar, qarzdorlar hamda musofirlar kambag‘aldirlar va boylarimiz zakotlarini o‘shalarga berishlari lozim.

Biz yuqorida juda katta savolga, ehtimol, kezi kelganda ovoz chiqarib so‘rash qiyin bo‘lgan

savolga javob berdik. Chunki ahli davlat kishilarimiz qo'llaridan kelgan ehsonlarini kimga berish kerakligini har doim ham bilavermaydilar. Ayrim hollarda, xato tarzda, ahli ilmlargagina yedirib-kiydirishim kerak, deb o'ylaydilar.

Agar ahli ilmlar — domlalar, imomlar, qori akalar kambag'al kishilar, jamg'armalari boylik chegarasiga yetmagan kishilar bo'lsalar, ularga zakot berish juda savobli ish va qabul qilgan zakotlari ularga haloldir. Ammo o'sha ahli ilmlar o'zları boy, zakot berishga qodir odamlar bo'lsalar, u holda zakot olishni to'xtatishlari kerak, chunki endi ular qabul qilgan zakot harom bo'ladi.

Demak, takror aytamizki, zakot kambag'allarga, ular ahli ilmmi yoki ahli ilm emasmi, bundan qat'i nazar kambag'allarga berilishi kerak.

— *Ustoz, zakot haqidagi suhbatimiz mukammal bo'lishi uchun, uni kimlarga bermaslik kerak, degan savolga ham bat afsil javob qilsangiz...*

— Birinchidan, boylar birovlarning zakotini olmasliklari kerakligi aniq gap, chunki ular o'zları zakot beruvchilardir. Ikkinchidan, zakotni g'ayridinlarga berib bo'lmaydi, ya'ni boshqa dindagilarga, kofirlarga, dinsizlarga boylar zakotidan berishlari mumkin emas.

Uchinchidan, zakotni o'zimizning aslimiz bo'lgan ota-bobolarimizga va o'zimizning naslimiz bo'lgan farzandlarimizga ham bersak bo'lmaydi. Chunki boy bo'lgan kishilar ota-onalari va farzandlariga zakotdan tashqari ham yaxshiliklar qilishlari kerak. Bu ularning zimmasidagi burchdir. Boshka qarindoshlarga esa zakot bersa bo'laveradi. "

Qolaversa, avvalo zakotni o'z qarindoshlarimiz (ota-onalari va farzandlarimiz bundan mustasno) orasidagi faqirlar, miskinlarga berishimiz durust. Chunki hazrati Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: "Bir miskinga sadaqa berish bir sadaqa bo'lib, savobga ega bo'ladi, ammo qarindosh-uruqqa berilgan sadaqadan ikkita savob hosil bo'ladi", deydilar.

— *Agar qarindoshlarimiz zakot oluvchilar bo'lmasa yoxud ulardan ortsa-chi?*

— U holda qarindosh bo'lmagan musulmon birodarlarimiz orasidan faqir-miskinlarni izlashimiz kerak. Mana shu tartibga rioya qilinsa, ya'ni hozirgi qiyinchilik davrida har kim o'z qarindosh-urug'ini, musulmon birodarlaryni qo'llasa bugungi tarang vaziyat ancha yumshagan bo'lar edi.

Darvoqe, er o'z xotiniga hamda xotin o'z eriga zakot bersa bo'lmaydi. Chunki xotinning nafaqasi erving zimmasidagi bevosita mas'uliyatdir. Zakot berish tartibini sharhlar ekanlar, ulamolarimiz zakotni o'z mahallangiz, o'z qishlog'ingizga bering, o'z qishlog'ingizda kambag'allar turib, zakotni o'zga yurtga olib borib berish karohiyatlari, makruh ishdil, deydilar. Lekin shu yerda ham istisno bor: o'zga qishloqda kambag'al qarindoshingiz bo'lsa, unga zakot bersa bo'laveradi.

Shunday qilib, zakot ibodati shariatimizning insonparvar shariat ekanligiga, uning musulmonlar o'rtaсидаги бирлиқни та'minlaydigan shariat ekanligiga dalolat bo'ladigan ibodat ekan.

Kezi kelganda yana bir jihatni aytib qo'yishimiz lozim. Zakot bergen odam zakot olgan odamga minnat qilib, mening sadaqotim bilan yashab yuribsan, degan ta'nalarga o'tsa, u qilgan ibodatini behuda ketkizgan bo'ladi. Balki Olloh bergen molu davlatning bir qismini Olloh yo'lida zakot qilib bergen kishi zakotni Ollohga bergen bo'ladi. Ya'ni, Olloh buyurgan ishni qilgan bo'ladi. Demak, Sizdan bir kambag'al birodaringiz zakotingizni olsa, buning uchun Siz unga minnatdorchilik bildirishingiz lozim. "Mening Olloh oldidagi bir ibodatimni ado qilib olishimga sen sababchi bo'lding, shuning uchun senga rahmat", deyishingiz kerak. O'z navbatida, qo'li qisqa birodarlarimiz zakot olishdan iymanishlari kerak emaski, ular bir badavlat birodariga Xudo buyurgan ishni ado qilib olish uchun sababchi bo'lmoqdalar.

Ammo boy-badavlat bo'laturib, ota-bobolarimiz aytganlaridek, "qo'lning kiri" bo'lgan pulga suyanib qolib, baxillik qilib, kambag'allarga zakot ulashmagan kishilar haqida Qur'oni Karimda:

وَلَا يَحْسَبَنَّ الَّذِينَ يَعْمَلُونَ إِنَّمَا أَتَهُمْ أَنَّهُمْ مِنْ فَضْلِنِي هُوَ
خَيْرٌ الْحُمْدُ بِلْ هُوَ شَرٌّ لَهُمْ سِيَطَرُونَ مَا يَحْلُوا إِيمَانُهُمْ يَوْمَ الْقِيَامَةِ وَلِلَّهِ
مِيرَاثُ السَّمَاوَاتِ وَالْأَرْضِ وَاللَّهُ يَعْلَمُ كُلُّنَّ خَيْرٍ ⑯

"Olloh fazlu karami bilan ato qilgan narsalarni (zakotini) berishga baxillik qilgan kimsalar hargiz bu qilmishlarini o'zlar uchun yaxshilik deb hisoblamasınlar! Yo'q, bu qilmishlari o'zlar uchun yomonlikdir. Baxillik qilib bermagan narsalari Qiyomat Kunida bo'yinlariga o'ralajak! (Barcha jonlijonsiz narsalar ketar va) osmonlari yer meros bo'lib Ollohga qolur. Olloh qilayotgan amallaringizdan xabardordir" (Oli-Imron—180), deyiladi.

Navbatdagi oyatda esa:

يُوَرِّجُونَ عَلَيْهَا فِي تَارِيْخَ جَهَنَّمَ فَتَكُونُ إِلَيْهَا جَاهَّا هُمْ
وَجَنُوْهُمْ وَظَهُورُهُمْ هَذَا مَا كَنَّتُمْ لِأَنفُسِكُمْ فَذُوقُوا مَا كُنْتُمْ
تَكْنِزُونَ ⑯

"U kunda (Qiyomatda) o'sha (oltin-kumushni) jahannam o'tida qizitilib, o'sha bilan ularning peshonalari, yonlari va ketlariga tamg'a bosilib: "Mana bu o'zlarining uchun to'plagan narsalaringizdir. Endi to'plab — bosgan narsalarin-gizni mazasini totib ko'ringlar" (deyilur). (Tavba — 35).

Mana shunday holatga tushib qolmaslik uchun Xudoi taolo bergen, haloldan topgan davlatimizni yanada poklab olishimiz uchun kambag'al, qo'li qisqa birodarlarimizga imkon kadar yordam qo'limizni cho'zsak — Olloh rozi bo'ladigan va jamiyatimizda ittifoqlik qaror topadigan ishni qilgan bo'lamiz, inshoollo.

RO'ZA

— Assalomu alaykum, ustoz! Bergan va'dangizga ko'ra bugun endi ro'za ibodati haqidagi suhbatingizni tinglamoqchimiz...

— Avvalo munavvar ramazon oyi haqida aytib o'tsak. Bu oy Olloh taolo nazdida eng ulug' oydir. Haq taoloning O'zi bu haqda muqaddas kalomi orqali biddirgan. Ramazon oyining ulug'ligi shundaki, aynan shu oyda Qur'oni Karim nozil bo'ladi. Olloh taolo O'z Kitobida marhamat qiladi:

شَهْرُ رَمَضَانَ الَّذِي
أَنْزَلَ فِيهِ الْقُرْءَانُ هُدًى لِّلْكَافِرِ وَبَيِّنَاتٍ مِّنَ الْهُدَىٰ وَالْفُرْقَانِ فَمَنْ شَهَدَ
مِنْ كُوْرَانَ الشَّهْرِ فَلَيَصُمُّهُ

"Ramazon oyi shunday oydirki, unda Qur'on nozil bo'lgan. Qur'on nozil qilinib, Osmondan Yerga tushirilgan oy. Bu Qur'on odamlar uchun hidoyat bo'lib, ya'ni yo'lboshchi bo'lib, mayoq bo'lib, to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi rahbar bo'lib nozil bo'lgan. Va mana shu hidoyatni, haq bilan botilni ajratishlikning bayonoti bo'lib nozil bo'lgan. Sizlardan qaysi biringiz mana shu oyga guvoh bo'lsa,

hozir bo'lsa, mana shu oyning Ro'zasini tutsin!" (Baqara —184).

Haqiqatan ham, Osmomonning Yer bilan tutashuvi, Insoniyat o'zini hayoti uchun to'g'ridan-to'g'ri Ollohdan ko'rsatma olishi, demakki, butun olam jaholat zulmatlaridan, nodonlikdan, dinsizlik illatlaridan Iymon nuriga chiqishi mana shu Qur'on bilan, Ollohnning ko'rsatmasi bilan bo'lgan ekan, shunday ulug' ko'rsatma nozil bo'lgan oy, albatta, sharaflı, ulug' oydir. Chunki Xudoi taolo bandalari uchun bergen, eng katta in'omi bo'lgan, Iymon va Din degan ne'matning asosi bo'lgan Qur'on shu oyda nozil bo'lgan.

Haqiqatan, Qur'onning nozil bo'lishi Bashariyatning hayvonot darajasidan Insoniyat maqomiga chiqishiga kafolat bo'ladigan, to Qiyomat adashmay, to'g'ri yo'lda ketadigan inson bo'lishi uchun kafolat bo'ladigan Ollohnning ne'matidir.

Yana shu oyatning tafsiri o'laroq, Rasulullohning bir muborak hadislari bor: "Ramazon kelganida Jannat darvozalari ochilur"... Jannat darvozalari chindan ham ramazonda ochildi, chunki ramazonda Qur'on nozil bo'ldi va Qur'onga amal kilgan, Unga iymon keltirgan odamlar uchun Jannat va'da qilindi. Demak, Jannatning darvo-zasi avvalo Qur'ondir, Islomdir.

Mazkur oyning ulug'ligi yana shundaki, bu oyda ming oydan yaxshiroq bir kecha bor. Bu Qadr kechasi. Olloh taolo O'z Qur'onida bu kecha haqida alohida sura nozil qilgan va bu kechani Olloh taolo rozi bo'ladigan holda ibodatlar bilan o'tkazgan kishilar uchun beriladigan savoblar ming oylik ibodat bilan topilmaydigan savoblar ekani hakida xabar bergan. Qadr kechasi to'g'risida keyinroq yana to'xtalamiz.

Ramazon oyida ro'za tutinglar, dedi Ollohimiz:

مَنْ شَهِدَ مِنْ كُوْمَةِ الشَّهْرِ فَلَيَصْمَدْ

"Mana shu oyda hozir bo'lgan, shu oyga guvoh bo'lganlaringiz ro'zatutsin". Bu Yaratganning amri, farmoni bo'ldi. Mana shu farmonga asosan mo' 'min-musulmonman, degan har bir banda ro'za tutishimiz kerak. Chunki, Olloh bizlarga o'sha Nuri Ilahiyni — Qur'oni nozil qilgan oyning shukronasiga bu oyni ro'za bilan o'tkazing, dedi.

— Ro'za o'zi nima? Ya'ni, uning asl mohiyati nimada? Bu ibodat insonlarga nima uchun farz qilindi?

— Bu hakda Olloh taolo O'zining Qur'onida mana bunday marhamat qiladi:

يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا كُتِبَ عَلَيْكُمُ الصِّيَامُ كَمَا كُتِبَ عَلَى الَّذِينَ مِنْ قَبْلِكُمْ
لَعَلَّكُمْ تَتَّقُونَ ⑩

"Ey mo' minlar, iymon keltirgan zotlar, sizlardan avvalgi o'tganlarga farz qilib bitilgani kabi, sizlarga ham ro'za tutish bitildi. Sanoqli kunlarda ro'za ibodatini ado qilish yozib — farz qilib qo'yildi, shoyadki, sizlar taqvodor bo'lsangizlar".

Mana, ro'zadan bo'lgan maqsad nima ekanligi shu ulug' oyatda bayon qilindi.

Birinchidan, Islomgacha bo'lgan muvaqqat dinlarda ham ro'za ibodati buyurilgani va so'nggi — mangu qoladigan Islom dinida ham ro'za ibodati bor ekanligi bu oyatdan ma'lum bo'ldi.

Ikkinchidan, bir umr emas, sanoqli kunlargina, ya'ni o'n ikki oyda bir oy ro'za tutishimiz ham bu oyatdan ma'lum bo'ldi.

Uchinchidan, bu oyda sizlarga ro'zani farz qildik, toki taqvodor bo'lsangizlar, deydi Olloh taolo.

Demak, ro'zadan murod — bizning taqvoimiz ekan, Ollohdan qo'rqishimiz, Uning har bir buyrug'iga itoat qilishga o'rganishimiz — mana shu maqsadlar uchun Olloh bizga ro'za ibodatini farz

qilgan. Ya'ni, ro'za biz musulmonlar uchun bir sinov, imtihondir. Islomdag'i barcha ruknlar — namoz, zakot va suhbatimiz mavzui — ro'za imtihonlardir. Shu imtihonlardan yiqilmay o'tgan baxtli bandalar bu dunyoda ham, Oxiratda ham Ollohnning rizoligiga erishadigan baxtli kishilar bo'lar ekanlar.

Olloh taolo insoniyat uchun butun olamlarni va olamdag'i bor ne'matlarni yaratib, shuning shukronasiga Meni eslab turgin deb, kunda besh mahal toza, tahoratli holda O'ziga sajda qilishimizni buyurdi. Bu bir imtihon edi. Undan hamma ham o'ta olmaydi. Shu ibodatni ado etayotganlarning hammalari ham mazkur sinovning qadriga yetolmaydi.

Zakot ibodati ham bir imtihondir. Har birimizning fikrimizni, kuchimizni, jismimizni ishlatib, peshona terimiz bilan topgan molu dunyoimizdan bir qismini Men uchun bering, deb imtihon qiladi Olloh taolo. Chunki bu molu dunyoni Sizga Men bergenman, deb buyuradi.

Xuddi shuningdek, yilda bir oygina Olloh bergen ne'matlardan — yeish-ichishdan, shahvoniy xohishlardan o'z ixtiyorimiz bilan, Ollohdan savob umid qilib och va tashna yurishimiz — ro'za oyida kunduzlari ro'za tutishimiz ham bir ilohiy imtihondir. Mana bu imtihondan o'tish - bizlarning Olloh huzurida va'da qilingan katta ne'matlarga yetishimizga sabab bo'ladi. Bu imtihon shu dunyoning o'zida ham insoniy hayot kechirishimizga sabab bo'ladi. Ro'zaning boshqa ibodatlardan farqli yana bir jihatibor. Olloh taolo "Ro'za meniki", deydi. Bu holat Ro'zaning nakddar ulug' ibodat ekanligiga dalolatdir. Bir hadisi muborakda Rasululloh alayhissalom Olloh taolonning so'zlarini yetkazganlar: "Har bir yaxshilikka o'n barobar mukofot beraman, to 700 barobargacha". Demak, Olloh yo'lida xolis ixlos bilan, savob umidida, iyomon bilan qilingan har bir katta yoxud kichik ishimiz evaziga Ollohimiz bizga 10 barobardan 700 barobargacha mukofot beraman, deb va'da beradi, lekin ro'za unday emas, deydi. Chunki ro'za Men uchun bo'ladigan ibodat, uning mukofotini ham Uzim beraman, deydi. Qanday mukofot berishni ham O'zim bilaman, deydi. Bu Ilohiy fikrni shunday tushunishimiz mumkinki, ro'za inson ado etayotgan ibodatlar orasida yolg'iz ibodat qilguvchi bilan Olloh o'rtasidagi bir sirdir. Boshqa ibodatlar — namoz o'qiganingizda, zakot berganingizda, hajga borganingizda guvohlar bo'lishi mumkin, lekin ro'za tutganingizni o'zingiz aytmaguningizcha birov bilmaydi. Ro'za ichki ibodatdir. Shuning uchun bu ibodatga riyo aralashmaydi. "Men uchun qilinadi bu ibodat, shu sababli ro'zaning mukofotini o'zim beraman, — deydi Olloh taolo. — Ya'ni 700 barobar ham kamlik qiladi. Buning miqdorini sizlar bilmaysizlar, yolg'iz O'zim bilaman", deydi mehribon Ollohimiz.

Bir hadisi muborakda Rasululloh alayhissalom: "Ro'za sabrning yarmidir", dedilar. Boshqa bir hadisda: "Sabr iymonning yarmidir", dedilar. Demak, ro'za — iymonning to'rtadan biri ekan. Mo'min-musulmon ekanligimizga, iymonli ekanligimizga tutgan ro'zamiz ham dalolat bo'lar ekan.

Darhaqiqat, "Sabr iymonning yarmi" ekan, iymonli kishi uchun sabr qilmoqlik eng asosiy vazifalardan bo'ladi. Masalan, iymonli kishi butun dinsizlarning xurujlariga, bu dunyodagiadolatsizliklarninghammasiga Olloh yo'lida sabr qila oladi. Iymonli kishi o'zi sevgan Ollohnning diydoriga yetish uchun Qiyomatgacha sabr qiladi. Zotan, Haq taolonning diydoriga muyassar bo'lmoq bu dunyoda beriladigan ne'mat emas. Olloh va'da qilgan Jannatga yetish uchun ham sabr qilamiz. Demak, iymonimiz sabr bilan. Besabrlar hozirning huzurini o'ylaydilar va shunga suyanadilar. Mo'min odam Oxiratga ishonadi va Oxiratdag'i ne'matlarga, eng katta mukofot bo'lgan Ollohnning diydoriga sabr bilan yetadi. Shu sabrni bizga o'rgatadigan ibodat ro'zadir. Tirik jonning tabiiy ehtiyojlari bo'la turib, Olloh yo'lida yeish-ichishdan, shahvoniy xohishdan, umuman, nafsoniy har qanday istaklardan kechgacha tiyilib sabr qilmog'i iymonning bir belgisi ekan.

— Ro'za tongdan shomgacha ochyurish bilangina belgilanadimi? Yoki ro'zador boshqa taraflarga ham javob berishi kerakmi?

— Ibodatimizning komil bo'lishi uchun bu savolning ham javobini bilishimiz kerak. Ro'za ibodati insonlarni tarbiyalash vositasi ekanligini aytdik. Demak, bizlarning fakat och-tashna yurishimizga Olloh muhtoj emas. Balki iymon bilan, Xudoning buyrug'i deb qabul qilib savob umidida shu ibodatni ado qilsakkina tutgan ro'zamiz qabul bo'ladi. Bir hadisi sharifda Rasululloh alayhissalom:

"Ro'zadorman, deb ro'za tutib yurganlardan qanchalari borki, ularga tutgan ro'zalaridan ochlik, tashnalik qoladi, xolos", deydilar. Demak, ro'za — faqat ochlik va tashnalikda yurish degani emas ekan. Yoki yana bir hadislarida: "Qaysi bir odam ro'za tutsa-yu, ammo yolg'on so'zdan tiyilmasa, gunoh ishlardan tiyilmasa, bu odamning yeish-ichishni tark qilishiga Olloh muhtoj emas", deganlar. Shu hakda Ollohnning "Ro'za qalqondir", degan kalimasi bor. Bu ro'za insonni bu dunyoda gunohlardan saqlaydigan va Oxiratda do'zax azobidan saqlaydigan qalqondir.

Endi yuqoridagi hadisning davomiga e'tibor bering: "Ro'za qalqon ekan, o'sha kishini dunyo va Oxiratdagi yomonliklardan saqlovchi qalqon bo'lган ro'za ibodatini ado etuvchi ro'zador behuda, xunuk so'zlar so'zlamasin, johillik qilma-sin, ya'ni birovlarga ozor beradigan so'zlarni aytmasin, agar uning o'ziga birovlar ozor beradigan bo'lsa, o'shanda ham sabr qilsin, faqat o'shanday badxulq kishilarga "Men ro'zadorman", deb ikki bor qaytarib qo'ysin. "Ya'ni, sen bilan bunday muomala qilishga mening haqim yo'q, chunki men ro'za ibodatini ado etayotgan odamman", desin".

Demak, ro'zador odam, go'yo namozda turgandek, o'zining har bir harakati, har bir so'zi, insonlar bilan bo'ladigan muomapalarida ibodat ustida ekanligini unutmasligi kerak.

Ro'za tutsa-yu, kishilarga ozor bersa, yolg'on gapisrsa, birovlarni g'iybat qilsa yoki ro'za tutsa-yu, masalan, tijorat paytida odam aldasa, bunday inson ro'za tutgan hisoblanmaydi, albatta. Chunki ro'za insonni poklikka yetaklaydigan ibodat ekan, ibodat ustidagi odam noplak bo'lsa, bunday kishining tutgan ro'zasi Olloh huzurida qabul etilmaydi. Bu haqda ko'p xabarlar Rasululloh tomonidan bizga yetib kelgan.

O'sha xabarlardan biri mana bu: Ikki ro'zador ayol kun yarmidan oqqandayoq hech sabr qilolmasdan, ya'ni ro'zani iftorgacha tuta olishlariga ko'zları yetmay, Rasulullohga odam yuboribdilar. "Biz og'rib qoldik, juda og'ir holatdamiz, ro'zani ochishga ijozat bersinlar", deb iltimos qilishibdi. Bularning mana shunday holatga tushib qolishlariga o'zları sababchi ekanliklari Payg'ambar alayhis-salomga Olloh taolo tomonidan ma'lum bo'lган edi. Ollohnning vahiyasi bilan Rasululloh alayhissalom bu ikki ayolga bir kosani yubordilar va og'izlariga olganlarini qaytarishni buyurdilar. Ikkala ayol qayt qildilar. Shunda ularning og'izlaridan qon va go'sht parchalari chiqdi. Payg'ambar alayhissalom shunda: "Mana sizlarni nima kasal qilgan. Ro'za tutib, Olloh halol qilgan narsalarni yeyishdan o'zingizni tiydingiz-u, lekin Olloh harom qilgan narsa bilan — birovlarni g'iybat qilish bilan mashg'ul bo'ldingiz. Og'izlaringizdan chiqqan go'sht parchalari va qon o'sha sizlar g'iybat qilgan kishining go'shti va qonidir, sizlar ro'zador emassizlar", dedilar.

Demak, tutgan ro'zamiz qabul bo'lishi uchun zimmamizga o'ziga yarasha qator shartlar yuklanar ekan.

Ro'za oddiy parhez emas. U kasal odamning sog'ayishi yoxud semiz odamning ozishi uchun tutilmaydi. Bunday niyatlar bilan tutilgan ro'za — ro'za emas, balki shunchaki bir muolajadir. Ro'za Olloh taoloning roziligi uchun tutilsagina ibodat hisobiga o'tadi.

Ro'za yeish-ichishdan o'zini tiyish, yomon so'zlarni aytmaslik, birovning dilini og'ritmaslik bilangina belgilanmaydi. Balki ro'zadorning ko'zi ham yomon narsalarga tushmasin, Qur'on o'qisin, Olloh ijozat bergen narsalargagina qarasin, uning qulog'i ham harom narsalarni eshitishdan saqlansin. Chunki Rasululloh alayhissalom: "G'iybat qiluvchi bilan g'iybat eshituvchining gunohi barobar", deganlar.

Ro'zaning yana bir hikmati bor. Bu ibodat kishining bir yil davomida ishlab kelgan ichki a'zolarining bir oy dam olishlari uchun ham buyurilgan. Biz bunga ko'pincha e'tibor bermaymiz. Demak, ro'za tutayotgan odam saharlikda hamda,iftorda ro'za tutgani bahona odatdagidan ko'ra ko'proq ovqat yer ekan, bu ham uning ro'zasiga karohiyat yetkazadi. Ya'ni, inson Olloh uchun ro'za tutar ekan, ro'za tutmagan kunlardagi kabi, balki undan-da ozroq taom yesa, to'g'ri bo'ladi. Ba'zilar orasida ro'za paytida dasturxonga qancha ko'p nozu ne'mat qo'yilsa, shuncha savob bo'ladi, degan bema'ni gap yuradi. Bu, albatta, mutlaqo noto'g'ri qarashdir.

"Rasulullohning tutadigan ro'zalari oldida yegan taomni qo'rsangiz u kishi mutlaqo ro'za tutmaydi,

der edingiz, — deydilar Oysha onamiz. — Iftorda yegan taomini qo'rsangiz, yana u kishi ro'za tutmaganmi, deb o'ylar edingiz".

Mana shu hadisdan bizlarga ma'lum bo'ladiki, tushlik qilmayman deb, saharlikda tushlik hisobiga yeyish, iftorda ham tushlik hisobiga yeyish — bu ro'za tutish emas, balki bir oy davomida o'zini yaxshilab parvarish qilish bo'lib qoladi.

Demak, o'zimizning turli xohish-istiklarimizni bir qadar kamaytirgan holda saharlik va iftorlik kilsak, ro'za-mizning Olloh oldida qabul bo'lishiga sabab bo'lar ekan.

Ro'zador bilib qo'yishi lozim bo'lgan yana bir ish bor. Iftor qilib olgandan so'ng, men ro'za tutdim, deb xotir-jam bo'lmasdan, mening gunohlarim yuvildi degan da'volarga o'tmasdan, balki Olloh ibodatimni qabul qilsin, deb kechalarni ham ibodat bilan o'tkazish ro'zadorga yarashadigan ishdir. Bu Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning sunnatlaridandir. Shuning uchun ham Amazoni Sharifda tarovih namozi sunnat bo'lib qolgan, ya'ni, odatda o'qiladigan xufton namoziga yana 20 rakat qo'shilib o'qiladi. Demak, ramazon oyida, imkon qadar kechalarni bedorlik bilan o'tkazishimiz ro'zamizning husni qabul bo'lishiga sabab bo'lar ekan.

— Endi kimlar ro'za tutishdan ozod qilinishi haqida to'xtalsangiz...

— Qur'oni Karimda Olloh taolo marhamat qiladi:

وَعَلَى الَّذِينَ يُطْبِقُونَهُ فِدْيَةٌ طَعَامٌ مِسْكِينٌ

"Ro'zani tutolmaydigan kishilar bir miskinka fidya bersinlar". Ya'ni, ruza ibodati hamma uchun emas, balki uni tuta oladigan kishilargagina farz qilindi. Ro'za tutishga qodir bo'limgan sinflar ham borki, ulardan ro'za soqit bo'ladi. Musulmonlarning orasidagi qari-qartanglar ("shayxi fony"lar deyiladi arablarda), ya'ni nafaqa yoshidagilarning orasida ro'za tutishga qiynaladigan, och yurishga tabiblar tomonidan ruxsat berilmaydigan kasallari bor bo'lgan kishilar agar shu ro'za kunlarida ro'za tutishga qodir bo'lmasalar, bir bechoraga bir kunlik taomni hadya qilsinlar, shunda ular ham ro'za tutganlik savobiga ega bo'ladilar, deyildi. Demak, bundan qari odamlar ro'za tutish o'rniga fidya bersa bo'ladi, degan mazmun chiqadi.

Mana shu o'rinda bir narsaga e'tibor berishimiz lozim. Bizlarda uzoq yillar "namozxon" deganda qariyalar va "masjid" deganda esa faqat nafaqa yoshidagi kishilar yig'ilib namoz o'qiydigan bino tushunilgan. Bularning, hammasi dinimizning mohiyatidan bexabar kishilarning uqtirishlari va balki dinimiz dushmanlarining gaplaridir. Aslida, balog'at yoshiga yetishimiz bilanoq din zim-mamizga vazifalarni yuklaydi. Keksayganimizda esa, hozirgina aytganimizdek, bu vazifalardan ba'zilari zimmamizdan olib qo'yilishi ham mumkin. Demak, dini-mizdag'i barcha ibodatlarni bizlar kuch-quvvatga to'liq yoshimizda ado etib olishimiz lozim ekan. Yeshligimizda, ya'ni ba'zi bir gunoh ishlarni qilishga mayl ham, imkoniyatimiz ham bor paytda Xudodan qo'rqqanimiz uchun savobli yo'lni tanlashimiz ham ibodat bo'ladi. Qarib, gunoh qilishga qodir bo'limgan holatdagana tavbatazarru qilish emas, balki dunyoga berilib ketish xavfi bo'lgan yoshlik yillarida, balog'at yoshida ham gunohdan yuz o'girib, Olloh uchun ibodat qilmoqlik har bir musulmonning vazifasidir.

Nafaqa yoshi 60-55 yoshdan belgilanadi. Shu yoshga yetmaganlar orasida ro'za tutishga imkon bermaydigan xastalikka gariftor bo'lganlar (qo'li yoki oyog'i og'riganlar bunday kasallar sirasiga kirmaydi), ya'ni ayni ichki a'zolari, masalan, oshqozoni og'riganlar, umuman ovqat yemaganligi yoxud suv ichmaganligi tufayli yotib qolishi mumkin bo'lganlar ham ro'zadan ozod qilinadilar. Lekin vaqtincha ozod qilinadilar, xolos. Ya'ni, bundaylar agar ramazon oyida kasal bo'lib qolib ro'za tutishga qodir bo'lmasalar, sog'ayganlaridan so'ng tutib beradilar.

Shuningdek, musofirlar ham ramazon ro'zasini tutishdan ozod qilinadilar. Ya'ni, ramazon oyida safarga chiqqan kishilar safar chog'ida ro'za tutish mas'uliyatidan ozod bo'ladilar, lekin safardan so'ng

qazo bo'lgan ro'zalarini tutib beradylar.

Darhaqiqat ramazoni sharifda ado etiladigan ro'za ibodati - biz mo“min-musulmonlarning katta baxtimizdir. Ichki a'zolarimiznigana emas, balki qalbimizni ham poklab oladigan oydir bu oy. Bu oyda ro'za tutish nasib qilgan baxtli kishilar Rasululloh alayhissalomning va'dalari bilan butun o'tgan gunohlaridan, agar Olloh ularning ro'zalarini qabul qilsa, xoli bo'ladilar.

Rasululloh sallallohu alayxi vasallam marxamat qildilar: "Ro'za tugguvchi uchun ikki shoddik bor. U och, tashna holda kun o'tkazib, quyosh botgandan so'ng kayfiyati chog' bo'lib iftor qiladi, Ollohga shukronalar aytadi. Bu birinchi shod-likdir. Ammo ikkinchi bir shodlik bor ro'zador uchun. U Qiyomat Kuni Parvardigoriga ro'baro' bo'lgandagi shodliqdir".

Mana shu buyuk shodliklar barchamizga nasib etsin.

HAJ

— Muhtaram ustoz, Siz bundan avvalgi suhbatlaringizda dini Islomning asosiy ustunlari bo'lmish "La ilaha illalloh, Muhammadur Rasululloh" kalimasini sidqidil bilan ayit iyomon keltirishni, namozni ado etishni, ramazon ro'zasini tutishni va boylarning kambag'allarga zakot berishini Olloh taolo musulmonlar zimmasiga vazifa qilib qo'yganligi to'g'risida batafsil aytib berdingiz. Endi navbat tabiiy ravishda beshinchi farz — haj ibodatiga keldi. Avvalo, haj safarini ado etish nima uchun farz amallar qatoriga qo'shilganini tushuntirib bersangiz...

— Buning sababini shunday tushunmoq kerak: kishi avvalo "La ilaha illalloh, Muhammadur Rasululloh" deb iyomon keltirish bilan mo“minlar qatoriga qo'shilar ekan, Olloh taolo uning zimmasiga faqat badani bilan, quvvati bilan ado qiladigan namoz ibodatini qo'yadi. Keyin ro'za tutishga quvvati yetadigan, ya'ni salomatligi kifoya kiladigan barcha mo“min-musulmonlar uchun ikkinchi farz qilib ro'za ibodati buyurildi. Bu ham badan ibodatidir. Keyingi farz — zakot ibodati. Bu esa faqat boylarning zimmasidagi moliyaviy ibodat.

Demak, kishi bu ibodatlarni ado qilish bilan o'zida bir chiniqish, tozarish his qilgandan keyin endi Olloh taolo qodir bo'lganlaringiz Mening Uyimga kelib ko'rib, tavof qilib va uning yonidagi Arafot tog'iga chiqib, duolar qilib ketasizlar, deb buyuradi. Lekin bu ibodat hamma boy-badavlat kishilarga ham farz emas. Masalan, kishi boy bo'lsa-yu, lekin salomatligi uzoq safarni ko'gara olmasa unga haj farz emas, yoki salomatligi ham yaxshi bo'lsa-yu, yo'llar ochiq bo'lmasa, bu holatda ham haj farz bo'lmaydi. Haj safarini (ibodatini) ado etishga qodir bo'lish deganda, demak, yo'llarning ochiq va bexatar bo'lishi hamda borguvchining salomatligi tushunilar ekan.

— Nima uchun aynan Baytullohni ziyorat qilish farz qilingan?

— Makkai Mukarramaning markazida, nafaqat Makkaning, balki butun Yer sayyorasining markazida joylashgan Ka'batullohni Olloh taolo bandalar uchun O'zining ilk payg'ambari — hazrati Odam alayhissalomga buyurib qurdirgandir. Bu haqda Ollohning O'zi Qur'oni Karimda:

إِنَّ أَوَّلَ بَيْتٍ وُضِعَ لِلْتَّائِسِ لَذِي بَيْكَةَ مَارَكَ
وَهُدَى لِلْعَالَمِينَ ۚ

"Insonlar uchun ibodat qilsinlar deb bino qilingan birinchi bino Makkadagi binodir — Ka'badir", deb xabar beradi. Makkatullohni barakotli shahar, muborak shahar deb ataydi va butun olamlar uchun hidoyat mayog'i deb sharaflaydi. Demak, Ka'batullohni Odam alayhissalom qurban, unda ibodat

qilgan, surriyotlari ham mana shu uyda ibodat qilgan. So'ngra Nuh payg'ambar davri keldi. To'fon balosi bo'ldi. Butun olam suv ostida qoldi. O'shanda Baytulloh Ollohnning amri bilan osmonga farishtalar orqali ko'tarib olib chiqib ketilgan ekan. Ka'batullohning tepasida — osmonda Ollohnning amri bilan maloikalar olib chiqib ketgan bayt bor, bu baytul ma'murdir. Ya'ni, Obod Uydir. Obodligi shundaki, Nuh alayhissalom davrida osmonga olib chiqib ketilganidan buyon shu kungacha bu uyni maloikalar tavof qilib turadilar. Kunda 70 ming maloika tavof qilib chiqar ekan bu uyni. Hali bir farishta ikki marta tavof qilishga ulgurmagan ekan. Chunki Ollohnning lashkari bo'lgan farishtalarning sanog'i shu qadar ko'pki, ularning hisobini yolg'iz Ollohdan o'zga hech kim bilmaydi.

Keyinroq, o'sha osmonga olib chiqib ketilgan Uyning o'rniga Ollohnning amri bilan hazrati Ibrohim alayhissalom bizlar tavof qiladigan Ka'batullohni bino qilganlar. Bu haqda ham Ollohnning O'zi Qur'onii Karimda:

وَلَذْ بِوَأَنَا لِإِبْرَاهِيمَ مَكَانَ الْبَيْتِ
أَن لَا تُشْرِكُ بِي شَيْئًا وَطَهِّرْ بَيْتَيَ لِلطَّهِيفَينَ وَالْقَاتَعِينَ وَالرَّاعِيْنَ وَالرَّاعِيْنَ وَالسَّجُودُ ⑩

"(Ey Muhammad), eslang, Biz Ibrohimga Baytullohning o'rnini (o'sha uyga qarab ibodat qilishi va uni obod qilishi uchun) belgilab berib (unga shunday degan edik): "Sen menga biron narsani sherik qilmagin va Mening Baytim — Uyimni tavof qilguvchilar, qiyom, ya'ni, namozda tik g'oz turguvchilar, ruku', sajda qilguvchilar (ya'ni o'sha joyda namoz o'qiguvchilar) uchun pok tutgin!" deydi. Shun-day qilib, bu Uyni hazrati Ibrohim alayhissalom o'g'illari Ismoil alayhissalom bilan birgalikda bino qildilar. Qariyb 3500 yillik tarixga ega bo'lgan Baytulloh Ibrohim alayhissalom davridan buyon bir kun ham xoli qol-maydi. Musulmonlar bu joyga hidoyat izlab, Olloh buyurgan farz — hajni ado etish uchun borib turadilar. Bu uyning o'ziga tortadigan mislsiz ohanrabosi, jozibasi bor. Borganlar ko'rghanlar, boradiganlar, inshoolloh, ko'rkarlar.

Oddiygina qora toshlardan bino qilingan, mutlaqo zebi-ziyнати bo'lмаган бу бир sodda uy nimasi bilan butun insoniyatni o'ziga jalb qiladi? Nima uchun shohu gado intiladi o'sha uy tomonga? Nima uchun imkonи borki m-sulmon — hammasi o'sha tarafga bormoqchi bo'ladi? Chunki Olloh taoloning O'zi bu Uyni aziz, muborak qilib qo'ygan. Xudoi taolo Ibrohim alayhissalomga shu uyni qurib bit-kazganlardan keyin, endi odamlarga jar soling, deb buyurgan ekan. Qur'onii Karimda:

وَأَذْنَ فِي النَّاسِ يَا تُوكَ رِحَالًا وَعَلَى كُلِّ ضَامِرٍ يَأْنِيْنَ
مِنْ كُلِّ فِيْ عَيْقَيْ ⑪

"Endi, Ibrohim, odamlar orasida kelib ibodat qilish zarurligini aytib jar soling. Shunda bu Baytullohga yayov hollarida va uzoq-uzoq yo'llardan, so'qmoqlardan, oriq tuyalarga mingan hollarida hamma tarafdan Baytullohning ziyyaratiga odamlar keladilar", deydi Olloh taolo. Ollohnning shu bir og'iz so'zi haq ekanligini borgan odam o'z ko'zlar bilan ko'radi. "Odamlar keladi", deydi Parvardigor va odamlar haqiqatan boradilar. Shuning uchun ham Osmondan o't purkalganiga, oyoq tagidagi toshlar ham yonayotganiga qaramay hamma intiladi o'sha tomonga.

Ana o'sha eski Uyning — Qora uyning obodligini dunyodagi boshqa biron ta "Oq uy" ko'rghan emas, "Sariq uy"lar ko'rghan emas. Chunki ularni Olloh emas, uning gunohkor bandalari qurdirgan.

Baytulloh esa to Qiyomat buzilmaydigan, to Qiyomat butun Yerning markazi bo'lib turadigan joydir. Mana shu muqaddas Uyni ziyyarat qilishni Olloh bizga buyurdi.

Hazrati Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: "Haj — bu qurol-yaroqsiz boriladigan jihoddir",

deganlar. U yerga Xudoga bandalik qilish sharafiga ega kishilar, mo“min-musulmonlar Olloho yo‘lida boradilar.

Namoz o‘qishning o‘ziga yarasha shartlari borligini bilasiz. Namoz pok libosda, pok joyda, Qiblaga yuzlanib o‘qilgandek, haj ibodatini ado etishning ham o‘z shartlari bor. Hajga borganlar butun dunyodan kechib, topgan molu davlatidan, bola-chaqalaridan, hatto vatanlaridan ko‘ngilni uzib, Yolg‘iz Ollohga qasd qilib borishlari kerak. Hajga boradigan kishi xoh shoh, xoh gado bo‘lsin, o‘zining kundalik kiyimlarini yechib, ularning o‘rniga ikkita kafanlik desa bo‘ladigan ehromga, ya’ni bir lungiyu yelkaga tashlab olinadigan ikkinchi matoga o‘ralgan, bosh yalang hollarida Ollohning chaqirig‘iga labbay, deb javob berib chiqadilar. Demak, inson bu ulug‘ ibodatni ado qilish uchun suratda ham boshqa ibodatlardan farqli shartlarga amal qilishi kerak.

— *Ustoz, keyingi yillarda siyosatning o‘zgarishi tufayli haj safarini ado qilish uchun juda keng imkoniyatlar paydo bo‘ldi. Bu yaxshi, albatta. Lekin, safarga otlanganlar orasida onda-sonda bo‘lsada, mazkur ibodatni ado qilishning tartibi to‘g‘risida muayyan tasavvuri bo‘lmaganlar hali uchrab turibdi...*

— Biz bu o‘rinda haj ibodatining qay tarzda ado qilinishi suratlariga ko‘p to‘xtalmasak. Hajga borganlar ibodat davomida ularni o‘rganib boradilar. Savolningizdan kelib chiqqan hajning hikmatlari va hojining zimmasidagi vazifalar haqida gaplashsak.

Hajga borushsh kishi avvalo o‘zining o‘tmishda qilgan xatolari uchun Ollohga tavba qilishi lozim. Chunki haj — Ollohning Uyiga mehmon bo‘lib borishdir. Baxtli insonni Olloh O‘z Uyiga chorlar ekan, u suratida haligiday ehromga o‘ralib borishidan tashqari, vujudida, qalbida ham tozalanib, poklanib, o‘sha Uyning ostonasiga dadil qadam bosa oladigan bo‘lipsh kerak.

Hajga otlangan kishining zimmasidagi ikkinchi vazifa — agar bo‘lsa, qarzlardan qutulib olishdir, hisob-kitob qilib olishdir.

Hajga borguvchi birovlarga ozor berib qo‘ygan, birovlarni g‘iybat qilib qo‘ygan bo‘lsa, ulardan uzr so‘rashi, o‘zidan rozi qilib qo‘yishi lozim. Shu ma’noda ham "hisob-kitob" qilib olish kerak. Demak, ortda qolayotgan kishilarni rozi qilib ketish hajga borguvchining vazifalaridan ekan.

Hajga otlangan inson haj ibodati davomida o‘zi muhtoj bo‘ladigan moliyaviy va boshqa tashvishlarini bekamu ko‘st qilib olishi zarurdir. Aks holda, birovlarga "yuk" bo‘lib qoladi.

Hajga borguvchilar kuzatib qolgovchilardan duo olib ketishlari kerakligini ham qo‘sib qo‘yamiz shu o‘rinda.

Hajga borish Ollohning Uyiga mehmonga borishdir, dedik. Lekin bu mehmonga hech qanday yasan-tusansiz borayotgan ekanmiz, faqat dilimizni poklab, rostlab borishimiz kerak. Safar asnosida sizga hamroh kishilar ham Ollohning Uyiga ketayotgan kishilar ekanligini unutmasligingiz kerak. O‘sha insonlar bilan bir tan, bir jon bo‘lib, hurmat bilan, bir-birlariga odob bilan muomalada bo‘lmoqlik har bir hojining muhim vazifasidir. Mana shu o‘rinda ham, ko‘pincha safar mashaqqatlari bilan charchashlari natijasida bu ulug‘ ibodatni buzib qo‘yish xavfini tug‘diradigan ishlarga qo‘l urib qo‘yadilar. Hajimizning Olloh oldida qabul bo‘lishi uchun muhim omillardan biri muomalalarimizning do‘stona bo‘lishi, safarimiz nihoyatda odob bilan o‘tishidir.

Janob Rasululloh: "Kimda-kim haj ibodatiga borsa, shu ibodat davomida og‘zidan behayo so‘zlar chiqmasa, haj asnosida qilish mumkin bo‘lmagan ishlarga qo‘l urmasa va Olloh buyurgan ibodatlardan isyon qilib bo‘yin tovlamasma, itoat bilan haj qilib ketgan bo‘lsa, mana shu inson uyiga qaytar ekan, onadan yangi tug‘ilgan chaqaloqday begunoh bo‘lib qaytadi", deydilar. Ya’ni haj qabul bo‘ladi — gunohlar yuviladi. Buning uchun hoji nafaqat odamlarga, balki hasharotlarga ham ozor bermasligi, hatto o‘t-o‘lanni ham besabab yulmasligi kerak. Shu qadar beozorlik bilan haj safarini ado qilmoqlik shariatimizning buyrug‘idir.

Mana shunday tarzda Olloh nasib etgan hojilar Ollohning Uyiga kirib boradilar. Bu Uyga kirish nasib bo‘lgan kishilar Ollohning eng baxtli bandalaridir. Bu Uyga boradigan, bu Uyga qo‘shti bo‘lib

turadigan kishilar Ollohnning qo'shnilarini, deb hisoblanadilar. Ollohnning rahmatiga yetganlari shudir. Olloh taolo qo'shnilaringizga ozor bermang, ularga yaxshilik qiling, deb buyurgan ekan, Uzining qo'shnisi bo'lган bandasiga, albatta, yaxshilik qiladi. Bu Uyga yetgan insonlar Ollohdan qanday yaxshilik tilasalar, ijobat bo'ladi.

Baytullohni ko'rganda inson qalbidan o'tadigan hayajon, osmonga bog'lanib turadigan bu Uyga ko'zingiz tushganda qalbingizda paydo bo'ladigan shavq va shuqrona hissiyoti — bu endi faqat o'sha muborak ziyoratgohga borgan kishilar biladigan hissiyotdir.

— *Haj safarini ado etish paytida hoji alohida e'tibor berishi kerak bo'lган amallar to'g'risida bat afsil gapirib bersangiz?*

— Haj ibodatining farzlaridan birinchisi, ehrom bog'lash bo'lsa, ikkinchisi, Baytullohni tavof qilishdir. Arafotdan so'ng hayit qunlari orasida qilingan tavof farz tavofi bo'ladi. Uchinchisi, Arafotdag'i vuqukdir.

Bizning diyorlarimizdan borguvchi hojilar avval umra qiladilar. Keyin Makkating o'zida alohida ehrom bog'lab haj ibodati qilinadi.

Umra niyati bilan borgan kishilar Baytullohni tavof qilishda shunchaki bir aylanib ko'yadigan joy ekan, deb emas, balki qaerga kelib qolganliklarini to'la his qilib tavof qilishlari lozim. Bosib yurgan yerlaringizga, albatta, Rasulullohning ham oyoqlari tekkanini his qilib turishingiz kerak. Rasulullohning sahabalari ham shu yerda yurganini, avvalo Ibrohim alayhissalom shu Uyni bino qilganlarini, u zotdan keyin qancha-qancha payg'ambarlar, avliyouollohlar qadami yetganini va bu joyga sizning ham qadamingiz yetganini tasavvur qilishingiz kerak.

Baytullohni qo'rganda Rasululloh hazratlari shu Makkada tug'ilib, shu Baytulloh atrofida katta bo'lghanliklarini tasavvur qilishingiz kerak.

Baytullohni ta'mirlash chog'ida Uning chetidagi Hajarul Asvat — Qora toshni qo'yib berish sharafi Rasulullohga nasib bo'lgan. Hali payg'ambar bo'lishlaridan 25 yil avval, ya'ni 15 yoshlik chog'larida bu kishining halol-pok, ishonchli kishi bo'lghanliklari uchun hamma Qora toshni Muhammad qo'ysin, degan. Shuni eslash kerak. Bu yerda qancha do'sti Xudolar, avliyouollohlar tavof qilib, yig'lab Ollohnning Uyini aylanib yurganlarini eslash kerak. Shunchaki, odamlarga ergashib aylanib qo'yish bilan maqsad hosil bo'lmaydi. Baytullohga yetgan inson Uni o'ziga yarasha hurmati bilan tavof qilsagina va shundan o'zi ta'sir olsagina tavoflari Olloh oldida qabul bo'ladi.

Hojilarga bir necha qun Makkada yashash nasib bo'ladi. Haqiqiy haj ibodatini ado etaman, degan kishi o'sha kunlarni g'animat bilishi kerak. Tavofdan charchamaslik, charchadim demaslik kerak. Chunki haj — gunohlarimizning yuvi-lishiga sabab bo'ladigan ibodatdir. Hazrati Rasululloh sallallohu alayhi vasallam Madinai Munavvaradagi o'zlarining masjidlari haqida gapirib: "Mening mana shu masjidimda bir bor o'qilgan namoz boshqa masjidlarda o'qilgan mingta namozdan afzal; Baytulloh qarshisida o'qilgan namoz mening masjidimda o'qilgan namozdan 100 barobar yaxshi; Ka'batullohni bir bor tavof qilish esa Baytulloh qarshisida o'qilgan 100 namozdan afzal", deganlar. Demak, har bir tavofdan yuz minglab namozning savobiga ega bo'layotganini har bir hoji his qilishi kerak. Tavof qilib charchalgan daqiqalarda esa Baytullohning ro'baro'siga o'tirib Ka'bani ko'zlarga joylab olish kerak. Ko'ngilga joylab olish kerak. Namozga turgan paytingizda ko'z oldingizga o'sha Ka'ba keladigan darajada joylab olish kerak. Ka'batullohdan tashqaridagi gavjum Makka bozorini, oldi-sotdini boshqa joydan topsa bo'ladi. Lekin Baytullohni boshqa joydan topib bo'lmaydi. Shuning uchun haj arkonlarini bajarib borayotgan kishilar mana shu jihatlardan g'aflatda bo'lmasdan, Baytullohga yetib borganlarini kalban his qilib, har bir soatni g'animat bilishlari kerak.

Baytullohni yetti bor tavof qilganlaridan so'ng, hojilar Safo va Marva tepaliklari oralig'ida yetti marta sa'y qilib yuguradilar. Hozirda bu tepaliklar Haramning ayvoni ostida turadi. Safo va Marva tepaliklari orasi 300 metrlar chamasida. Umraga borganlar ham, haj qilganlar ham Baytullohni tavof qilganlaridan keyin Safo va Marva orasida sa'y qiladilar. Bu o'sha Ibrohim alayhissalom o'zlarining

ayollari Hojar onamizni yangi tug'ilgan chaqaloq bo'lgan Ismoil alayhissalom bilan Ollohnning buyrug'iga binoan tashlab ketgan joylaridir. Bizga Qur'on xabar berishicha, Ibrohim alayhissalom men surriyotimni — ko'zimning oqu qorasini — farzandimni tashlab ketyapman, deb Ollohg'a nolalar qilib tashlab ketgan ekanlar. Hojar onamiz esa farzandiga bir qultum suv izlab o'sha Safo va Marva orasida yugurgan ekanlar. U yoqdan-bu yoqqa yugurib-elib biron qultum suv topolmay, qaytib kelib qarasalar, o'sha yotgan chaqaloqlarining qo'llari ostidan bir buлоq chikib turgan ekan. Bu Zamzam bulog'i edi. Olloh taolo ana shu bandasiga va to Qiyomat haj nasib kilgan mo“min-musulmon bandalariga mana shu buлоqdan serob bo'lish baxtini tuyassar qilgan. Ana o'sha farzandi uchun suv izlagan ona qanchalar qiynalayotgan bo'lsa, o'sha Safo va Marva orasida sa'y qilgan hoji ham shu darajada intilish bilan harakat qilishi kerak. Go'yo Oxirat diyorida — bir taraf Jannatu ikkinchi taraf Do'zax o'rtasida arosatda qolgan odamdek, o'zini u yoqdan-bu yoqqa tashlab, qanday qilib menga Jannat darvozasi ochilar ekan, deb yugurgandek yugurishi buyurilgan.

Mana shunday tarzda tavof va sa'yni qilib bo'lgandan keyin, zamzam suvi ichiladi. Bu suv tavofdan keyin ham, sa'ydan so'ng ham ichiladi. Zamzam bulog'iga kelganingizda siz o'zingizning Ollohnning Uyida ekanligingizni yana bir bor teran his qilasiz. Bu — bir mo“jiza. Mezboningiz Olloh. Ka'ba atrofidagi Masjidul Haramda bir vaqtning o'zida besh yuz ming odam yig'iladi. Ular bir vaqtning o'zida Baytullohni tavof qiladilar. Hojlarning har biri tavofdan so'ng Zamzam bulog'idan suv ichadilar. U buлоqdan alohida-alohida bir necha yuz jo'mrak chiqarilgan, tinmay suv oqib turadi. Lekin har qancha jo'mrak ko'p bo'lmasin, tavof qilayotganlarning sanog'iga nisbatan olinsa, mingta odamga bitta jo'mrak to'g'ri keladi. Mo“jiza shundaki, hech kim o'sha jo'mrak oddiga borib navbat kutib turmaydi. Har bir jo'mrak oldida bitta yoki ikkita odam suv ichib turgan bo'ladi, xolos. Jazirama issiq bo'lishiga qaramay, odamlarda besabrik ko'rmaysiz. Hamma bir-biriga avval siz suv iching, deb iltifot qiladi. Xo'sh, buning boisi nimada? O'zim ham guvohi bo'lgan bu holat meni hayratga solgan edi. Ko'p o'ylab topgan javobim ushbu bo'ldi: darvoqe, biz Ollohnning Uyida meh-monmiz, bu suvni bizga Olloh berayotgan edi. Demak, hammaga suv yetkazish U Zotning qo'lida ekan, millionlab kishilarni bitta buлоqning suvi bilan qondirib kuzatish yolg'iz Ollohnning qo'lidan keladigan ish ekan.

Odatda biror marosim o'tkazmoqchi bo'lgan kishi tadbirining fayzli bo'lishi uchun bir-birlariga muhabbati, hurmati bor kishilarni taklif qiladi. Olloh taolo esa bir-birlarini mutlaqo tanimaydigan kishilarning dillariga shunday muhabbat joylab ko'yadiki, haj marosimining fayzi shu yerda ham ko'rindi.

Tavof asnosida, sa'y asnosida, suv ichish paytida qoqilib tushsangiz, yiqilsangiz darrov kimdir kelib sizni yo'llaydi. U kishini siz shu paytgacha ko'rmagansiz va bundan keyin ham ko'rmaysiz. Faqat Olloh ularning diliga muhabbat solib qo'yanligi tufayli bir-birlari bilan og'a-inidek bo'ladilar.

Ma'lumki, haj ibodati Arafot kunidan boshlanadi. Arafa kuni, Qurbon hayitidan bir kun avval Arafot tepaligida musulmonlar hozir bo'lib turadilar. Bu endi ajib bir holat — naqd Qiyomat. Ma'lumki, har yili bir necha million odam haj qiladi, shuncha odam o'sha Arafot tepaliklarida bir vaqtning o'zida turadi. Hammalari bir xil libos ehromda. Yoningizdag'i hoji shohmi yoki cho'pon ekanligini bilmaysiz. Inson sifatida hammaning teng ekanligi mana shu joyda ko'rindi. Qiyomat Kuni Ollohnning amri bilan Marhumlar tirilib, qabrlaridan chiqib Parvardigorning huzurida qanday to'plansalar, Arafotda ham shunday to'planadilar. Mana shu Arafotdag'i holat xususida Rasululloh hazratlari: "Bandalarning bu holatidan Olloh taolo osmondag'i farishtalarga maqtanadi", deydilar. Ya'ni, Olloh taolo osmondag'i lashkarları bo'lgan maloikalariga O'zining amri bilan "Labbayka, Ollohumma labbayk", ya'ni "Ey Ollohim, nima xizmating bor", — deb kelgan yerdagi insonlarni ko'rsatib aytar ekan: "Ey maloikalar, ko'rib qo'yinglar! Sizlarni men nurdan yaratganman. Sizlar men xohlagan yerga nur tezligida yetib borish imkoniyatiga egasizlar. Ammo Men tuproqdan yaratgan bu bandalarim dunyoning hamma taraflaridan qiynalib, Mening rizoligimni istab keldilar. Mana bu yerda Menga qo'llarini cho'zib iltijolar qilyaptilar. Inson zotini yerdagi xalifam qilib adashmaganimni bilib qo'yingdar. Men uchun jonlarini fido qiladigan bandalarim bor", deb maqtanar ekan farishtalarga. Va

yana: "Ey maloikalar, guvoh bo'linglar! Mana shu yerda Mendan umidvor bo'lib turgan har bir insonning gunohlaridan o'tdim", der ekan. Shu soatda astoydil Olloh uchun haj qilgan inson, Xudodan nola qilib so'ragan inson, albatta, gunohlaridan tozalanib, ahli jannat ichiga kirib qolarkan. Bunga Olloh taolo O'z farishtalarini guvoh qilar ekan. Mana bu Arafotdag'i holat, uni ham g'animat bilish kerak. Mana shu holatda inson: "Mana, yelkamdag'i kafanim bilan bu Qiyomatga hozir bo'lib turibman. Ammo, Olloh xohlasa, bir imkoniyatim — qaytib ketish imkoniyatim bor. Demak, keyingi hayotimni tavba-tazarru va yaxshi amallar bilan ado qilish imkoniyatim bor. Biroq, ikkinchi — chinakam Qiyomat Kunida endi qaytib ketish imkoniyati menda bo'lmaydi", deb o'ylab, o'zi uchun to'g'ri xulosa chiqarib olishi lozim. Shu yerdan ibrat olgan baxtli inson Arafotdan tushgandan keyin o'tmishdag'i noto'g'ri yo'llariga chek qo'yib, Yolg'iz Ollohning yo'lini tanlab oladi. Chunki, birinchidan, u barcha gunohlaridan xorij bo'ladi, ikkinchidan, Qiyomat holatiga o'zi guvoh bo'ladi.

Mana shu holatda Arafotdan tushib, endi Muzdalifa degan joyda qolish va ertasi — Qurbon hayiti kunidan boshlab shaytonga tosh otish marosimi bor.

Barcha marosimlar bitganidan keyin esa Baytulloh bilan xayrashib, janobi Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning shaharlari bo'lgan Madinai Munavvaraga boriladi va Rasulullohning masjidlari ziyorat qilinadi. Bu qanday baxtki, oddiy bir musulmon inson Ollohning so'nggi payg'ambari, sevikli habibi Muhammadning yoniga boradi. Bu Zoldan necha ming chaqirim narida yashaydigan, bu Zoldan bir ming to'rt yil keyin hayot kechirayotgan kishi "Assalomu alaykum, yo Rasululloh", deydi. Bunday deyish baxti hojilarga nasib qiladi, "Assalomu alaykum, yo Rasululloh", deb, keyin o'zidan salom yuborgan qarindosh-urug'larining va boshqa musulmon yurtdoshlarining salomini ham u ulug' Zotga yetkazib, so'ngra o'sha joyda — Payg'ambar alayhissalomning masjidlarida namoz o'qish bilan har bir hoji o'z vazifasini ado qilgan bo'ladi.

Ollohning marhamati bilan yurtdoshlarimiz ham ulug' haj safariga chiqishga imkon topyaptilar. Buning qadriga yetishimiz kerak.

Haj — shunchaki o'ynab keladigan, ko'rmagan joylarni ko'rib keladigan sayohat emas. Balki poklanib keladigan, Ollohning da'vatiga binoan qilinadigan Ulug' Safardir. Demak, bunday safarga borayotgan kishilar faqat o'zlarinigina o'ylasalar to'g'ri bo'lmaydi. Har bir hoji o'z yurtining, vatanining vakili hamdir. Mana shu jihat ham hojilarimizning shuurida doimo turishi kerak.

Haj safari Olloh taoloning amri bilan butun yer yuzidan keladigan musulmonlarning yillik yig'inidir. Bir tasavvur qiling, bu ish hech qanaqa podshohning qo'lidan kelmaydi. Hech qanday qo'mondon o'zining harbiylarini bu darajada yig'a olmaydi. Yig'sa, boshqara olmaydi. Faqat podshohlarning podshohi bo'lgan Ollohning O'zi boshqara oladigan ishdir bu.

Bu yerda musulmon inson Ulug' dini Islomning qaerdan tarqaganini, Olloh Uyining qay darajada obod Uy ekanligini qo'radi. Jazirama sahroda joylashgan Makkaga kirib kelayotgan odamlar oqimi dunyoning boshqa bironta ham eng go'zal go'shalariga yetib bormasligi aniq ekanligini his qiladi. Bu yerda musulmon odamning qo'ngli tog'day ko'tarilib ketadi. Uz vatanida parchalanib, bo'linib, birlarini tushunmay yurgan musulmonlarni ko'rib ancha g'am-tashvishga tushib qolgan iymonli kishi bu yerda millionlab musulmonlarning borligini, bir safda turib ibodat qilganliklarini ko'radi. Biz musulmonlar qanchalar katta quvvat ekanligimizni, Ollohning dini yashayotganini biladi, yer yuzining har bir joyida musulmonlar borligini o'z ko'zi bilan ko'radi. Demak, Haj ibodatini ado etish baxtiga muyassar bo'lgan kishi bu Ulug' Safardan o'zgarib kelishi kerak. Payg'ambar alayhissalom: "Olloh nazdida maqbul bo'lib, qabul bo'lgan hajning belgilaridan biri — kishi hajga borib kelganidan keyin avvalgi holatidan yaxshiroq bo'lib qolgani, Olloxdan qo'rqadigan, pokizaroq, taqvoliroq bo'lib qolganidir", deb marhamat qilganlar.

— *Suhbatingizni haji qabul bo'lgan kishining maqomi qanday bo'lishi haqidagi fikrlar bilan yakunlasangiz.*

— Bu xususida buyurdilarki: "Olloh huzurida qabul bo'lgan hajning bitta jazosi borki, u ham bo'lsa

Jannatdir". Ollohnning rasuli bizlarga va'da kilyaptiki, Xudo uchun haj qilgan, hajning arkonlarini Olloh taolo buyurganidek ado qilgan va hajdan keyin Olloh buyurgan yo'lda pokizalik bilan hayot kechirgan insonning mukofoti Jannatdar. Demak, Ollohnning Uyidan quruq qaytilmaydi. Olloh O'z mehmonlarini quzatar ekan, Jannatimga musharraf bo'lasan, degan va'da bilan kuzatadi. Haqiqiy saodatmand banda esa o'zining qilgan haj ibodati uchun Yaratgan tomonidan berilgan bu buyuk va'dani bosh ustida tutib, qolgan hayotini Janobi Haq rozi bo'ladigan amali solihlarga bag'ishlaydi. Barchamizga mana shunday baxt nasib etgay.

SUDXO'RLIK

— Muhtaram ustoz, bugungi suhbatingizni sudxo'rlik masalasiga bag'iiishsangiz?! Ilgari, sho'rolar zamonida, bu so'z deyarli lug'atlarimizdagina uchrar, chunki so'z va uning zamiridagi tushuncha bor edi-yu, lekin "sudxo'rlik" ijtimoiy hodisa sifatida ko'zga tashlanmas edi. Iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar isloh qilinayotgan keyingi yillarda pul nafaqat tovar uchun to'lov vositasi, balki pul ishlaydigan qurolga ham aylanib qoldi. Natijada, jamiyatimizda birov larga ustama foiz evaziga pul berib, ana o'sha ustama evaziga yashaydiganlar qatlami — sudxo'rlar qatlami paydo bo'ldi. Mana shu hodisaga — sudxo'rlik hodisasiga shariatimizning munosabati qanday?

— O'ktambek, siz chindan ham bugungi kunimiz uchun dolzarb bo'lgan, musulmon birodarlarimiz tafsilotini bilib qo'yishi va bilgandan so'ng unga amal qilib yashashi lozim bo'lgan masalani o'rtaga tashladingiz.

Haqiqatan ham, keyingi yillarda bozor iqtisodiyoti degan zamon boshlanib, hamma narsa pul bilan o'lchanadigan, kupchilik faqat pulni, iqtisodni o'ylaydigan bo'lib qoldi. Bu endi bir o'tish davridir. Inshoollo, hamma narsa o'z joyiga tushib qolar. Ammo bu zamonning taqozolaridan biri — har qanday kasb-hunar bilan shug'ullanishdan qat'iy nazar, hamma pul muomalasiga mubtalo bo'ladigan bir holat ekan; kishilar o'zlarini tijoratga urishga haddan ortiq berilib ketdilar. Bu ish qo'lidan keladiganlar ham, kelmaydiganlari ham. Ba'zilar boshqa hunarlari yo'qligidan o'zlarini tijoratga uryaptilar. Bundaylar orasida avval bir stolni egallab o'tirish bilan bemalol bola-chaqa boqqan kishilar ham bor. Amal kursisidan ajrab qolgach, nima qilar edi? Unga ham tijorat oson ishdek ko'rinib ketmoqda-da...

Tijorat bilan shug'ullanish uchun birlamchi mablag' kerakligi ikki karra ikki — to'rtdek ma'lum hakiqat. Mablag' esa har kimda ham mavjud emas. Shu sababli kishilar ayrim foizlar evaziga pulni ko'paytirib qaytarish sharti bilan qarzga pul olmoqdalar. Afsuski, shu yo'l bilan tijoratni o'nglab olmoqchi bo'lganlarning ko'pchiligi "sinib", o'zlarining vatanlari — uylaridan, ozmi-ko'pmi mulklaridan judo bo'lmoqdalar. Ayrimlar esa og'ir fojialarga ham giriftor bo'lmoqdalar. Ya'ni, sudxo'r dan olgan pul foiz hisobiga ko'payib ketganligi tufayli uni vaqtida to'lay olmay, o'z joniga suiqasd qilganlar haqida ham, ming afsuski, eshitib turibmiz,

Mana shunday noxush holatlarning hammasiga sabab biz Ollohimizning buyrug'iga itoat qilmasligimizdir. Musulmon degan inson Ollohnning amru farmonlariga to'la itoat qilsa, bu muammolar o'z-o'zidan yo'q bo'lar edi.

Olloh taolo o'zining Qur'onida sudxo'rlikning harom ekanligini bayon qilgan. "Baqara" surasining 275-oyatida Parvardigorimiz marhamat qilib, mana bunday xabar beradi:

الَّذِينَ يَأْكُلُونَ الْرِّبَوْا لَا يَقُولُونَ إِلَهٌ كَمَا يَقُولُونَ الَّذِي يَخْبُطُهُ الشَّيْطَانُ مِنْ
اللَّهِسْنَ ذَلِكَ بِأَنَّهُمْ قَالُوا إِنَّمَا الْبَيْعُ مِثْلُ الرِّبَوْا وَأَحَلَ اللَّهُ الْبَيْعَ وَحْرَمَ الرِّبَوْا
فَنَجَاءَهُمْ مَوْعِظَةٌ مِنْ رَبِّهِ فَأَنْتَهُمْ فَلَمْ تُؤْمِنُوا مَسْلَفًا وَأَمْرُهُمْ إِلَى اللَّهِ وَمَنْ عَادَ
فَأُولَئِكَ أَصْحَابُ الْكَتَارِهُمْ فِيهَا خَلِدُونَ ﴿٧٦﴾

"Sudxo'r bo'lgan kishilar Qiyomat Kunida qabrlaridan turmaydilar. Magar jin chalgan majnun kabi turadilar". Ya'ni Qiyomatda, kimning kim ekanligi oshkor bo'ladigan, Olloh oldida kofirlar, dinsizlar, munofiqlar sharmanda bo'ladigan Soatda Olloh taolo o'sha jazolanuvchilarning suratlarini ham o'zgartirib, boshqalar oldida ularning kim ekanligini shundoq qo'rinish — bilinib turadigan holatda tiriltirar ekan. Do'nyo va Oxirat Egasi bo'lgan Olloh taolo sudxo'rlikning Qiyomat Kunidagi holatlaridan bizga xabar beryaptiki, ular jin urgan majnun kabi turadilar, bunga sabab, ularning: "Bay — oldi-sotti ham sudxo'rlikning o'zi-ku", deganlaridir. Ya'ni, bay bilan sudxo'rlikning farki yo'q, deganlari uchun shu jazoga mustahiq bo'ladilar. Holbuki, Olloh bayni halol, sudxo'rlikni harom qilgan.

Bas, kimga parvardigoridan nasihat yetgach, sudxo'rlikdan to'xtasa, u holda avval o'tgani o'ziga va uning ishi Olloh taologashg hukmiga havola qilinadi. Ya'ni, sudxo'rlikning harom ekani xususida Yaratgan Parvardigorimizning hukmini bilgandan so'ng, mana shu harom ishdan to'xtagan kishilarga Olloh taolo bundan avval qilgan xatolaringiz kechiriladi, buyog'iga halol bo'linglar, deb yo'l beradi. Demak, "O'zi xohlasa afv qilar va kim sudxo'rlikka qaytsa — o'shalar jahannam egalaridir va unda abadiy qolajaklar. Olloh sudxo'rlikning foydasini yo'q qiladi va sadaqalarning foydasini ziyoda qiladi". Ya'ni, ba'zi bir sudxo'rlar olayotgan foizlari bilan boyib ketyapman, deb o'ylaydilar, lekin atrofga qarasalar, ko'p holatlarda mana shunday harom yo'l bilan boyigan odamlar bir kunda hamma narsadan mosuvo bo'lib qolganlariga tarix va shu qunimizda behisob misollar bor. Sudho'rlikning foydasi yo'q bo'ladigan foydadir, deydi Olloh taolo. Ammo qo'lida bor odamlar yaxshiliklar qilsalar, birovlarga sadaqotlar qilsalar, ularga o'sha sadaqotlari evaziga yaxshiliklarni, boylikni ziyoda qilishini mehribon Ollohimiz va'da qiladi.

"Olloh har qanday sudxo'rlikni halol, deb biladigan ko'rnamakni va sudxo'rlik kiladigan jinoyatchini sevmaydi". Mana shu oyatlardan ma'lum bo'ladiki, sudxo'rlik dinimizda qaytarilgan, harom qilingan ish ekan. Yana bir oyati karima:

يَأَيُّهَا الَّذِينَ إِيمَنُوا إِذْ قُوْمٌ
أَللَّهُ وَدَرُوا مَا بَقِيَ مِنْ آلَرِبَوْا إِنْ كُنْتُمْ مُّؤْمِنِينَ ﴿٧٧﴾

Ey mo“minlar, Ollohdan qo'rqingiz. Va agar chindan mo“min bo'lsangizlar sudxo'rlik sarqitlarini tark qilingiz. (Ya'ni, odamlarga bergan qarzlaringizdan chiqadigan foydani olmangiz)" (Baqara surasi, 278-oyat.)

Mana bu dinimizning naqadar mukammal ilohiy din ekanligiga ochiq dalolatdir. Demak, sudxo'rlik insonga bu dunyoda ham, Oxiratda ham foya bermas ekan. Aksincha, sharmanda qilar ekan.

— *Sudxo'rlik nima sababdan harom qilindi? Axir bir qarashda birovga tijorati yurishib ketsin uchun pul berib, ya'ni, yaxshilik qilib, qilgan yaxshiligi evaziga avvaldan kelishib qo'yilgan foydani*

olish mantiqqa ham,adolatga ham to‘g‘ri keladi-ku?

— Buning hikmatini yolg‘iz Ollohnning O‘zi biladi. Lekin masalaning inson aqli ham yetadigan jihatlari bor, albatta. Masalan, kishi yo aqliy va yoki jismoniy mehnat qilsa va o‘sha mehnati evaziga birovdan haq olsa o‘sha olingen haq, albatta, halol hisoblanadi. Lekin, aksincha, hech qanday mehnatsiz birovning narsasini olsa, bu o‘g‘rilik bilan barobardir, haromdir. Sudxo‘r ham bergen 10 so‘mini 11 so‘m qilib olar ekan, o‘sha bir so‘mni mehnatsiz olayotgan bo‘ladi. Lekin, shuning muqobilida qarzni halol berib, qancha bersa, shuncha qaytarib olsa — Olloh huzurida katta ajrlarga musharraf bo‘ladi, chunki bir ojiz odamni qo‘llagan bo‘ladi. Olloh taolo ham uni qiyin soatda qo‘llaydi, madad beradi. Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi vasallam ham: "Innaloha ma‘d-dayin", ya’ni, "Olloh taolo qarz berguvchilar bilan birga bo‘ladi, ularni baloi-qazodan asraydi", deganlar. Demak, halol qarz berguvchilar — foyda evaziga emas, savob evaziga qarz berguvchilar katta savobga ega bo‘ladilar. Pulni mehnatsiz ko‘paytirishni o‘ylaydiganlar harom ish qilgan bo‘ladilar. Buning oqibati qanday bo‘lishini yuqorida aytdik.

Demak, sudxo‘rlik jamiyat uchun ham, har bir shaxs uchun ham juda ziyonli ish ekan. Bu ish bilan bilmaganlik oqibatida shu kungacha shug‘ullangan kishilar bu ishdan tiyilsinlar, Olloh oldida gunohlari mag‘firat bo‘lib, kechirilishlariga, inshoollo, erishadilar.

— *Kezi kelganda yana bir muhim narsa haqida aytib o‘tsangiz. Sudxo‘rlik dinimizda qaytarilgan ish ekan, sudxo‘r Olloh taolo oldida gunohkor bo‘lar ekan. Lekin o‘sha sudxo‘rdan qarz olguvchilarchi? Ular gunohkor bo‘lmaydimi?*

— O‘rinli savol. Sudxo‘rlardan qarz olgan kishilar ham harom ish qilgan bo‘ladilar. Ya’ni, o‘sha sudxo‘rning sudxo‘rlik qilishiga sharoit yaratib bergen bo‘ladilarki, ular ham Olloh huzurida o‘sha sudxo‘r bilan barobar gunohkor bo‘ladilar. Demak, biz shariatimizning mana shu ko‘rsatmasiga amal qilsak, jamiyatimizda ancha tozalanish, pokizalanish, har xil kutilmagan fofia va ofatlardan xalos bo‘lish imkoniyati, inshoollo, vujudga keladi.

KO‘PXOTINLIK

— *Ustoz, xabaringiz bor, 90-yillarda mamlakatdagi siyosat, iqtisodiy munosabatlar o‘zgarib ketishi tufayli kishilar moddiy ta‘minot darajasiga ko‘ra tabaqalanib qoldilar. Aholining bir qismi boyib, ko‘pchilik qashshoqlashib ketdi. Millatdoshlarimiz orasida ham yangi boylar talaygina. O‘zbekdan chiqqan yangi boylarning ko‘pchiligi pulini taxminan mana bunday ishlatadi: eski uyini buzib, uning o‘rniga yangisini soladi (bu uy, albatta, hind kinofil‘mlaridagi uylarga o‘xhashi shart): "Moskvich "ini sotib, "Mersedes " oladi; va albatta, xotini ustiga yana bitta xotin oladi. Natijada, ilgari oddiy sovet injenerining baxtli xotini bo‘lib yurgan ayolga bugungi kunda yegani oldidayu yemagani ortida bo‘lgani bilan, kundoshi borligidan yegan luqmasi tatimaydi.*

Ma’lumki, dinimiz ko‘pxotinlikka ijozat beradi. Demak, bu ijozatning tagida muayyan hikmat bor. Bugun mana shu xususda aytib bersangiz...

— Qur’oni Karimdagagi 176 oyatdan iborat bo‘lgan to‘rtinchı sura katta suralardan biridir. Va u "Niso", ya’ni "Ayollar" deb ataladi. Mazkur sura ayollarga — onalarimiz, opa-singillarimiz, qizlarimiz, ayollarimizga taalluqli masalalar bayon qilingani uchun ham shunday atalgan. Demak, bu surada oila masalalari ham bayon qilingan.

"Niso" surasining uchinchi oyatida Olloh taolo marhamat qilib aytadi:

وَإِنْ خَفِّمْ أَلَا نُقْسِطُ وَفِي أَيْسَمْ
فَأَنْجُوا مَاطَابَ لَكُمْ مِنَ النِّسَاءِ مَشْنَى وَثُلَاثَ وَرْبَعَ فَإِنْ خَفِّمْ أَلَا
تَعْدِلُوا فَرِحَةً أَوْ مَالَكَتْ أَيْمَانَكُمْ ذَلِكَ أَدْنَى أَلَاتَ عَوْلَوْا ①

"Agar yetim qizlarga adolat qila olmaslikdan qo'rqsangiz, sizlar uchun nikohi halol bo'lgan ayollarga ikkita, uchta, to'rttadan uylanaveringlar. Endi agar (ular orasida) adolat qila olmasliqdan qo'rqsangiz, bir ayolga (ulyaning) yoki qo'l ostingizdagi cho'ri bilan (kifoyalaning). Mana shu jabru zulmga o'tib ketmasligingizga yaqinroq ishdir".

Bu Ollohimiz kalomining tarjimasi edi. Kamina mazkur oyati karimani quyidagicha izohlagan edim: (Gap ustoz Alouddin Mansur tarjimasida o'zbek tilida chop etilgan Qur'oni Karimdaga tafsir — izoh ustida ketmoqda — O' K.)

"Ulamolar mazkur oyatni quyidagicha tafsir qiladilar: "Shariat hukmicha ota-onadan ajrab, yetim bo'lib qolgan qizni o'z qaramog'iqa olgan odam u qizga uylanishga haqqi bor. Lekin, odatda, bunday hollarda ko'pincha qizning haqqi — mahrini to'la to'kis qilib bermay, arzon-garov uylanib olish payiga tushiladi. Shuning uchun Qur'on yetim qizlarning haqqini ado qila olmaslikdan qo'rqsangiz, Sizlar uchun nikohi halol bo'lgan ayollarga ikkita, uchta, to'rttadan uylana-veringlar, deb ruxsat beradi va darhol u xotinlar o'rtasida adolat qilish shart ekanini ta'kidlaydi. Qolaversa, Islomdagi bu qonun Qur'on nozil bo'lgan davrda keng tarqalgan ko'pxotinlikni tartibga solish uchun joriy qilingan edi. Chunki, Islom kelishidan ilgari bir erkak qo'li osida o'nlab ayollar har qanday haq-huquq, adolat va hurmat-e'tibordan mahrum bo'lgan holda kun ko'rар edilar. Islom kelgach, bu sanoq eng ko'pi to'rtga bo'lishi mumkinligi va albatta, o'rtada adolat barqaror bo'lishi shart ekanligi qonun qilindi. Lekin, baribir, hakli suratda shunday savol tug'iladi: modomiki, adolat murod ekan, nima sababdan bir erkakka faqat birgina ayol bilan turmush qilish amr etilmadi? Islom ulamolari bu savolga shunday javob qiladilar:

Ma'lumki, Islom voqeiy dindir. Ya'ni, u insonni pokiza hayot kechirishiga da'vat qilishda g'ayrivoqeiy yo'llarni tutmaydi. Binobarin, bu qonunda ham voqeiy, insoniy hayot nazarda tutilgan. Birinchidan, asrlar davomidagi tajribalar ko'rsatishicha, o'g'il boladan ko'ra qiz bola ko'proq tug'iladi; ikkinchidan, ayol kishi erkak kishidan ko'ra uzunroq umr ko'rishi ham voqeiy haqiqat; uchinchidan, turli fojialar, xususan, urush va to'qnashuvlarda, asosan, erkaklar halok bo'ladi.

Mana shu va yana boshqa ko'p sabablar natijasida ayollarning sanog'i erkaklarning sanog'idan ko'proq bo'ladi, demak, bir erkak faqat bir ayolga uylanishi mumkin deyilsa, erkak sanog'idan ortib qolgan ayollarga zulm qilingan bo'lur edi. Ya'ni, bu ayollar o'zlarining turmush qurish va ona bo'lish huquqlaridan mahrum bo'lib qolar edilar. Natijada, jamiyatda nopolik va maishiy buzuqlik yuzaga keladi. Shuning uchun Islom moddiy imkoniyatlari bo'lgan kishilarga agar adolat qilishning uddasidan chiqsalar, birdan ortiq ayol bilan turmush qurishga ruxsat beradi. Va shu yo'l bilan birga ayollar o'rtasida adolat qilmay, faqat shahvoniy nafsi qondirish uchungina ko'p xotin olishga ruju qo'ygan kimsalar uchun Oxiratda ashaddiy azob borligi haqida ogohlantiradi. Demak, yuqoridaga oyati karima o'rtaga tashlangan savolga to'la-to'kis javob berar ekan.

Lekin biz zamondoshlarimizning saviyalaridan, diniy bilimlarga qanchalik omil ekanliklaridan xabardor bo'lgan kishi sifatida yana qo'shimcha qilib aytishimiz kerakki, haqiqatan shariatimiz birdan ortiq xotin olishga ijozat beradi. Biz bu ijozatning hikmatlarini tafsirimizda bayon qilganmiz. Lekin yana shuni ham bilib olishimiz kerakki, birdan ortiq ayolga uylanish jamiyatni toza tutishga va har bir insonni — xoh ayol, xoh erkak bo'lsin, harom yo'ddan qaytarishga hamda yetim farzandlarga ota yoki ona bo'lib tarbiya berishlariga xizmat qilsa, demakki, insonlarni, xususan, bolalarni tarbiyalashga, jamiyatning yaxshilanuviga, intizomga tushuviga xizmat qilsa — bu holatda, albatta, bu hukm har qanday jamiyat uchun zarur hukmdir.

Lekin, ba'zilarning shunchaki bir ko'ngilxushi uchun, puldorligi yoxud mansabdorligi sababli o'zining ko'z ochib ko'rgan ayoliga, farzandlariga beparvo bo'lib, boshqa bir ayolga maxfiy suratda uylanib olib, "Bu — shariatning ijozati", deyishlari, aslida, shariatga amal qilganlik emas. Bundaylar shariatimiz qaytargan ishni qilgan kishilar bo'ladi. Chunki Qur'oni Karimda Olloh taolo: agar adolat

qila olmasanglar, bitta bilan kifoyadaninglar, deb ta'kidlaydi. Adolat qilmoqlik shu qadar zarur ishki, go'yo ikki xotin egasi bo'lgan kishining butun vujudi ikkiga bo'linadi. Har ikkala ayolga ham barobar ko'z bilan qarash zarur bo'ladi. Ko'z ochib ko'rgan ayolini farzandlari bilan tashlab yoshroq ayolga ketib qolish Islomga zid ishdir. Yoki birovni o'z nikohiga olib, so'ng uni bir shar'iy nikohidagi ayol kabi emas, balki harom o'ynash kabi maxfiy tutib, biri bilan oshkora va boshqa biri bilan pinhona hayot kechirish shariatga ham, ado-latga ham zid amallardandur. Chunki kichik ayol ham men falonchining oilasiman, deb ayta olishi uchun bu narsa el oldida ma'lum bo'lishi kerak. Shuning uddasidan chiqolmagan kishilarning ikkinchi xotinga uylanishlari ularning gunohkor bo'lib qolishlariga sabab bo'ladi. Ammo,adolat qila olgan kishilarga shariatimiz ijozat beradi. Biz oilaviy turmush masalasidagi mana shu o'ta nozik jihatni yaxshi bilib olishimiz kerak.

Keling, suhbatimiz boshida biz eslagan oyati karimaga yana bir bor qaytaylik. Toki undagi ba'zi bir tushunchalar kitobxon uchun mavhum bo'lib qolmasin: "Agar yetim qizlarga adolat qila olmaslikdan qo'rqsangiz, Sizlar uchun nikohi halol bo'lgan ayollarga ikkita, uchta, to'rtgadan uylanaveringlar". Demak, shu oyati karimaning hukmi bilan qodir bo'lgan va adolat qila oladigan kishilarga ijozat bo'ladi.

Endi yetim qizlar xususida. Masalan, ota-onasidan kichikligidayoq yetim qolgan qizni bir oila o'z tarbiyasiga olar ekan va bu oila o'sha qizga yaqin qarindosh bo'lmasa, qiz uchun bu oila a'zolari nomahram sifatida qoladi. Kizni tarbiya-lagani uchun bu oila Olloh oldida ko'p savobga ega bo'ladi, lekin mahramga — o'z farzandiga aylanib qolmaydi. Shu sababdan o'sha yetim qiz balog'at yoshiga yetgandan keyin o'z qaramog'iga olgan oila boshlig'inining taqdir taqozosi bilan bu qizga uylanishiga shariat ruxsat beradi va, albatga, mahrularini to'la bershpga buyuradi. Lekin kiz o'zining qo'lida bo'lgani uchun uning mahrini bermasdan, adolat qilmasdan uylansa, gunohkor bo'lishini Olloh bizga xabar qiladi. Ya'ni, begona-ni olgandek mahrini to'la ado qilishga buyuradi.

— Yuqorida yana: "Yoki qo'lingizdag'i cho'rilar bilan kifoyalaning", degan jumla ham o'tdi...

— Qur'oni Karim nozil bo'lgan zamon quidorlik davri edi. Bu ana o'sha zamondagilar uchun bo'lgan murojaat edi. Hozir quidorlik zamoni bo'limgani uchun, tabiiyki, cho'rilar ham yo'q. Islom kufr bilan, boshqa dindagi odamlar bilan jihad-g'azotlarda asir olinadigan kishilarning erkaklarini qul, ayollarini cho'ri qilib olishga ijozat berar edi. Chunki asirga tushib qolgan musulmonlarga ham dushmanlar shunday munosabatda bo'lar edilar. Hozir esa cho'rilar haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Xulosa shuki, ko'pxotinlikni harom deyishga bizning huquqimiz yo'q Chunki Qur'on bu ko'rsatmani ochiq bayon qildi. Lekin ijozat berishda nihoyatda ehtiyyot bo'lish lozim. Men bir xotindan ko'proqka uylangan va ular o'rtasida adolat qilmaydigan ayrim kishilarga achinaman. ularning juda ko'pchiligi adolat qila olmaganligi, ya'ni birini oshkor, birini maxfiy tutish bilan Ollohning oldida gunohkor bo'lmoqdalar.

Hazrati Rasululloh sallallohu alayhi vasallam marhamat qilib: "Kimning birdan ortiq ayoli bo'lsa va shu ayollar o'rtasida adolat qilmasdan turmush kechiradigan bo'lsa Qiyomat Kunida o'sha insonning yarmi qaytib tiriladi, xolos, yarmi yo'q bo'ladi", dedilar. Bu Oxiratdagi sharmandalik — qattiq azobdir. Shuning uchun adolat qila olish qo'lidan kelmaydigan kishilar ko'pxotinlik masa-lasida o'yabroq qadam bossalar to'g'ri bo'ladi.

MAZHAB

Mazhab masalasi keyingi yillarda kishilar og'zidan tushmasdan, ko'pchilik tolibi ilmlar, ahli ilm, ahli ibodat o'rtasida ayrim tushunmovchiliklarga sabab bo'layotgani sir emas. Bizlar mazhab masalasi haqida ajdodlarimizdan davomli ravishda asrlar davomida o'rganib, odatlanib kelgan yo'limiz naqadar Qur'onusi hadisga muvofiq ekanini bilganimiz uchun gapiramiz. Kishilarning mazhabga bee'tiborligi ularning mazhab o'zi nima, asoschilari kimlar ekanligini bilmaganliklaridandir, ya'ni jaholatdandir.

Dini Islom Ollohnning komil va so'nggi dinidir. U bizga, butun Insoniyatga to Qiyomat o'zgarmay amal qilish uchun yuborilgan dindir. U ma'lum bir mintaqadagi bir millat yoxud bir qavmga bir muddat amal qilish uchun yuborilgan din emas. Dinimizning buyukligi, uning boshqa dinlardan farqi ham mana shundadir.

Demak, ana shunday ulug' va butun Olamni qamrab oladigan Ollohnning so'nggi va barkamol dini — dini Islomni qabul qilgan kishilarning qavmlari ham, tillari ham, zamonlari ham, makonlari ham xilma-xilligidan kelib chiqib, bu yerlarga dinni yetkazib kelgan kishilarning ta'limotlariga asosan diniy amallarini ado etarkanlar, ana shu amallarda bir mintaqadagi musulmonlarning amallari ayrim masalalarda boshqa mintaqadagi musulmonlarning amallaridan farqli bo'lib qolishi mumkin. Va bu narsa dinimizning kengligi, Olloh taolonning siz va bizga bergen katta ne'matlaridan biridir. Chunki dini Islom Olamga yoyilishi bilan, butun olamdagи kishilarning amal qilishi uchun har tomonlama mos, yengil, oson ravishda bo'lishini Ollohnning o'zi ta'minlagan va bunga"sabab qilib janobi Rasululloh sallollohu alayhi vasallamdan sizu bizga dinni yetkazib kelgan ulamolarimizning dunyoning har tarafida paydo bo'lishini Olloh taolonning O'zi xohlagan ekanki, bu har birimiz uchun yaxshilikdur.

— *Mazhablar xilma-xilligi haqida, ular o'rtasidagi ba'zi ixtiloflar haqida xar xil fikrlar bildiradigan kishilar bor. Ba'zilar: "Qur'on bitta bo'lsa, dinimiz bir, shariatimiz bir bo'lsa, nega 4 ta mazhab bo'lishi kerak?" deb ay-tadilar. Umuman, mazhab bo'lishi shartmi, kishining muayyan mazhabda bo'lishi shartmi, deb so'raydilar.*

Bu savollarga biz Rasululloh alayhissalomning hadislari bilan javob beramiz. Janobi Rasululloh aytadilar: "Har bir ibodatingizda avvalo Ollohnning kitobi — Kalomullohga murojaat qilasizlar, Unda nima deyilgan bo'lsa — shunga amal qilasizlar, agar Qur'onda biron masalaning javobini topolmasangiz, u holda Mendan qolgan, Mendan o'tgan sunnatga murojaat qilasizlar, mening hadislarimga amal qilasizlar, agar hadislarimdan ham topol-masangiz, u holatda sahobalarimning aytgan gaplariga ergashasiz. Chunki sahobalarim osmondagи yo'lchi yulduzlarga o'xshaydilar. Manzilatlari shu qadar buyukdir, ularning qaysi biriga ergashsangiz, hidoyat yo'liga yetaklab keta oладilar. Sahobalarim o'rtasida xilmasalalar aytlishi ham Sizlar uchun Ollohnning marhamatidir".

Mana shu hadisdan janob Rasululloh sallallohu alayhi vasallam O'zlaridan keyingi sahobalar orasida ayrim ma-salalarda ixtiloflar bo'lishi ehtimolini bayon qildilar. Kaysi sahobaga ergashsangiz adashmaysiz, birini haq, ik-kinchisini nohaq, deyishga haqqingiz yo'q, deb marhamat qildilar. Bu dinimizning kengligidan dalolatdir.

Janob Rasululloh sallallohu alayhi vasallamni bir daqiqa bo'lsa ham iymon bilan ko'rib qolgan kishi sahoba deb ataladi. Payg'ambarimizning sahobalari 124 ming nafar bo'lgan ekan. Sahobalarning manzilatlari shu qadar buyukki, Ollohnning do'sti bo'lgan mingta avliyo, bir sahobaga martabada teng bo'lolmas ekan. Chunki, ular Rasulullohga zamondosh bo'lib, Saodat Asrida yashagan, dini Islomni butun olamga tarqatishda Rasulullohga ko'makdosh bo'lgan kishilardir. O'sha sahobalar janob Rasulullohning so'zlaridan va hayotlaridan xilma-xil hadislar rivoyat qiladilarki, ayrim paytlarda bir hadis ikkinchisiga zohirda teskari kelib qolishi ham mumkin. Bu tabiiy, albatta. Birimiz bir sahobaning, ikkinchimiz boshqa sahobaning hadisini olar ekanmiz, garchi masalada ikki xillik tursa ham har ikki taraf hidoyatda, to'g'ri yo'dda, deb e'tiqod qilinadi. Mazhablarning o'rtasidagi ixtilofli masalalar mana shu yerdan kelib chiqadi. Demak, sahobalar o'rtasidagi ixtiloflardan mazhablar o'rtasidagi ixtiloflar kelib chiqadi.

Lekin, biz aniq bilib olishimiz kerakki, bu "ixtiloflar" deb atalayotgan narsalar asli e'tiqodimizga bog'liq narsalar emas, asli aqidada, yagona e'tiqoddamizki, xech kimning orasida hech qanday ixtilof yo'q. Bu haqda Qur'onu hadisda mukammal ma'lumot berilgan. Hamma mazhabdagi musulmonlarning aqidasi birdir. Faqatgina ibodat va muomalotlarimizda ayrim farqlar ko'rindi. Demak, xilma-xillik Ollohnning rahmati ekan, buning yomonligi yo'q.

— Bas, shunday ekan, umuman, mazhabga bo'linmay, to'g'ri Qur'oni hadisdan foydalanib dinimizga amal qilaversak bo'lmaydimi?

— Olloh taoloning kalomi bo'Igan Qur'on va janobi Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning so'zлari, sunnatlari va hadislari insoniyat uchun ruhiy ozuqadir. Bemorni dori bilan shifolaganlaridek, kishini ruhoni y xastalik — dinsizliqdan, nodonlikdan, jaholatdan davolaydigan shifo janob Rasululohning hadislaridir. Demak, Payg'ambar alayhissalomning aytgan gallari go'yo dorillardir. Bizlarga bu dori — hadislarni yetkazgan muhaddis olimlar dorixona egalaridir. Ular o'sha dorilarni ketma-ket ko'rsatib, kitoblarga bitib qo'ydilar. Eng ulug', eng shifobaxsh dori — ruhning dorisi bo'Igan o'sha hadislarni o'z o'rnida ishlata bilish esa har kim ham uddalayveradigan oson ish emas. Ma'lumki, inson xastalansa, garchi savodxon bo'lsa ham, dorixonadan o'zi dori tanlay olmaydi va tabibga murojaat qiladi. Shuning uchun ham bizlar agar hadislarni ruhni shifolovchi dorilar deb bilsak, mazhab imomlarini dorishunos tabiblar deb bilamiz. Siz bilan biz o'sha tabiblarning gaplariga quloq solsak, doridan to'g'ri foydalana olamiz. Va bu bizning najotga borishimiz, oxirat diyorida ham baxtli bo'lishimiz uchun bir ta'minot bo'ladi, in-shoolloh.

— Demak, mazhab boshliqlari (Olloh barchalarshi rahmat qilsin) bizlar uchun o'sha tabiblar o'rnidagi kishilaridir.

— Ana o'sha "dori belgilaydigan tabiblar", ya'ni mazhab boshliqlari, ehtimolki, ayrim holatlarda ayricha, xilma-xil dorilarni, biri bir dorini, ikkinchisi boshqa bir dorini, ya'ni bir imom bir masalaga bir javobni, boshqa imom ikkinchi javobni aytish bilan o'rtalarida juz'iy ixtilof paydo bo'lishi mumkin.

Faqat bir tabibning dorisi bilan davolangan kishi shifo topganidek, bir mazhab imomining etagini ushlagan kishi ruhiy shifo topishi aklga ayondir.

Demak, bizlar uchun mazhablar — Ollohning rahmati, Qur'onu hadisni tushunishimiz uchun ulamolarning xizmati ekan.

— Mazhablarning ko'pligi dinning birligiga xayf solmaydimi?

Dinimiz bir. Kalomulloh bir. Shariat hukmlari bizga Qur'onu hadisdan yetadi. Shunga amal qilsak, Islomda turgan bo'lamiz. Lekin Qur'on ilmida bir narsa borki, shuni aytib o'tsak, Siz so'rayotgan masalaga javob bo'ladi, inshoolloh.

Ollohning Kalomi bo'Igan Qur'onning 7 xil qiroati bor. Yetti qori Qur'oni 7 xil o'qiydilar. Janob Rasululloh ham: "Qur'on yetti harf, ya'ni yetti qiroat ustida nozil qilindi", deganlar. Bu kiroatlar o'rtasidagi tafovutlar shundaki, ayrim kalimalargina xilma-xil qiroat qilinadi, xolos. Bu o'sha 7 nafar qoridan bizlarga meros bo'lib qolgan.

Bizlarning diyorimizda va qariyb butun olamda o'sha yetti qoridan biri bo'Igan Osim qiroatida o'qiladi va qo'limizda-gi Qur'on kitoblarimiz ana o'sha bir qorining qiroatiga asoslangandir. Osimdan uning ikki shogirdi Qur'oni qan-day qiroat qilish kerakligi haqida rivoyat qilgan. Ular Hafs ibn Sulaymon va Sho'ba degan kishilar edi. Sizu biz, hozirgi zamondagi aksari musulmonlar ana o'sha Osim degan qoridan Hafs ibn Sulaymon kilgan rivoyat bo'yicha o'qiymiz.

Qolgan 6 nafar qoridan ham, ikkitadan roviy rivoyat qilgan va o'sha 6 nafar qorining qiroati ham xuddi bizning qiroatimizdek haq qiroatdir. Ularning o'rtasida Qur'on mohiyatida farq yo'q.

Masalan, Qur'onning bir necha joyida Olloh taolo o'zining huzuriga qaytishimizni xabar beradi. Ana o'sha joyda "qaytasizlar", degan so'z keladi. Bu so'z arab tilida "tarji'un"dir. Bir qori shunday o'qigan, yana biri "turja'un" deb, uchinchisi "yarji'un", to'rtinchisi "yurja'un" deydi. Aslida, bo'zning o'zagi bitga — "qaytish" ma'noli so'z. To'rtgala ko'rinishni tarjima qilamiz — birinchi qori "qaytasizlar" deb o'qiydi, ikkinchisi "qaytarilasizlar", uchinchisi "qaytadilar" va to'rtinchi qori "qaytariladilar", dedi. To'rttalasi ham Olloh huzuriga qaytish haqida o'qidilar. Lekin, kiroatda shunday ixtilof bo'ldi. Biz shundan birini oldik va biz olmagan boshqa qiroatlarni ham haq deb, e'tirof qilamiz.

Qur'oni yetti qori yetti xil qiroat qilishi bilan u yettiga bo'linib qolmadi-ku! Nega mazhab to'rtta

bo'lishi bilan din 4 ga bo'linib qolar ekan?! Balki o'sha xilma-xillik, har diyorda mana shunday ulamolar o'tib, ular boshqargan mazhablarga odamlarning ergashishi — Olloh taoloning O'z bandalariga in'om etgan ne'matidir. Payg'ambar alayhissalomning sahobalariga zamondosh bo'lган Islom xalifalaridan Umar bin Abdulaziz: "Yaxshiyamki Payg'ambar alayhissalom sahobalari o'rtasida ayrim masalalarda xilma-xil rivoyatlar kelgan ekan, agar hammalari bir xil rivoyat kilganlarida din qiyinlashib ketar edi. Men o'sha sahobalar o'rtasida ixtilof bo'lmasligi va hammasi faqat bir xil rivoyat qilishlari haqqiga butun dunyo boyligining berilishini va'da qilsalar ham xursand bo'lmas edim", degan edi. O'sha sahobalar o'rtasidagi ixtiloflar dinimizni yengil qiladi, har mintaqadagi musulmonlar o'zlarining imomlariga ergashadilar, Qur'onu hadisga itoat qiladilar. Bu juda katta ne'matdir.

Demak, mazhablar o'rtasidagi ixtiloflar juz'iydir. Bu aqidadagi emas, balki ayrim ibodatlardagi ixtiloflardir. Mazhablar boshliqdari esa birbirlari bi-lan do'st-birodar, bir-birlariga ustoz-shogird bo'lган kishilardirki, bu haqda, inshoolloh, batafsil to'xtalamiz.

Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning sahobalari ayrim masalalarda ixtilof kildilar, dedik. Lekin bu narsa ularning oralarida dumshanlikka, adovatga sabab bo'lindi, balki ularning itgifoqliklari bardavom bo'ldi. Shuningdek, bizlar ham mazhablar o'rtasidagi ixtiloflardan kelib chiqib, o'z mazhabimizdagi yo'lni haq deb, boshqa mazhabdagilarni nohaq demaymiz. Dunyo miyosida tan olingan to'rtta mazhabning barchasi haqdir. Farq faqat afzal va joiz degan nisbatdadir. Biz e'tiqod qilgan mazhab — afzal, boshqa mazhablar esa — joiz, ya'ni ular ham to'g'ri mazhablardir. Lekin afzalrog'i bizning mazhab, deb e'tirof etamiz. Undan nariga o'tish, ya'ni, faqat bizning mazhab haq, boshqa mazhabdagilar dindan adashgan kishilar deyish adashishlikdir. Balki, mana shu narsa adovatga sabab bo'ladi.

— *Hurmatli ustoz, hazrati Imomi A'zamning shaxsi haqida batafsilroq so'z yuritsangiz...*

— Janobi Rasululloh sallallohu alayhi vasallam ummatlari bo'lган musulmon birodarlarimizga tarix davomida xizmat qilib o'tgan ulamolarimizni, xususan, Imomi A'zamdek buyuk shaxsni tanitish ulamolarning vazifalaridir. U kishining tarjimai hollarini naqadar aniq bilsak, u kyshining yuritgan yo'llarining ham naqadar haq ekanligini aniq bilib, ishonishimizga sabab bo'ladi.

Janobi Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: "Alloh taolo har bir insonga bir mansab — martaba ato qilgan. Birov oliymaqom zot bo'lsa, birov bir oz quyiroq maqomda hayot kechirib o'tadi. Sizlar har bir insonni imkoniyatinglar qadar o'z manzilatlariga qo'yinglar. Ya'ni, Buyuk shaxslarga behurmatlik nazari bilan qaramanglar va bepisandlik bilan ularga bee'tibor bo'l manglar", deb marhamat qilganlar. Ana shu ulug' martaba egalari bo'lган Ollohnning do'staridan, bizga dinimizni barkamol yetkazib ketgan ulamolardan, eng peshqadam zotlardan biri bo'lган zot — hazrati Imomi A'zam rahmatullohi alayhdir. U kishining asl ismlari No“mon, otalarining ismi Sobit, bobolarining ismi Zuto bo'lган ekan.

Zuto Qobul shahrida tavallud topganlar. Qavmiyatlari, millatlari forslardan. Dini Islom kelib, musulmonlar butun dunyoni fath qilib, Qobulga borganlarida bu kishi asir bo'lib Ko'fa shahriga kelib qolgan ekanlar. Zuto dini Islomni qabul qilganlaridan so'ng, uni qulliqdan ozod qiladilar va u ozod musulmonlar qatoriga qo'shiladi. Zutodan Ko'fada Sobit ismli farzand dunyoga keladi. Sobitdan esa bizning Imomimiz — hazrat No“mon ibn Sobit, laqabları Abu Hanifa, unvonları Imomi A'zam bo'lган zot Ko'fada tavallud topdilar. Imomi A'zam — Ulug' Imom deganidir. Bu martabaga boshqa hech bir mazhab boshlig'i yetib borgan emas. Boshqa mazhablarning boshliqlari imomimizni Imomi A'zam, deb sharaflaydilar, lekin ularning o'zlarini hech kim Imomi A'zam demaydi. Bizlar o'shanday Ulug' Imomning mazhabidagi kishilardirmiz.

Imomi A'zam rahmatullohi alayh hijriy 80-yilda tavallud topganlar. Demak, Payg'ambar alayhissalomning Asri Saodatlarida, birinchi asrda tug'ilganlar, Ko'faning o'zida o'sib-ulg'ayganlar. Shu yerdagi eng katga ulamolardan dars oldilar. To Qiyomat turadigan mazhabga asos solish darajasidagi ilmlarini o'sha Ko'fada egallaganlar. Bu kishining ustozlari Hammod ibn Abu Sulaymon degan zot edi. U Ko'fa shahrining faqiji, katta muhaddis olimi edilar. Bu zot imomimizning eng katta

va eng asosiy ustozlaridir. Lekin imomimiz boshqa hech kimga nasib bo'lмаган darajada juda ko'pchliliqdan saboq olganlar. Rasulullohni ko'rgan sahobalarni ko'rgan 4 ming kishidan dars olgan ekanlar. Imomimiz tavallud topgan 80-yilda hali sahobalarning hayotlari bor edilar. Jumladan, Ko'fa shahrida Imomi A'zam 9 nafar sahoba bilan muloqotda bo'lганlar. 8 erkak va 1 ayol sahabani ko'рганларини haqida kitoblarda bayon qilinadi.

Janobi Rasululloh sallallohu alayhi vasallamni qo'рган kishi sahoba, sahobalarni ko'рган kishi tobein hisoblanadi. Sahobalar va tobeinlarning maqomi Rasulullohning hadislarida bunday bayon qilinadi: "Zamonlarning eng yaxshisi — mening zamonim. Insoniyat paydo bo'lганidan to Qiyomatgacha men yashagan zamondan yaxshi zamon bo'lmaydi. Mening zamonimdan keyin sahabalarim yashagan zamон ham yaxshi zamon. Sahobalarimni ko'рган tobeinlar yashagan zamон ham yaxshi zamon. Lekin tobeinlardan keyin zamон buzilib, yolg'on yoyilib, odamlar orasida fitnafasodlar ko'payib ketadi". Siz bilan bizning imomimiz — hazrat Imomi A'zam rahmatullohi alayh sahabalar yashayotgan zamonda tavallud topdilar va sahabalar bilan muloqotda bo'ldilar. O'zları tobeinlar qatoriga kirdilar.

Imomi A'zam abu Hanifa rahmatullohi alayh ilm olish bobida, ilmiy darajalari miqyosida tengsiz edilar.

Biz Ahli sunna val jamoa mazhablari to'rtta dedik, ya'ni to'rtta eng katta ulamo 4 mazhabga asoschi ekanliklarini e'tirof etamiz. O'sha ulamolarni nomma-nom sanasak, o'z mazhabimizning darjasasi yanada ayon bo'ladi:

Imomi A'zam rahmatullohi alayh 80-yilda tug'ilganlar.

Imomi Molik ibn Anas 93-yilda tug'ilganlar.

Imomi Shofe'iy 150-yilda tug'ilganlar.

Imomi Ahmad bin Hanbal 164-yilda tug'ilganlar.

Demak, eng avval tug'ilgan, payg'ambar asrida tug'ilgan imom bizning imomimiz Imomi A'zam rahmatullohi alayhdır. U zotning Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning sahabalariga hamzamon bo'lғанларини haqida aytdik. Boshqa Imomlar esa sahabalarning suhbatlarini ololmaganlar. Shuning uchun ham ular bizning imomimizni o'zlariga ustoz, deb bilganlar.

Mazhab boshliqlaridan biri Imomi Shofe'iy shun-day e'tirof qiladilar: "Odamlar hammalleri — barcha ulamolar Qur'onu hadisni anglashda, masala ilmida Abu Hanifaga bola-chaqalikka yaraydi, xolos, Abu Hanifa bilan raqobat qilish darajasiga chiqqan inson yo'q".

Imomi Molik bin Anas rahimahullohu esa: "Men hadis ilmini bilishda, janob Rasulullohning oxirgi hadislarini yetkazishda, eng sahih hadislarni anglab yetishda Imomi A'zamga o'xshagan boshqa insonni uchratmadim", deydilar va bu zot ham doimo Imomi A'zamni o'zlariga ustoz deb sanaganlar.

Haqiqatan, Imomi A'zam rahmatullohi alayh Imomi Molikka hamda boshqa ikki imomga ham ustoz edilar. Chunki navbatdagi imom — Imomi Shofe'iy rahmatullohi alayh Imomi A'zam vafot qilgan 150-yilda tug'ilgan edilar va bu kishi bir muddat Imomi A'zamning shogirdi Muhammad bin Hasandan dars olganlar. Demak, Imomi Shofe'-iy Imomi A'zamning "nabira" shogirdi bo'lar ekanlar.

To'rtinchı mazhab asoschisi Imomi Ahmad ibn Hanbal esa Imomi Shofe'iydan dars olganlar. Demak, u kishi bizning Imomimizga "chevara" shogird ekanlar. Imomimiz shu qadar buyuk, barcha boshqa mazhablarning imomlariga ham ustoz bo'lgan zot ekanlar.

Bizlar hozirda o'sha zamonlardan uzoq bo'lғanimiz, ilmlı kishilarning oramizda kam bo'lғani, uzoq yillar davomida dinimiz ta'limotlaridan bebahra yashaganimiz uchun ana shu zotlarning manzilatlarini bilmasdan, ularga yarash-maydigan, mutlaqo to'g'ri kelmaydigan ayblarni ham ularning shaxsiyatiga taqab gapirib yuradigan kishilar ham oramizda yo'q emas. Shuning uchun ham Imomimizning tarjimai hollarini, boshqa imomlarning u zot haqida e'ti-roflarini yaxshi bilsak, shunda u kishining maqomlariga aqlimiz yetadi va xar xil gaplardan o'zimizni tiyamiz.

— *Imomi A'zam u qadar hadisga mohir bo'lмаган екан, u kishi Ko'fada yashab o'tганлари,*

Madina va Makkada yashamaganlari uchun hadislarni kam bilar ekanlar, deb yuradigan birodarlarimiz ham yo'q emas...

— Janob Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning 124 ming adadli sahobasining 150 nafari, yana boshqa bir rivoyatga qaraganda 1500 nafari Ko‘fada yashaganlar. Bular shunchaki ilmsiz sahobalar emasdilar. Rasulullohdan keyin ko‘p ilmli sahobalar Ko‘faga kelganlar. Ularning eng ulug‘laridan Abdulloh ibn Mas‘ud roziyallohu anhu, hazrati Ali karramallohu vajhahu kabi ulug‘ zotlar xam Ko‘fada istiqomat qilib turgandilar. Demak, Imomi A’zam tarbiyalangan muhit— Ko‘fa iqlimi hadislarga boy bir iqlim edi. Shuning uchun Imomimiz o‘zлari taqriban 4000 hadis rivoyat qilganlar. "Musnadi Abi Hanifa" dyogan alohida hadis kitoblari bor.

Takror bo‘lsa ham aytamizki, 124 ming sahobaning hammasi ham ilmli bo‘lmagan. Ularning orasida cho‘poni ham, dehqoni, tijoratchisi, hunarmandi ham bo‘lgan. Shu bilan birga ulamolari ham bo‘lgan. Shu katta sanoqdan 130 kishi muftiylik maqomiga, ya’ni har qanday masalada fatvo beradigan maqomga yetgan ekan. O’sha 130 sahobaning ichidan 6 kishigina mujtahid degan maqomga chiqqan ekan. Bu Qur’onu hadis asosida masala chiqarish iqtidoriga ega bo‘lishdir. Imomimiz o‘sha mujtahid sahobalarning olti nafaridan hadis rivoyat qilganlar. Ular Rasulullohni shunchaki bir soat ko‘rib qolgan kishilar emas, balki U Zotning yonlarida juda uzoq vaqt hamsuhbat bo‘lgan kishilar edilar.

Abdulloh ibn Mas‘ud, Abdulloh ibn Abbos, Abu Dardo, Ubay ibn Ka‘b, Abu Muso al-Ash’ariy kabi sahobalar mujtahidlik maqomigachiqqan kishilar edilar. Imomimiz bularning hammalarvdan hadis rivoyat qilganlar.

Demak, Imomi A’zamni u qadar hadisga mohir emas, deganlar johil kimsalardir, o‘z imomini tanimaydigan kishilardir. Yoki ular bir ulug‘ zotning manzilatini pastga tushirmoqchi bo‘lgan badg‘araz kishilar bo‘lib chiqadi.

— *Ustoz, endi mazhablar o‘rtasidagi ayrim yaqqol ko‘zga tashlanadigan ixtiloflar haqida aytib bersangiz?*

— Buning uchun biz hozir bir masalani bayon qilamiz. Shunda, balki ko‘p mushkul hal bo‘lib, odamlarimiz o‘rtasida tushunilmagan narsalarga aniqlik kirib qolar.

Keyingi davrda, alhamdulilloh, Olloh taolo marhamati bilan chegaralar ochilib, xorij bilan bordikeldi ko‘paydi. Erkin ravishda diniy bilimlarni olishimizga sharoitlar bo‘ldi. Bu shuqr qilishimiz kerak bo‘lgan ne’mati ilohiyadir.

Lekin, shu bilan birga chegaralar ochilgach, xilma-xil oqimlar bizning diyorimizga kirib kela boshladi. Yoxud diyorimizdan chetga safar qilganlar boshqa mazhablardagi kishilarning ibodatlariga guvoh bo‘ldilar. Natijada, o‘rtada ayrim masalalarda ixtiloflar yuzaga chiqdi.

Shunday ixtilofli masalalardan biri avvalgi suhbatlarimizda ham bir qadar qisqaroq gapirib o‘tganimiz — namoz ibodatlardagi "Omin" lafzini jahriy yoxud maxfiy aytish masalasidir. Bu ixtilof mazhablar o‘rtasidagi ixtilofdir. Ma'lumki, imomimiz Imomi A’zam rahmatullohi alayh namozda "Omin"ni maxfiy aytish lozim deydilar. Boshqa bir mazhab sohibi Ahmad ibn Hanbal rohimahullohu namozda "Omin"ni jahriy (ovoz chiqarib) aytish kerak, deydilar. Mana ikki imom o‘rtasida ixtilof paydo bo‘ldi. Lekin ikki imom ham behuda gapni emas, dalili, hujjati bor gapni aytdilar. Darvoqe, Imomi Shofe’iy va Imomi Molik ham namozda "Omin"ni maxfiy aytishni tan oladilar. Faqat Ahmad ibn Hanbal "Omin"ni jahriy aytilsin, deydilar. Bunday deyish uchun dalil sifatida u kishi hadis keltiradilar. Janob Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning sahobalaryidan Abdulloh ibn Zubayr degan kishi (Olloh u kishidan rozi bo‘lsin) Payg‘ambarimiz namoz o‘qiyotganlarida "Omin"ni jahriy aytganlar, deb hadis rivoyat qilganlar.

E’tibor qiling: Abdulloh ibn Zubayr Payg‘ambarimiz vafot qilganlarida 9 yashar bola edilar. Mana shu kishi Payg‘ambarimiz vafotlaridan keyin namozda "Omin"ni jahriy aytdilar va boshqalarga ham shuni tavsiya qildilar.

Yana bir sahoba Voil ibn Juhur degan zot (Olloh u kishidan rozi bo‘lsin) Payg‘ambar

alayhissalomdan rivoyat qilib: "Men Payg'ambarimiz ortlarida namoz o'qidim, Payg'ambarimiz namozda "Omin"ni oshkor ovoz chiqarib aytdilar", deydi. Bu ham haq hadis. Lekin, Voil ibn Juhurning o'zi kim edi? U Yamanning podshohi bo'lib, boshqa dindagi kishi edi. Janob Rasulullohning payg'ambar bo'lib yuborilganlarini eshitib, u kishini Ollohidoyat qilib, Rasulullohning huzurlariga kelib iymon keltirganlar. Va Payg'ambar alayhissalomning orqalarida bir hafta namoz o'qiganlar. Shynsa Payg'ambar alayhissalom namoz o'qishning tartibini o'rgatish uchun bo'lsa kerak yangi o'rganayotgan kishiga "Omin"ni ham jahriy aytib berganlar. Bir haftadan keyin u kishi iymonga kirib, namozni o'rganib yurtlariga qaytib ketganlar va umrlarining oxirigacha Rasulullohni qayta ko'rmaganlar.

Demak, "Omin"ni ovoz chiqarib aytish kerak, degan bir sahoba Rasulullohning vafotlarida 9 yashar bola bo'lsa, boshqa sahoba Rasulullohni bor-yo'g'i bir hafta ko'rgan kishi edi, xolos.

Bizning imomimiz Imomi A'zam rahmatullohi alayh namozda "Omin"ni maxfiy aytish kerakligi to'g'risida Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhudan rivoyat qiladilar. Bu kishi bir kuni — Rasulullohning vafotlaridan keyin yonlaridagi hamsuhbatlariga: "Men Sizlarga hozir Payg'ambar alayhissalomning namozlarini o'qib beraman", dedilar. Va namoz o'qib ko'rsatib berdilar. Shu namozlarida qo'llarini yelka barobariga ko'tarmadilar va shu bilan birga "Omin"ni ham ichlarida aytdilar. Rasululloh namozni shunday o'qiganlar, deb bayon qildilar.

Abdulloh ibn Mas'ud boshqa bir hadislarida esa mana bunday deganlar: "To'rt narsani namozxon odam pinhon o'qiydi: "Allahu akbar", deb namozga kirgandan so'ng "Subhanakaallohumma" deb boshlanadigan sanoni, "Auzu..."-ni, "Bismillah..."-ni va "Omin"ni".

Shu hadisni, ya'ni Rasululloh "Omin"ni maxfiy aytinlar, deb buyurganlar, namozlarida maxfiy aytganlar, degan hadisni rivoyat qilgan Abdulloh ibn Mas'ud Payg'ambar alayhissalom bilan 22 yil yonma-yon turgan sahoba edilar. Payg'ambar alayhissalom: "Qur'oni nami ketmagan holda, ya'ni menga nozil kilingan holida o'rganmoqchi bo'lsangiz, Abdulloh ibn Mas'uddan o'rganing", degan edilar.

Ana endi insof bilan o'zimiz qaysi yo'lga yurishni tanlashimiz mumkin: Rasulullohning namozlari haqida gapirgan 9 yoshli bolaning gapi to'g'riroq bo'ladimi, Rasulullohni umrida bir haftagini ko'rgan sahabanining gapi to'g'riroq bo'ladimi yoki Payg'ambarimiz bilan 22 yil yonma-yon turgan, hatto Payg'ambarning bolalaridan deb sanalib kelgan Abdulloh ibn Mas'udning gaplari to'g'riroq bo'ladimi?

Albatta, Rasulullohning yonlarida uzoq vaqt hamsuhbat bo'Igan, Islom millati ichida eng katta olim deb tan olingan Abdulloh ibn Mas'udning gapi haqroqdir, deb e'tiqod qilamiz, afzal deymiz. Bizning imomimiz shu hadis asosida "Omin"ni maxfiy aytishni buyuradilar.

Qolaversa, dinimizdagi asosiy manba — Ollohning kalomi — Qur'oni Karimga murojaat qilsak, Yaratgan Parvardigorimiz ibodatimiz xususida bizlarga: "Parvardigoringizga duo qilishda Ollohdan qo'rqib va ichingizda duo qiling", deb buyurgan. Bu Ollohning kalomidir.

"Omin" deb aytadigan kalimamiz duodir. Demak, bizlar duoni ichimizda aytishimiz Qur'onning mana shu ko'rsatmasiga, Rasululloh hazratlarining hadislariga muvofiq bo'ladi va shuning uchun imomimiz va boshqa ikki imom ham namozda "omin"ni maxfiy aytishni bizlarga kitoblarida qoldirib ketganlar.

Hozirda ayrim kishilar mana shu masalaga tushunmasdan musulmonlar o'rtasiga ixtilof solib qo'ymoqdalar. Ba'zi masjidlarda dindosh birodarlar, og'a-inilar bir-birlari bilan shu masala ustida "san-man"ga borib qolgan hollari ham quloqqa tushadi. Bizlar buning asosini bilsak, bu narsaning qaerdan, qay holatda vojib bo'Iganligini bilsak, tadqiq qilsak — inshoolloh, musulmonlarimizning ittifoqligiga sabab bo'ladi.

Men sizga imomimiz chiqargan masalalardan birini aytib berdim. Bunday masalalar mazhabimizda juda dalilli, isbotli va ko'pdir.

Masala chiqarish, Qur'onu hadisni anglash shu qadar nozik ishki, imomimiz Imomi A'zam

rahmatullohi alayh, xususan, hadisni tushunishda, uni rivoyat qilishda juda katta mas'uliyatni zimmalariga olgan ekanlar. Hadis yetkazgan ula-molar bu kishining hadisga bo'lgan ehtiyyotkorliklarini tan olib, e'tirof qilganlar. Imomi A'zam rahmatulloh alayh bir hadisni hadis deb aytish uchun o'zlaricha qoida qilgan ekanlar: "Shu hadisni yetkazgan roviydan eshitgan soatdan tortib to kitobga yozib yoki birovga so'zlaguncha bo'lgan muddatda agar bir daqqa shu hadis yoddan chiqib qolgan bo'lsa, u hadisni kitobga yozish, yoxud birovga aytishga hech kimning haqki yo'q", der ekanlar. Ya'ni, hadisning mazmuninigina emas, balki undagi so'zlarning har bir harfigacha yetkazish mas'uliyatini zimmalariga olgan ekanlar. Hadis rivoyat qilgan boshqa ulamolar uchun esa hadisning mazmunini yetkazib qo'yishgina kifoya qilgan.

Endi ayrim kishilarning Imomi A'zam ba'zi 100 minglab hadis rivoyat qilgan ulamolarga nisbatan juda oz hadis rivoyat qilgan, degan da'vosiga javob beramiz. Imomi A'zam rahmatullohi alayh haqiqatan ham boshqa muhaddis ulamolar darajasida ko'p hadis rivoyat kilgan emaslar. Lekin bu holat u kishining hadisni kamroq bilishlariga dalil bo'lmaydi.

Masalan, Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning eng ulug' sahabalaridan bo'lgan, uzoq vaqt Rasulullohning yonlarida turgan, dini Islomning quvvatlanishiga sabab bo'lgan zot hazrati Umar roziyallohu anhu Payg'ambar alayhissalomdan bor-yo'g'i 134 ta hadis rivoyat qilganlar, xolos. Janobi Rasululloh hayotlarining so'nggi 3 yilidagina hamsuhbat bo'lgan Abu Hurayradan esa bir necha ming hadis rivoyat bo'lgan. Bizlar ozroq hadis rivoyat qilganlari uchun Umar roziyallohu anhu Abu Hurayraga qaraganda dinni ozroq bilar edi, demaymiz-ku?! Demak, rivoyat qilingan hadisning sanog'i bilan kishining ilmi o'lchanmaydi. Qolaversa, hadislarning rivoyatidan ko'ra Imomimiz o'sha hadislarning diroya-tini, ya'ni to'g'ri anglashni avvalga qo'yganlar.

Hadis rivoyat qilganlarning hammasi ham hadisni Imomimiz kabi anglagan, Imomimiz kabi talqin qilgan emaslar.

Mana, bir misol: A'mash degan bir zot o'tgan. U Imomi A'zam rahmatullohi alayhga zamondosh bo'lgan muhaddis ulamolardan biri edi. O'sha kishi bir kuni Imomi A'zamning shogirdlari Abu Yusufga ta'na qilib, sening domlang imom Abu Hanifa bir masalada Payg'ambar alayhissalomning hadislariga qarshi ish qilyapti, dedi. Abu Yusuf so'radi: "Qaysi masalada?" Tobein muhaddislardan bo'lgan A'mash roziyallohu anhu aytdilar: "Birovning nikohida bo'lgan cho'ri boshka bir quzdorga sotilsa, savdo bitishi bilanoq taloq tushib qoladi va u ayol ozod bo'lib, navbatdagi xo'jayinining uyiga ersiz holda yetib boradi. Domlang Abu Hanifa esa, birovning nikohida bo'lgan cho'ri sotilsa, u o'z eriga taloq bo'lib qolmaydi. Balki faqat eri taloq qilsagina navbatdagi xojasiga boshi ochiq hodda ketadi, deydi. Bu gapi bilan domlang Paig'ambar alayhissalomning hadislariga zid ish qilgan bo'lmaydimi?"

Shunda Abu Yusuf: "Mening imomim o'sha sotilgan cho'ri boshi ochiq aylanib qolmaydi, degan masalani chiqarishda Siz rivoyat qilgan hadisga asoslanganlar. Axir Siz bizga bir hadis rivoyat qildingiz. Shunda Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning ayollari Oysha onamiz roziyallohu anhu bir Barira degan cho'rilarini ozod qilganlarida uning eri bor edi. Basira Rasulullohning oldilariga kelib, men mana bu yerdan ozod bo'ldim, endi erimning nikohidan ham chiqib ketdimmii, deb so'raganda, endi bu sening ixtiyorining, o'sha ering hal qiladi, uning ixtiyoridan agar taloq bersa, chiqib ketasan, dedilar, degandintiz-ku?!"

Mana shu hadisni rivoyat qilgan A'mashning o'zi uni Imomi A'zamchalik anglamagan ekanlar. Shogirdning javobidan so'ng A'mash, Ollo u kishidan rozi bo'lsin, Imomi A'zamning hadisni naqadar yaxshi anglashiga, hatto uni rivoyat qilgan odamning o'zidan ham yaxshiroq anglashiga qoyil qolgan ekanlar.

Demak, Sizu bizning Imomimiz hukm chiqarishda, masala bobida tengsiz bo'lgan ekanlar. Har bir hadisga Ollohdan qo'rqib yondashadigan ahli taqvo buyuk bir zot ekanlar.

— *Ustoz, endi imomimiz Imomi A'zam rahmatullohi alayh yashab o'tgan muhit haqida*

to‘xtalsangiz. Chunki u yoki bu shaxs haqidagi ma'lumotlarni to‘la idrok qilish uchun o'sha shaxs yashagan zamon va makon to‘g'risida bir oz tasavvur bo'lishi kerak...

— To‘g'ri, O'ktambek. Biz avvalroq Imomi A'zam rahmatullohi alayhning Ko‘fada tavallud topib, o'sha yerda dastlabki ilmiy ma'rifatlarini hosil qilganlari haqida gapirdik. Sizning savolningizga javob tariqasida bu sha-hardagi diniy va ilmiy iqlimning naqadar yaxshi bo'lganligi to‘g'risidagi gaplarimizga yana ba'zi qo'shimchalar bo'ladigan jihatlarni aytay:

Bu shahar hazrati Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning eng ulug' sahabalaridan, Payg'ambarimizdan keyingi ikkinchi xalifa bo'lgan hazrati Umar ibn Hattob zamonlarida — hijriy 17 yilda barpo bo'lgan shahardir. Islom tarixidan ma'lumki, dinimizning dunyoga tarqalishidagi eng muhim davr hazrati Umar roziyallohu anhu xalifalik qilgan yillarga to‘g'ri keladi. Jumladan, Iroq mamlakatlarining islom askarlari tomonidan zabit etilishi ham hazrati Umarning xalifalik yillariga to‘g'ri kelgan. Iroq zabit etilgandan so'ng, hazrati Umar roziyallohu anhu hijriy 17 yilda Ko‘fa shahrini barpo qilishga qaror qilgan ekanlar va shu shaharda yashaydigan kishilarga islomiy ilm o'rgatsin uchun suhbatimiz davomida zikr etib o'tilgan ulug' sahoba Abdulloh ibn Mas'udni jo'natgan ekanlar.

Mana shu joyda bir e'tiborga loyiq nuqta bor. Hazrati Umar hazrati Abdulloh ibn Mas'udni Ko‘faga jo'natar ekanlar, u zotning ortidan ko‘faliklarga yuborgan salomlarida mana bunday gap bor ekan: "Islom davlatining poytaxti Madinai Munavvaradaga musulmonlar — hammamiz Abdullohning ilmlariga tashnamiz. Lekin hozir o'zimizni qo'yib sizlarga yuboryapman Abdullohni. Sizlar foydalaninglar. Lekin unutmangki, Madinadagi butun sahabalar Abdullohning ilmiga muhtojdirlar". Demak, Abdulloh ibn Mas'udning ilmi shu darajada mukammal ekan. Bu zot Ko‘fada islomiy ma'rifatni shu qadar yoydilarki, natijada hazrati Umardan keyin xalifalik qilgan zot — hazrati Usmondan so'ng xalifa bo'lgan hazrati Ali Ko‘fani Islom davlatining poytaxtiga aylantirdilar. Hazrati Ali xalifa sifatida Ko‘faga kirib kelgan davrda bu yerda 4 ming nafardan ziyod juda yetuk bilimli ulamo bor edi. Bularning barchasi Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhudan ta'lim olgan edilar. Bu holatni ko‘rgan hazrati Ali: "Abdullohning mukofotini Ollohning o'zi bersin. Ko‘fani ilmiga to‘ldirib qo'yibdi-ku!" deb marhamat qilganlar.

Endi hazrati Alining o'zlariga kelsak. Bu kishining ilm darajalari haqida Rasululloh sallallohu alayhi vasallam, "Ilm shahri bo'lsa u — menman, bu shaharning darvozasi Alidir", degan edilar. Ummati Muhammadiya ichidagi eng bilimdon kishilardan bo'lgan hazrati Ali Abdulloh ibn Mas'udning Ko‘fa shahridagi mehnatlarini yuqorida aytiganidek, yuqori baholagan ekanlar.

Hazrati Imomi A'zam rahmatullohi alayh mana shunday iqlimda unib-o'sganlar... Rivoyatlarda keladiki, Imomi A'zamning bobolari Zuto otalari Sobitni go'daklik chog'ida hazrati Alining oldiga olib borib, o'g'limning haqiga duo qiling, deb iltimos qiladi. Shunda hazrati Ali roziyallohu anhu, o'g'lingga Olloh muborak surriyot ato qilsin, deb duo qilgan ekanlar. Mana shu ulug' sahabanining duolari ijobat bo'lib, Sobitga — Zutoning o'g'li Sobitga Olloh No“mon degan farzandni ato qildiki, bu Siz bilan bizning imomimiz Imomi A'zam No“mon ibn Sobit Abu Hanifadirlar.

Shunday qilib, Imomimiz diniy ilmda mukammal bo'lib, xususan, hadis ilmida ham shu qadar mahoratli bo'lgan ekanlarki, bu haqda Hasan ibn Ziyod degan zot, Imomi A'zam shaxsan 4 ming hadis rivoyat qilganlar, deydilar. Shu to‘rt ming hadisning teng yarmini ustozlari Hammod ibn Sulaymondan rivoyat qilganlar, qolgan 2 mingini boshqa tobeinlardan rivoyat qilganlar, deb aytganlar. Bu Imomimizning hadis ilmidagi mahorati haqida zamondoshlarining e'tirofidandir. Ko‘fa shahridagi bu go‘zal iqlim Imomi A'zam tug‘ilgan davrga to‘g'ri kelgan edi. Bu davrda suhbatimizning avvalida aytganimizdek, Ko‘fada 1500 sahoba yashagan edi. Demak, bu sahabalarning ilmlaridan bahra olgan imomimiz Imomi A'zam rahmatullohi alayh shunday ilmda tengsiz bir maqomda hammaga ustoz bo'lib, nafaqat oddiy musulmonlarga, balki din peshvolari bo'lgan mujtahid ulamolarga ham ustozlik darajasiga chiqqan ekanlar. Ulamolardan biri hazrati Imomi A'zam rahmatullohi alayhni eng kamida 83 mingta masala aytganlar, deydilar. Bu - to Qiyomat so‘ralishi mumkin va lozim bo'lgan hamma masalalarga Imomi A'zam javob aytganlar, deganidir. To‘rt mazhab ichida Imomi A'zamning mazhabi

eng ulug‘ deb tan olinishi o‘scha masalalarining puxtaligi va Qur’onu hadisga muvofiqligidandir. 83 ming masalani aytishga bir odamning umri kifoya qilishi o‘ta mushquldir, lekin Ollo Imomimizga ana shunday ne’matni in’om ettan ekan. Tarix davomida butun dunyodagi musulmonlarning qariyb yarmi Imomi A’zamning mazhabida bo‘lganlar. Hozir ham shunday. Bu Imomimizning masalala-ri naqadar puxta va to‘g‘riligidan dalolatdir.

Shu kunda yer yuzida 1,5 milliard atrofida musulmon bor. Shulardan taxminan 700 million nafari bizning mazhabdagi musulmonlardir.

Ahmad ibn Hanbalning mazhabida 15 million atrofida, xolos (esingizdam, bu mazhabdagilar “omin”ni jahriy aytadilar), endi o‘zingiz ayting: 700 million musulmon bir mazhabda, 15 million musulmon ikkinchi mazhabda bo‘lsa, bizning qaysi mazhabga ergashmog‘imiz afzalroq bo‘ladi? Janobi Rasulullohdan so‘rasak, u zot, agar musulmonlar biror masalada ikki toifaga bo‘linadigan bo‘lsa, qaysi toifadagi odamlarning sanog‘i ko‘p bo‘lsa, o‘shanga ergashinglar, adashmaysizlar, deydilar. Demak, mantiqan olinganda, bizning mazhabimiz shunday muborak mazhabki, ergashgan odam adashmaydi.

Imomi A’zam rahmatullohi alayh masalalarining yashovchanligi shundaki, hech qachon biron masalani yolg‘iz o‘zları aytib kitoblarga yozdirmaganlar. O‘zlarining eng peshqadam shogirdlaridan muftiylik maqomidagi 40 kishiga havola qilganlar. Ulardan o‘rtaga qo‘yilgan masalani asoslab berishni, agar asosi zaifroq bo‘lsa mazkur masalaga qarshi boshqa masala qo‘yishni talab qilar ekanlar. Demak, 40 na-far muftiyning muhokamasidan o‘tgan masalagina Imomi A’zamning masalasi sifatida kitoblarga kiritilar ekan. Shu bois ham mazhabimizni maslahat mazhabi, sho‘ro mazhabi ham deb ataydilar. Shuning uchun ham bizning mazhabdagi fiqh kitoblariga murojaat qilsak, ayrim hollarda Imomi A’zam aytgan bir gap aytilib turib, yonida shogirdlaridan birining gaplari ham aytildi. Imomimiz qaysi olimning hujjati quvvatliroq bo‘lsa, o‘shaning gapini kitobga tushirishni buyurar ekanlar. Va o‘zlarining gaplarini ham xato deyishib va xatoligini isbotlab bersalar, qabul qilarkanlar. Mana shu tufayli ham bu mazhab dunyoning, islom olamining ko‘p taraflariga yoyildi.

Suhbatimiz davomida Imom Shofe’iy butun ulamolar Imomi A’zamga bola-chaqalikka yaraydi, raqobat qilishga hech kimning imkon yo‘q, degan gapini eslatgan edik. Bu gapning ikki ma’nosи bor. Birinchisi, chindan ham hech kim masala bobida Imomi A’zamga barobar emas degani bo‘lsa, ikkinchi ma’no shuki, boshqa jamiki ulamolar qilgan masalalar — Imomi A’zamning masalalaridan foydalanib chiqarilgan masalalardir, degani. Imomi A’zam aytmay ketgan bironta ham masala yo‘q, degan ta’kid ham shundan.

Imomimizning taqvolariga kelsak, Ollohdan qo‘rqishlarini o‘rganadigan bo‘lsak, u zot har bir musulmon uchun bir maktab, yuksak namuna bo‘la oladigan hayotni yashab o‘tganlar. Imomimiz tijorat bilan ham shug‘ullangan edilar, aniq-rog‘i, tujjorlik Imomi A’zamning kasblari edi. Ollo taolo Imomimizga bu kasbda ham barakotlar ato qilgan.

Imomi A’zamning tijoratdagi halolliklari tarihda doston bo‘lib qolgan. Bu haqda zamondoshlari - do’stlari ham, dushmanlari ham yozib qoldirganlar. Mana ba’zi lavhalar: Imomimiz bir tojir sheriklari bilan boshqa yurtga mol yuboribdilar. Mol ikki xil navli bo‘lib, biri sifatli, ikkinchi xili sifatsizroq ekan. Imomimiz sheriklariga molni ikki xil narxda, yaxshisini kimmattroq, yomonini arzonroq sotasan, deb tayinlabdilar. Lekin mol yetkazilgan yurtda aynan shu narsa taqchil bo‘lganligidan, molning hammasi bir xil — qimmat narxda sotilib ketibdi. U kishi 30 ming kumush tangalik savdo qilib Ko‘faga qaytibdi. Shunda Imomimiz o‘scha sheriklaridan: “Ikki xil navli molni ikki xil narhda sotdingmi?” deb so‘rabdilar. U kishi, yo‘q, odamlar o‘scha qimmat narxga ham rozi bo‘lib sotib olaverdilar, deb javob beribdi. Shunda Imomi A’zamning dili og‘rib, o‘scha 30 ming tanga Ollo yo‘lida sadaqa bo‘lsin, debdilar. “Lekin men bu sadaqadan savob umid qilishga Ollohdan hayo qilaman, odamlarni aldab savdo qilibsiz, shuning uchun endi oramizdagи sheriklik ham bitdi”, deb 15 yillik sheriklaridan ham voz kechgan ekanlar. Birovning haqidан qo‘rqish, ya’ni Ollohdan qo‘rqish Imomi A’zam rahmatullohi alayhda shu darajada quvvatli ekan.

Kunlardan bir kuni Imomi A'zam bozorda gazlama xarid qilmoqchi bo'ldilar. Molning egasi 100 tanga deb baho aytdi. Imomimiz o'zlarini savdogar bo'lganlari uchun ham mol 100 tangalik emas, balki ancha qimmatroq ekanligini sezadilar. Shuning uchun mol-mulk egasiga, molingiz 100 tangalik emas, qimmatroq narx aytsangiz sotib olaman, deydi. Mol egasi 200 tanga beraqoling, deydi. Xaridorga mol bundan ham qimmatroq tuyulaveradi va buni yana savdogarga aytadilar. Mol egasi esa, bu mening narsam, qaysi narxda sotgim kelsa sotaveraman, deydi. Shunda Imomi A'zam rahmatullohi alayh bozorning narx belgilovchi oqsoqolini chaqirib kelib, matoning narxini aniqlab berishni so'raydilar. Narx belgilovchining aytishiga qaraganda, bu gazlama 500 tangalik ekan. Imomimiz matoni o'z narxiga — 500 tangaga sotib olibdilar.

Imomi A'zam rahmatullohi alayh avvalgi masalada sotuvchi sifatida birovning haqidan qanchalik qo'rqqan bo'lsalar, keyingi masalada xaridor sifatida ham birovning haqidan shunchalik qo'rqdilar.

Yana bir qun Imomimiz Ko'fa shahri qassoblari o'g'rilar keltirgan qo'ylarni sotyaptilar, degan gapni eshitib qoldilar. Shu kuniyoq bir cho'ponning oldiga borib, undan bitta qo'y o'rtacha necha yil yashaydi, deb so'radilar. Yetti yil, degan javobni eshittanlaridan so'ng, Imomimiz shuncha yil qo'y go'shti yemagan ekanlar.

Bu kishining taqvolariga sonsiz-sanoqsiz shunday misollar bor. Mana, o'sha misollardan yana biri.

Savdogarlik bilan shug'ullanib yurgan davrlarida Imomimizning gazlama do'konlari bo'lar ekan. O'sha do'kondagi xodimlari bir kuni gazlamalarni taxlay turib, matolardagi gullarga maxliyo bo'lib qolibdi-da, bu dunyoning gullari shu qadar go'zal bo'lsa, Jannat gullari qanday bo'lar ekan, "Ey Xudo, bizga ham Jannatingdan nasib et!" deb duo qilib yuboradi. Xodimlarining bu duosini eshitgan Imomimizning ranglari quv o'chib, do'konni yopib uylariga ketib qoladilar. Ertasiga kelganlarida Imomimizdan xodimlari kechagi voqeanning sababini so'raydi. Shunda Imomi A'zam rahmatullohi alayh: "Ey birodar, biz qaysi qilgan ibodatimiz uchun Ollohdan Jannat so'rashga haddimiz sig'adi? Biz faqat Ollohdan gunohlarimizni afv qilishini so'rashga haqlimiz, xolos", deydi.

Imomimiz mana shunday buyuk taqvo egasi bo'lganlari sababli ham, nihoyat darajada ibodatli kishi edilar. U zot ibodatda shu qadar muqim bo'lganlarki, 70 yillik hayotlarining 40 yilda kechalari uxmlamay ibodat qilgan ekanlar. 30 yoshlik chog'laridan to umrlarining oxirigacha xufton namozidagi tahoratlari bilan bomdodni o'qigan ekanlar. Kechalari hamma musulmon xufton namozidan keyin istirohatga, oromga kiradigan bo'lsa, Imomi A'zam hazratlari yangi liboslarini kiyib namozga turar ekanlar. Bir rakanida shundoq turib — nafl namozida 30 pora Qur'on o'qiydilar. Imomi A'zam rahmatullohi alayhning hayotlari bayon qilingan kitoblarda Imomimiz 30 pora Qur'oni o'qiyotib "Al-hakumuttakosur" surasiga kelganlarida, qiroatni davom ettirolmay yig'layverar ekanlar. Chunki bu surada Ollohdan taolo siz bilan bizga: "Ey g'ofil bandalar, to go'rлaringizga kirib ketguningizcha dunyo ko'paytirish bilan mashg'ul bo'ldilaringiz-ku", deb minnat qiladi. Imomimiz shu surani o'qiganlarida, men ham shu kishilar qatoridaman-ku, Ollohimga qanday javob beraman, deb yig'lar ekanlar.

Ramazoni sharifda esa Qur'oni har kuni ikki bor xatm qilar ekanlar. Boshqa oylarda har kuni xuftondan bomdodgacha bir bor xatm qilsalar, Ramazoni sharifda saharlikkacha bir bor va ertalabdan iftorlikkacha yana bir marta 30 pora Qur'oni xatm qilar ekanlar. Ollohdan taolo Imomimizga Qur'on xatm qilsin uchun vaqtini ham barakotli qilgan ekan. Imomimiz vafot qilgan xonalarida 7 ming marta Qur'oni xatm qilgan ekanlar. 7 ming marta Qur'on xatm qilish — bu muttasil yigirma yil davomi-da har kuni bir bor tik turib Qur'on o'qish deganidir. Imomi A'zam rahmatullohi alayhga shu nasib etgan ekan. Imomimizning kechalari namozda tik turishlariga qo'shnilarini shu qadar o'rgangan ekanlarki, u zot vafot qilganlarida bir qo'shnilarining farzandi — yosh bola otasiga, ota qo'shnimizning uyi o'rtasida bir ustun bo'lar edi, yiqilib tushibdi, degan ekan. Shunda u kishi, o'g'lim bu ustun emas edi, shu xonadonning egasi Abu Hanifa har kecha namozda turganini ko'rар eding, u kishi vafot qildilar, deb javob qiladi. Imomi A'zam rahmatullohi alayh shu qadar namozga baquvvat, Qur'onga muhabbatli bo'lish bilan birga, umrlarining so'nggi 30 yili ichida biron kun og'izlari ochiq bo'lmasan ekan. Hayotlarini doimiy ro'za bilan o'tkazgan ekanlar. Imomimizning ibodatdag'i bunday mustahkamlklari

Siz bilan bizga dars bo'ladigan, namuna bo'ladigan va bu kishini tanimaydiganlar yaxshiroq tanib olishlariga sabab bo'ladigan fazilatlardandir.

Imomimiz Imomi A'zam rahmatullohi alayhning dunyoga kelishlari va umuman, hayotlari haqida hazrati Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning hadislarida ishorat berilganligi to'g'risida ulamolar tarafidan aytildi. Ja-nobi Rasululloh sallallohu alayhi vasallam bir muborak hadislarida: "Haq din agar yerda emas, osmonda, Surayyo yulduzida bo'lsa ham, fors ahlidan bo'lgan kishilar ana shu iymonga yetib borib, ahli iymon bo'lib o'tadilar", deb bashorat qilganlar. Ulug' ulamolarimizdan Jaloliddin Suyutiy mana shu hadis Payg'ambar alayhissalom tarafidan hazrati Imomi A'zamning dunyoga kelishlariga bashorat va ishoratdir, deydilar. Ulamolar shunday talqin qiladilar va biz ham shu talqinga ishonamiz. Haqiqatan ham, Rasulul-loh sallallohu alayhi vasallam ummatlari orasida Imomi A'zam roziyallohu anhu darajasida Qur'onu hadisni yaxshi anglaydigan, masala bobida u zotning manzilatiga yetgan kishi qaytib dunyoga kelmadi. Bu zotning ilmlari, taqvolari, ibodatlari haqida bir qadar aytdik. Endi u kishining axloqlari xususida ikki og'iz so'z.

Imomi A'zam rahmatullohi alayh shu qadar go'zal xulqli inson ekanlarki, zamondoshlari u kishining shu fazilatlarini tan olib, eng chiroyli xulq Imomi A'zamning xulqidir, deb e'tirof qilganlar. Bu xususda ko'p katta ulamolardan bayonotlar qolgan. Imomimiz, suhbatimiz davomida aygganimizdek, ahli tijorat bo'lganlar. Olloh taolo bu zotga halol rizqu nasiba bergen, bekamu ko'st, boy-ba-davlat bo'lib yashab o'tganlar. U kishining doimiy saxovatlaridan hamma bahramand bo'dgan. Imomimiz Olloh taolo bergen ne'matga shukronasini tashqi ko'rinishdaham ko'rsatib o'tganlar. Doimo chiroyli va pokiza kiyimlarda yurganlar. Bu haqda ham zamondoshlari guvohlik berib ketganlar. Shunday baland maqomga erishgan zot nihoyatda tavozeli, xokiisor, kamtar kishi ekanlar. Ma'lumki, kishiga Olloh taolo bir fazilat bersa, qanchalik baland maqomga ko'tarilsa, uning hasadgo'ylari ham shunchalik ko'payadi. Imomimiz Imomi A'zam ham mana shunday holatdan benasib emas ekanlar. Ya'ni, bu kishining ham holatlariga hasad qilgan, sha'nlariga yarashmagan gaplarni aytgan kishilar ham tarihda yo'q emas. Hozirda ham ayrim kishilar Imomimizning kimliklarini, u kishining tarjimai holla-rini yaxshi o'rganmay turib ana shunday hasadgo'ylarning gaplari quloqlariga tushishi bilanoq, o'sha gaplarga ishona qoladilar, o'zları ham "chuvab" ketadilar. Bu, albatta, jaholat - bilmaslik oqibatidir. Imomimiz esa o'shanday hasadgo'ylarni ko'rganlarida: "Bizlarni yomonlagan kishilarning gunohini Olloh kechirsin, bizlarni yaxshi ko'rganlarni Olloh rahmat qilsin", deb duo qilar ekanlar. Ya'ni, yomonlikka yomonlik bilan javob qilmas ekanlar. Bu hayotlari davomida juda ko'p ko'ringan holatdir.

Bir kuni Imomimiz ko'chada ketayotganlarida o'shanday badxulq kishilardan ikitasi Imomi A'zamning sha'nlariga yarashmagan haqoratlarni qilibdi. Har qanday kishining ham g'azabini qo'zg'aydigan bunday haqoratlarni eshitgan Imomi A'zam ularga e'tibor bermay, o'z yo'llarida davom etaveribdilar. Haligi ikki badxulq ham so'kinishdan to'xtamay Imomimizning ortidan ergashib kelaveribdi. Nihoyat, Imomimiz o'z uylariga yetib keladilar-da, eshiklari oldida to'xtab, haligilarga: "Birodarlar, men uyimga yetib keldim. Agar haqoratlardan qolgani bo'lsa, so'kib olinglar, men kutib turaman, tugaganda uyimga kirib ketaman", degan ekanlar. Bu kishi shu darajada xokisor, tavozeli, kamtar bo'lgan ekanlar.

Yana bir misol: halolni haromdan ajrata olmaydigan, o'zi kambag'al, bechora bo'lsa ham kalondimog', birovlarni so'kib, diliga ozor yetkazib maza kiladigan kishilar bo'ladi. Imomimizning o'shanday bir qo'shnilarini bor ekan. U Olloh taolo harom qilgan ichkilikka giriftor, har kecha mast ekan. Imomi A'zam sha'nlariga hajvlar aytar, baqir-chaqir qilib u zotga ozor berar ekan. Imomimiz toqat bilan uning haqoratlarini eshitaverar ekanlar. Itgifoqo, bir quni qo'shnining xonadonidan odatdag'i baqir-chaqir, so'kinish, xaqrat sasi kelmay qolibdi. Imomimiz xavotirlanib xabar oldirdilar. Ma'lum bo'lishicha, o'sha badxulq qo'shni badxulqligi tufayli mirshablarning qo'liga tushib, hibsga olinibdi. Imomi A'zam uni Xudo jazolabdi deb qo'ya qolmasdan, darhol amirning huzuriga boribdilar. Mening bir ayolmand kosib, kambag'al ko'shnikni qandaydir ayb bilan zindonband qilibdilar. O'sha

qo'shnikni ozod qiling, unga mening o'zim kafilman, deb iltimos qilibdilar. Ko'faning amiri, albatta, Imomi A'zamning kim ekanligini bilar edilar. Shuning uchun u kishining hurmatidan nafaqat badxulq qo'shnikni, balki keyingi ikki kun davomida hibsga olinganlarning hammasini qo'yib yubordilar. Shundan so'ng u qo'shni Xudo insof berdi. U zindondan to'g'ri Imomi A'zamning huzuriga keldi. Tavba qilib, Imomimizga shogird bo'ldi.

Tarix kitoblarining guvohlik beripshcha, u kishi keyinchalik katta olim bo'lib ketgan ekanlar. Zamondoshlarning ta'kidlashlariga qaraganda, Imomi A'zam ancha-muncha kishilarni bir qo'rishdayoq holatlariga qarab qanday odam ekanliklarini aniq aytib bera oladigan darajada farosatlari kishi bo'lgan ekanlar. Juda ko'pchilik mana shu narsani tan olib e'tirof etadi.

Imomi A'zamning masala bobida beqiyos bo'lganliklariga yana bir misol. Bu misol hozirgi zamon uchun unchalik ajablanarli bo'lmasa-da, Imomimiz yashagan davr uchun ancha mushkul edi. Ya'ni, aksari masalalarni Imomi A'zam o'z farosatlari bilan yechar edilar. Bunga bir misol, Ko'fada bir ayol egizak farzand ko'ribdi. Egazaklar bir-birlariga bellaridan yopishgan hodda tug'ilibdilar. Hozir bundaylarni Siyom egizaklari deb ataydilar. Bir oz fursat o'tgach, o'sha ikki chaqaloqdan birining ajali yetib o'ladi, ikkinchisi esa tirik. Agar bu holat bizning zamonda ro'y bersa, darhol jarrohlar aralashib masalani nashtar bilan hal qilib qo'ya qoladilar. Lekin gap 1300 yil avval bo'lgan voqeа xususida, tabobat rivojlanmagan davrda ro'y bergen voqeа haqida ketyapti. Xullas, hamma hayron. O'likni qo'ymoqchi bo'lsalar, uning tirik sherigi bor. Ko'mmasalar ...

Shunda hech kim jo'yali bir javob aytolmagan mazkur masalaga Ollohning ilhami bilan Imomi A'zam javob qiladilar. U kishi, bu bola ko'miladi, lekin shundoq qo'miladiki, tirik bola yerning ustida qoladi, deydilar. Xuddi shundoq ko'madilar va Ollohning qudrati bilan sanoqli kundan so'ng yer o'sha marhum farzandni tirik farzanddan ajratib oladi. Tirik bolaning hayoti mana shunday saqpab qolinadi. Keyin uni Imomi A'zamning o'g'li deb ataydilar. Imomimizning bu "o'g'li" uzoq yillar umr ko'radi. Insoniyat tarixida juda kam uchraydigan mazkur hodisaga bog'liq masalani hal qilishda Imomimiz favqulodda farosatlari ekanliklarini namoyish qilganlar.

— *Imomi A'zam rahmatullohi alayhning mansabga munosabati qanday edi ?*

— Bu ham batafsil to'xtalishga arziyidigan mavzudir. Imomimizning ilmiy darajasi qanchalik yuksak, odamiyliги mislsiz ekanligini davlat boshliqlari ham, albatta, bilar edilar. Ko'fa viloyati va shahrining hokimi Ibn Hubaya Imomi A'zamga Ko'fa viloyatiga qozi bo'lishni taklif qiladi. Imomimiz, men qozilik lavozimida ishlashga Ollohdan qo'rqaman, deb hokim taklifini rad etadi. Gapi qaytganidan g'azablangan hokim, taklifimni qabul qilmasangiz, zindonband bo'lasiz, sizni har kuni o'n darra uradilar, deb tahdid qiladi. Shunda Imomi A'zam rahmatullohi alayh: "Ollohning oxirat Diyoridagi azobidan bu dunyodagi hokimning azobi, albatta, yengil bo'ladi, men roziman", deydilar. Shu tariqa zindonni qozilikka almashtiradilar. Xursandlik bilan hibsga olinib, zindon-band qilinadilar. Imomi A'zamni zindonband qilganlaridan so'ng 10 qun davomida hokimning huzuriga olib borar ekanlar. Hokim u zotdan, o'ylab ko'rdingizmi, rozilik berasizmi endi qozi bo'lishga, deb so'rар ekan. Rad javobi-ni eshitgach, g'azablanar, yana 10 darra urishga buyurar ekan. Imomimiz kaltaklanib zindonga qaytgandan so'ng yig'lar ekanlar. Hamzindonlari bu holatdan hayron. Nihoyat, Imomimizdan nega bunday qilayotganlarini so'rashga jur'at qilibdilar. Axir sizga lavozim bermoqchilar-ku, uni tezroq qabul qilingu shu azoblardan qutuling, deyishibdi. Shunda Imomi A'zam rahmatullohi alayh: "Men kaltak zarbidan yig'layotganim yo'q Onamga rahmim kelganidan yig'layapman. U kishi mening zindonga tushganidan, kaltaklanayotganidan boxabarlar. Onam qanday chidayaptilar ekan! Meni mana shu narsa yig'latyapti", degan ekanlar. Shu tariqa 10 kunni azobda o'tkazibdilar. O'n birinchi kunga o'tar kechasi hokimning tushiga janob Rasululloh sallallohu alayhi vasallam kiribdilar. Payg'ambarimiz hokimga, "Mening sunnatimni tiriltirib dunyoga yoyayotgan zotni zindonga olib kirishdan qo'rqmaysanmi?" deb tanbeh berdilar. Shundan so'ng hokim tong otishi bilanoq shaxsan o'zi zindonga kirib, Imomi A'zam rahmatullohi alayhdan uzr so'rabdi, u zotni ozod qilibdi.

Imomimiz mana shunday mansab — lavozimdan hazar qilgan kishi bo'lgan ekanlar. Zamondoshlarimiz orasida esa, aksincha, turli-tuman katta-kichik mansab-lavozimlar uchun yelib-yugurayotgan, o'sha lavozimga chiqib olish uchun o'rtaga dunyoni ham, dinni ham qo'yayotgan kimsalar, afsuski, oz emas. O'shalar Imomi A'zam rahmatullohi alayhdan o'rnak olsalar yomon bo'lmas edi.

Zindondan ozod bo'lganlaridan keyin imomimiz Ko'fani tark etib, Makkai Mukarramaga ketib qoldilar va bu muborak shaharda 10 yillar davomida istiqomat qildilar. Bu zotning hayotlaridan yana bir nuqta - 70 yillik hayotlarida 55 marta haj ibodatini ado qilganlar. Demak, Imomimiz nafaqat Ko'fadagi, balki Makkai Mukarrama va Madinai Munavvaradagi ulamolarning suhabatlaridan ham bahramand bo'lganlar.

Turkiston diyordagi musulmonlar Olloho taologa behad, beedad shukrlar qilishimiz kerakki, Imomi A'zam rahmatullohi alayhday ulug' zotning yo'nalishlarida, mazhablarida imkoniyatimiz qadar ibodat qilib kelyapmiz.

Hazrati Imomi A'zam rahmatullohi alayhning tarjimai hollariga bag'ishlangan suhabatimizning nihoyasida aytib ko'yishimiz zarur deb bilgan yana bir narsa bor:

To'rt mazhabdan birining asoschisi — Molik ibn Anas roziyallohu anhu bir ibratlil gap aytib ketgan ekanlar. Katta ilmiy darajaga yetgan bu zot Madinai Munavvarada yashaganlar, hadislar to'plami "Muvatto" kitobini yozganlar. Bir kun o'sha davrdagi Islom xalifasi Abu Ja'far al-Mansur "Muvatto"ni o'qib qolibdilar-da, huzurlariga Molik ibn Anasni chaqirtiribdilar. "Ey Molik, — debdilar xalifa imomga yuzlanib, — sening kitobingni o'qidim. Qur'onu hadisga juda mos kitob yozibsan. Sening mazhabingga ergashgan musulmon ko'p diyormizda, lekin men Islom olamining amiri sifatida mana shu kitobingni juda ko'p nusxada chop ettirib, bugun dunyodagi musulmonlarga tarqattirmoqchiman. Toki dunyodagi musulmonlarning barchasi faqat shu kitobga bo'ysunsinlar! Faqat molikiy mazhabida bo'lsinlar", debdilar. Shunda Imom Molik, Olloho rozi bo'lsin bu zotdan, mana bunday marhamat qiladilarki: "Yo Amiralmo"minin, shunday qilmang. Yozgan kitobimdagи gaplarimni mendan va shogirdlarimdan eshitgan kishilar mening mazhabimga ergashsalar Olloho shukr qilaman. Lekin Islom olamining boshqa taraflariga juda ko'p ulamolar yetib borganlarki, ular olib borgan ta'limotlarini endi noto'g'ri deyish va o'rniga mening kitobimni o'qishni buyurish, mening mazhabimga kirishga majburlash bilan siz dini Islomga xizmat qilgan bo'lmaysiz, balki musulmonlarning e'tiqodlaridagi paro-kandalikka sabab bo'lasiz. Demak, shu paytgacha ajdodlarimiz amal qilib kelgan yo'l - xato yo'l ekanda, deb o'ylab qolishlariga sabab bo'lasiz. Meni eshitgan va meni kitobimni o'qiganlar mening mazhabimda bo'lsinlar. Boshqa diyorlardagi musulmonlar o'zlariga yetib borgan mujtahid ulamolarning mazhablarida tursinlar. Menga ergashgan musulmonlar ham, ularga ergashgan musulmonlar ham, inshoollo, hidoyatda, haq yo'lda bo'ladilar". Imom Molikning Amiralmo"mining bergan javobi shunday bo'libdi.

Bizlarga 1000 yillar davomida Imom A'zam mazhabidagi ta'limot berildi va shunga binoan bu ta'limotga ota-bobolarimiz amal qilib keldilar, biz ham amal qilmoqdamiz. Lekin oramizda bizning mazhabimizdan ko'ra quvvatliroq mazhab bor ekan, mana bu masalada boshqa mazhabning hujjati quchliroq ekan, deb yuruvchilar ham yo'q emas. Shunday kishilar Imom Molikning gaplarini bir eslasalar, musulmonlar orasiga parokandalik tushib qolishiga, o'rtada ixti-loflar paydo bo'lishiga mana shunday o'ylanmasdan aytilgan gaplar sabab bo'lishini insof bilan tafakkur qilib ko'rsalar, yomon bo'lmas edi. Mana shunda bu diyordagi musulmonlarning ittifoqligi, og'a-ini, birodarlik bilan Olloho tao-loning buyruqlarida qoim bo'lib, janobi Rasululloh sallallohu alayhi vasallam taraflaridan bashorat qilingan ulug' zotning — Imom A'zamning mazhablarida bo'lishimiz har birimiz uchun bir xayriyat, yaxshilik bo'lishini yaxshi anglab olsak, xammamiz uchun ham foydali bo'ladi.

Suhbatimizda hazrati Imomi A'zam rahmatullohi alayhning hayotlaridan ba'zi lavhalarni bayon qilib berdik, xolos. Olloho taolo o'tganlarni o'z rahmatiga olsin. Siz bilan bizni, holi hayotdagi barcha musulmonlarni Olloho taolo haq yo'ldan adashtirmsasin. Omin!

